

Z. ISLOMOV, D. RAHIMJONOV, J. NAJMIDDINOV

DUNYO DINLARI TARIXI

**O‘rta umumta‘lim muassasalarining 10-sinflari va o‘rta maxsus,
kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun darslik**

1-nashri

**O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta‘limi vazirligi
tasdiqlagan**

Toshkent
«Yangiyo‘l Poligraf Servis»
2017

UO‘K: 17=512.133(075.2)

KBK: 71.04ya721

Q 97 Islomov, Zohidjon.

Dunyo dinlari tarixi 10-sinf: O‘rta ta‘lim maktablarining 10-sinf-lari va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi muassasalari uchun darslik / Z. Islomov, D. Rahimjonov, J. Najmiddinov. - Birinchi nashr. - Toshkent.: «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017. - 144 b.

UO‘K: 17=512.133(075.2)

KBK: 71.04ya721

ISBN 978-9943-4936-1-2

N.K. Ismatovanning uslubiy tahriri va pedagogik qurilmalari asosida tayyorlangan.

Mas‘ul muharrirlar:

A. Hasanov, tarix fanlari doktori, professor

O. Yusupov, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

N. Muhamedov, tarix fanlari nomzodi, dotsent

H. Yo‘ldoshxo‘jayev, tarix fanlari nomzodi, dotsent

A. Zamonov, O‘z FA O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz katta ilmiy xodimi

J. Tohirov, Xorijiy tillarga ixtisoslashtirilgan davlat umumta‘lim maktabi o‘qituvchisi

N. Qudratova, Toshkent shahridagi 41-maktabning tarix fani o‘qituvchisi

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2017-yil 5-sentabrdagi 5958-raqamli tavsiyasi, Respublika ta‘lim markazi qoshidagi «Tarix» fani ilmiy-metodik kengashi hamda O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha muvofiqlashtiruvchi-metodik markazning 2017-yil 29-avgustdagi 5-sonli xulosasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan chop etildi.

© Z. Islomov, D. Rahimjonov, J. Najmiddinov, 2017.

© «Yangiyo‘l poligraf servis», 2017.

ISBN 978-9943-4936-1-2

So'zboshi

Din azaldan kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlarga chorlagan. Markaziy Osiyo xalqlari e'tiqod qilib kelgan islom dini ham yuksak insoniy fazilatlarining shakllanishiga xizmat qilgan. Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq, ijtimoiy hayotda doimo u bilan birga bo'lib kelgan.

Dinni o'rganish — bu inson ma'naviy dunyosini o'rganishdir. Diniy manbalar insoniyat tarixida sodir bo'lgan ibratli voqealarni o'zida mujassam qilgan, ular kishilarni axloqiy tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bu esa insonning hayot so'qmoqlarida adashmasligi, yaxshi-yomon, oq-u qorani anglab yetishi hamda o'z umrini oqilona tashkil etishi uchun asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Natijada insonning turmush tarzi yuksalib, jamiyatda taraqqiy etadi.

Dinga e'tiqod qilish va vijdon erkinligi masalasi O'zbekiston Respublikasi-ning Konstitutsiyasida o'z aksini topgan. U xalqaro huquqiy-me'yoriy talablarga to'liq javob beradi. Har qanday dinga e'tiqod qiluvchi va hech qanday dinga e'tiqod qilmaydigan kishilar uchun bir xildagi shartlar qo'yilishini ta'minlovchi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida, jumladan, shunday deyiladi:

«Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e'tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e'tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo'l qo'yilmaydi.»

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida vijdon erkinligining ta'minlanishi, barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga, jumladan, e'tiqod erkinligi huquqiga egaligi, dini va e'tiqodidan qat'i nazar, qonun oldida tengligi ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishda milliy qadriyatlar bilan bir qatorda diniy qadriyatlarining ahamiyati ham katta. O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimovning quyidagi so'zlarida bu tamoyil o'zining yorqin ifodasini topgan: «Mamlakatimizni demokratik tamoyillar, ilm-fan yutuqlari, yuksak texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish bilan birga, muqaddas dinimizni, milliy o'zligimizni asrab-avaylab yashashni maq-

sad qilib qo‘yganmiz». Bunday yondashuv hayotiy asosga ega bo‘lib, u din sohasida kechayotgan o‘zgarishlarni xolis, ilmiy o‘rganish va shundan kelib chiqib, ijobiy jarayonlarni yanada rivojlantirish, salbiy holatlarning oldini olish uchun imkoniyat yaratdi.

Ko‘p millatli, ko‘p konfessiyali O‘zbekistonda mustaqillikka erishilgan ilk yillardanoq din, bag‘rikenglik masalalariga katta e‘tibor berildi. Dinning insonparvarlik falsafasi, ezgu g‘oyalari va buyuk ajdodlarimiz merosidan bahramand bo‘lish, ushbu yuksak qadriyatlarning yoshlar qalbidan joy olishi uchun mamlakatimiz ta‘lim tizimi sohasida ko‘plab ishlar amalga oshirildi. Dunyo dinlari tarixi bo‘yicha zaruriy ma‘lumotlarni o‘zida mujassam qilgan, yoshlarni diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiluvchi ushbu darslik ham yurtimizda amalga oshirilayotgan ijobiy o‘zgarishlarning natijasidir.

Mualliflar jamoasi kitobni nashrga tayyorlashda o‘z maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo‘yicha qo‘mita, O‘zbekiston musulmonlari idorasi, Toshkent islom universiteti, Toshkent islom instituti rahbariyati va professor-o‘qituvchilariga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlar pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutlarining ijtimoiy kafedralari mudirlariga o‘z minnatdorchiligini bildiradi.

1-§

DINNING JAMIYATDAGI O'RNI VA VAZIFALARI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jamiyat diniy qadriyatlarsiz yashay oladimi?
2. Milliy va jahon dinlari haqida quyi sinflarda olgan bilimlaringizni eslab ko'ring.
3. Dinning qanday shakllari mavjud?
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasini o'qing. Davlat tomonidan fuqarolarga vijdon erkinligining kafolatlanishiga misollar keltiring.
5. Din insonlar dunyoqarashining shakllanishiga ta'sir etadimi?
6. Sizing hayotingizda qanday qadriyatlar mavjud?

DIN VA IJTIMOIY HAYOT

Din jamiyat hayotida muhim o'ringa ega. U kishilarda ezgulikka intilish, o'zini ruhan va jismonan poklash, atrofdegilarga manfaat yetkazish, hayotni qadrlash kabi ijobiy xislatlarni shakllantiradi.

Dinlar kishilarni hamisha yaxshilikka, ezgu ishlar-ga chorlab kelgan. Dunyo xaritasidagi deyarli har bir mamlakatda yashovchi xalq muayyan dinga e'tiqod qiladi, uning o'z urf-odat va an'analari mavjud. Dunyo xalqlari tarixini o'rganishda ularning diniy qarashlari, e'tiqodlari va diniy amaliyotlarini e'tibordan chetda qoldirish mumkin emas.

Sizlarning yaxshilaringiz dunyo ishini deb oxirat ishini, oxiratni deb dunyo ishini tark qilmaydigan va odamlarga maloligini tushirmaydiganlarinigizdir.

Hadis



Din — arabcha so'z bo'lib, o'zbek tilida ishonch, e'tiqod qilish ma'nolarini anglatadi.

Ehtiyojning
tushadigan ilmni
o'rganishdan
o'zingni olib
qochma!

**Imomi A'zam
Abu Hanifa**



XVII-XIX asrlarda yashab ijod qilgan ba'zi yevropalik tadqiqotchilar insoniyat taraqqiy etib borgani sari uning qo'rquvlari ham kamayadi, u mustaqil bo'ladi, bu esa dinlarning butkul yo'q bo'lib ketishiga olib keladi, deb bashorat qilgan edilar. Biroq vaqt o'tishi bilan bu fikr amalda o'z tasdig'ini topmadi.

Din jamiyatda insonlar *dunyoqarashini shakllantirish, tasalli berish (kompensatorlik), birlashtirish, boshqarish, kommunikativlik, ruhiy-ma'naviy tarbiyalash* kabi bir qator vazifalarni bajarib kelgan.



IJODIY FAOLIYAT

1. Mazkur rasmlardagi umumiylik va o'ziga xos jihatlarni aniqlang.
2. Rasmlarni tahlil etib, jahon va milliy dinlarga ajrating.
3. Rasmlar asosida dinning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyatiga tavsif bering.

Dinning **tasalli beruvchilik** vazifasini olaylik. Inson bolasi boshiga bi-ror musibat, qiyinchilik tushganida o'ziga dindand ovutuvchi, ko'ngliga taskin beruvchi, yupatuvchi kuch topgan.

Din **birlashtirish** vazifasini ham bajarib, insonlar orasida hamjihatlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir din e'tiqod qiluvchilarini o'z qoidalariga amal qilishga chaqiradi. Ularni bu qoidalarga sodiqlikka undaydi va shu yo'l bilan insonlarni birlashtiradi.

Din o'ziga e'tiqod qiluvchilarning turmushini tartibga solib, **boshqarish** vazifasini ham bajaradi. Bu vazifa axloq normalari asosida amalga oshiriladi. Din axloq normalarini tartibga soladi hamda halol va harom, savob va gunoh nima ekanligini belgilab beradi.

Dinning **kommunikativlik** vazifasi shundaki, diniy urf-odat, an'ana, marosim va bayramlarni birgalikda o'tkazishga, qarindoshlik, birodarlik, dindoshlik aloqalarini mustahkamlashga chaqiradi.

Din inson hayotining ezgulik mohiyatini ochadi. Bu uning insonlarni **ruhiy-ma'naviy tarbiyalash** vazifasini ado etayotganiga yaqqol dalildir.

OLAMNI MAHLIYO AYLAGAN DIYOR

...Bir voqea mening ko'z oldimdan elas-elas o'tadi. O'shanda men chamasi 5—6 yoshlarda edim. Qo'shnimizning uyida odam gavjum, mahallaning kattakichigi yig'ilgan. Kimdir ko'cha-hovlilarni supurgan, kimdir ayvonga joy solgan, kimdir poyandoz uchun oq matoni taxlagan. Barcha o'z ishini bilib-bilib qilar, xullas, jam bo'lganlarni ko'rinmas odam boshqarayotgandek edi. Mana, kutilgan daqiqalar ham keldi. Hamma darvozaxonaga tizilib turib oldi, yo'lakka boyagi oq poyandoz ham solindi. Eshikdan Robiya aya bilan Abdurahmon ota kirib kelishdi. Ular oppoq kiyinishgan. Nazarimda, darvozaxonadan nur qalqib kelayotganga o'xshardi. Hovlida yig'ilganlar ularni xursandchilik bilan kutib olishdi... Duoyi fotihadan keyin mahallaning kattalaridan: «Ha, davlatimizga rahmat, biz musulmonlarga Haj amallarini bajarish imkoniyatini berdi-ya. Ota-bobolarimiz buni armon qilib ketishdi. Kim o'ylabdi deysiz, bunday imkoniyat bizga berilishini. Yurtimizning tinchligiga ko'z tegmasin...» degan gaplarni eshitdim. O'sha vaqtlarda bu gaplarning mazmuniga tushunmasam-da, qachonlardir og'ir kunlar bo'lganini his qilgandek edim...

2017-yilda o'tkazilgan «O'zbekistonning eng yangi tarixi» bo'yicha esselar tanlovi g'olibi I. Obidovanning ishidan

Insonning asosiy vazifasi o'zini o'rab turgan olam sirlarini o'rganishdan iborat. Fanlarning holati ham ana shunday. Ularni kishining turmushi uchun bo'lgan ehtiyoj dunyoga keltirdi. Shunga muvofiq tarzda fan tarmoq otdi.

*Abu Rayhon
Beruniy*



Din madaniyat rivojiga ham katta ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, u umuminsoniy va milliy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazish borasida ham muhim ahamiyatga ega.

Din insoniyatning ruhiy dunyosi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, hayotda doimo u bilan birga bo'lib kelgan.

Bugungi kunda ba'zi kuchlar dinning jamiyatdagi vazifalaridan g'arazli maqsadlarda foydalanishga urinishlarini ham kuzatish mumkin. Natijada minglab kishilar dinsizlikda ayblanib, qonlari to'kilmoqda. Turli diniy shiorlarning noto'g'ri talqin qilinishidan ham begunoh insonlar jabr chekmoqda.

Ana shunday salbiy holatlarning oldini olishda dinning turli xalqlar o'rtasida muloqot o'rnatishi, ularni ma'naviy va ruhiy jihatdan yaqinlashtirishi, zulm va zo'ravonlikka qarshi birgalikda kurashga chaqirishi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Barcha dinlar ezgulikni targ'ib qiladi. Din va ilm-fan bir-birini to'ldirib turadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Din deganda nimani tushundingiz?
2. Komil insonni tarbiyalashda dinning o'rni qanday?
3. Din va ma'naviy qadriyatlar o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
4. «Din azaldan inson ma'naviyatining tarkibiy qismi bo'lib kelgan». Mazkur jumлага o'z munosabatingizni bildiring.
5. Yuqoridagi hikoya asosida dinning birlashtiruvchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik vazifalarini tushuntiring.
6. Dinning tasalli berish va dunyoqarashni shakllantirish vazifalariga misollar keltiring.
7. Berilgan rasmlarda dinning qaysi vazifalari aks etgan?

2-§

FAN VA DIN



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sizningcha, ilm-fan va din o'rtasida qanday bog'liqlik bor?
2. O'rta asrlar musulmon Sharqida fan va texnika taraqqiyotiga nima sabab bo'lgan?
3. Islom dinida ilm-fanga qanday munosabat bildiriladi?
4. Buxorodagi Ulug'bek madrasasining peshtoqiga ilm bilan bog'liq qanday hikmat bitilgan?
5. Quyida berilgan rasmlar asosida dinning ilm-fan, madaniyat taraqqiyotiga ta'siri haqida fikr yuritib ko'ring.



Fan va din har doim o'zaro yaqin munosabatda bo'lib kelgan. Tarixda ularning munosabati turli shakllarda namoyon bo'lgan. Qadimgi Yunonistonda Suqrot, Aflotun, Arastu uchun fan va din deyarli bir soha — falsafa bo'lib, u «Fizika» va «Metafizika» qismlariga bo'lingan. Keyinroq matematika, astronomiya va tibbiyot rivojlana boshlaganda ham fan va din o'zaro uyg'unligini saqlagan. Xuddi shunday munosabat Konfutsiy, Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy va boshqa Sharq mutafakkirlari faoliyatida ham kuzatiladi.

Ellinizm va o'rta asr Sharqida fan va din bir-birini to'ldirgan. Ular orasidagi ayrim kelishmovchiliklar murosasiz ixtilof darajasiga yetmagan. Sharqda fan



IJODIY FAOLIYAT

Siz aniq va tabiiy fanlardan olgan bilimlaringizga tayanib, baland binolarni, minoralarni qurish, tasviriy san'at asarlarini yaratish, haykallar yasash, turli zargarlik buyumlarini yaratish uchun insonlar qaysi bilimlardan foydalanishlari kerakligini o'ylab ko'ring.



*Abu Ali ibn Sino-
ning «Tib qonunla-
ri» kitobidan*



*Al-Xorazmiyning
«Al-Jabr
va-l-muqobala»
kitobidan*

va din mutanosibligi natijasida XV asrgacha matematika, astronomiya, tibbiyot, kimyo va boshqa aniq va tabiiy fanlar yuksaldi. XVI asrdan boshlab esa bu mintaqada ilm-fan, shuningdek, diniy ilmlar ham turg'unlik davrini boshdan kechirdi. Bu davrda fanning, aynan diniy ilmlarning inqirozga yuz tutishiga dinning ma'rifiy mohiyatini chuqur anglamagan mutaassiblar sabab bo'ldi.

Yevropa Sharqdan falsafa va tabiiy fanlar estafetasini olib, XVI asrdan jadal rivojlanishni boshlagan bo'lsa-da, bu yerda fan mutaassib ruhoniylar tomonidan ta'qiq qilindi. Fan va din tarixidagi bu munosabat ular o'rtasida murosasiz kurash davrini keltirib chiqardi. Fan va san'atda Uyg'onish davrining, dinda esa katolitsizmning markaziga aylangan Italiyada bu qarama-qarshilik o'zining avj pardasiga chiqdi. Fan va adabiyot dinni yolg'onga chiqardi, nafaqat ruhoniylar, hatto Xudo ustidan pamflet (hajviy tanqid)lar yozildi.

Din ham fandagi deyarli har bir yangilikni kufrga yo'ydi. Reformizm (Lyuter, Kalvin, Erazm Rotterdamskiy) ta'sirida bu qarama-qarshilik nisbatan tinchroq jabha — g'oyalar kurashiga ko'chsa-da, lekin shiddatini susaytirmadi.

XIX asrda paydo bo'lgan bir tarafdin «din — afyun», ikkinchi tarafdin «Darvinning o'zi maymundan tarqagan» kabi da'volar asorati hozirgi kunda ham seziladi. Fan va din o'rtasidagi kurashga siyosatning aralashuvi bir qancha fojialarni keltirib chiqardi. Ayniqsa, hokimiyat «jangovar»

ateistlar yoki teokratlar qo‘liga o‘tgan paytlarda o‘rta asrlar jaholatidan qolishmaydigan zo‘ravonlik qo‘llanildi.

Insonlar majburiy ravishda dindan chiqarildi, dinning soxta ta‘limot, jamiyat uchun zararli ekanini targ‘ib qilish ishlari keng olib borildi. «Ilmiy ateizm» nomli fan to‘qib chiqarilib, barcha ta‘lim muassasalarida o‘qitildi. Mazkur g‘oyani qabul qilishni istamaganlar esa turli ayblovlar bilan jazoga tortildi.

Tarix kitoblari qayta yozilib, dinning yuzaga kelishida biryoqlama yondashildi, aynan shu manbalarda «din va fan dushmandir», degan g‘oya aholiga maktabdanoq singdirila boshlandi.

Fan va din uyg‘unligi tarafdorlari, ko‘pincha, fan arboblari tomonidan ham, noxolis ruhoniylar tarafidan ham qarshilikka uchragan. Ba‘zan og‘ir ayblar bilan ta‘qib qilingan.

Salibchilar



TARIXGA NAZAR

Salib yurishlari – 1096-yilda boshlangan G‘arbiy yevropa ritsarlarining musulmon, pravoslav davlatlari va turli xil xristian mazhablariga qarshi olib borgan yurishlari. Salib yurishlarining maqsadi Falastinni, birinchi navbatda, Quddusni saljuqiy turklardan ozod qilish edi. Biroq keyinchalik Boltiqbo‘yi majusiylarini xristianlashtirish, Yevropada Papa hukumatiga qarshi harakatlarni bostirish yoki papalarning siyosiy maqsadlarini amalga oshirish vositasi bo‘lib qoldi.

«Salibchilar» atamasi salib yurishi ishtirokchilari o‘z kiyimlariga salib (xoch, krest) tikib olishgani uchun paydo bo‘lgan. Yurish qatnashchilari gunohlardan poklanadi, deb hisoblangani bois, unda nafaqat ritsarlar, balki oddiy aholi ham ishtirok etgan.

Salibchilar 1099-yilda Quddusga kirishlari bilanoq xunrezlikni boshlab yuborishdi. Ular musulmon va yahudiylar qatori mahalliy xristianlarni ham qirib tashlashdi. Shu yili 16 iyul kuni erta tongda barcha narsa hal bo‘ldi, qamal vaqtida va xunrezlikda jami 70 mingga yaqin kishi vahshiylarcha qatl qilindi.

Jamiyatda yomonlikning ildizlari ko‘p, ammo ularning asosiysi uch narsa — tama, g‘azab va ilmsizlikdir.

Abu Rayhon Beruniy



Biroq tarixda «fan va din aslida bir-biriga zid emas, balki uyg‘un sohalar» degan g‘oyani ilgari surgan va rivojlantirgan buyuk olimlar ham ko‘p bo‘lgan.

Masalan, Hakim Termiziy bizning tushunchamizdagi fanni ilm, diniy ilmni esa ma‘rifat, hikmat deb atagan va ularning inson tafakkuridagi o‘rnini to‘g‘ri belgilagan. Hakim Termiziy g‘oyalarini Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Faxriddin Roziy kabi olimlar rivojlantirganlar, fan va din uyg‘unligini Ibn Sino o‘z faoliyatida yanada teranroq ko‘rsatgan.

Mustaqillikdan so‘ng O‘zbekistonda ham fan va din uyg‘unligini ta‘minlashga alohida urg‘u berildi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ta‘kidlaganidek: «...Dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirmas ekan, bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob berish oson bo‘lmaydi».

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Toshkent islom universitetining tashkil etilishidan ham aynan shu maqsadlarni ro‘yobga chiqarish ko‘zlangan. Ham dunyoviy, ham diniy ilmlar o‘qitiladigan mazkur ta‘lim dargohi bitiruvchilari jamiyatimizda dunyoviylik va diniylik, fan va din uyg‘unligini ta‘minlashga xizmat qiladilar.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jamiyat va dinni bir-biridan ajratish qanday oqibatlarga olib keladi?
2. Din va fan qarama-qarshiligini keltirib chiqargan toifalarning maqsadlari nima edi?
3. Markaziy Osiyo ulamolari fan va din uyg‘unligi haqida qanday fikrlarini aytib o‘tganlar? N. Kopernik, J. Bruno va G. Galileylar nima uchun cherkov tomonidan ta‘qib qilinganlar?
4. «Tarixga nazar» rukni ostida berilgan matnni o‘qing. Jamiyatdagi keskinlashuvning sabablarini tushuntirishga harakat qiling.

3–4-§ DINNING PAYDO BO‘LISHI VA SHAKLLARI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Qadimgi diniy tasavvurlardan bo‘lgan animizm, totemizm, fetishizm, shamanizm tushunchalarining mazmunini eslang va izohlang.
2. Xalqimiz orasida tarqalgan qanday urf-odatlar qadimgi diniy tasavvurlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi haqida fikringizni bildiring.
3. Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan qadimgi xalqlarning ilk diniy tasavvurlari qanday bo‘lgan?

Bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil: teologik va materialistik qarashlar mavjud.

Teologik (*ilohiy, diniy*) **yondashuv**ga ko‘ra, turli buyumlarga sig‘inish va ko‘pxudolik, jumladan, animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolikdan keyin yuzaga kelgan. Jumladan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlariga ko‘ra, Xudo ilk inson — Odamni yaratib, unga o‘zini tanitgan va Odam avlodlarini o‘ziga sig‘inishga chaqirgan. Vaqt o‘tishi bilan insonlar sof ta’limotdan uzoqlashib, turli butlarga sig‘ina boshlaganlar.


Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda **materialistik yondashuv** deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo‘lishi antik davrga borib taqaladi — ilk bor qadimgi yunon faylasuflari bu haqdagi o‘z qarashlarini bayon etganlar.

Ilm — dunyo-ning lazzati.
Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas fazilatdir. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyna kabi ko‘rsatur.
Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkir qilur.

*Abdulla
Avloniy*



Teologik yondashuv — dinning paydo bo‘lishi bevosita Xudo bilan bog‘liq, degan ta’limot.



NUH PAYG‘AMBAR QAVMINING BUTPARAST BO‘LIB KETISHI TARIXI

Buyuk payg‘ambarlardan bo‘lgan Nuh (a.s.)ning qavmi butparast edilar. Ular Suvo‘ nomli ayol, Vad nomli erkak, Yag‘us nomli arslon, Yauq nomli ot, Nasr nomli burgut va kalxat shaklidagi butlarga sig‘inishardi. Ibn Jarir Tabariy yozishicha: «Nuh qavmi ibodat qilgan butlar aslida Odam va Nuh payg‘ambarlar orasidagi muddatda yashagan solih odamlarning nomlari bilan bog‘liq edi. Ularning vafotidan keyin muxlislari va shogirdlari ko‘zlari tushib eslaganda o‘zlariga shavq va ibodatga g‘ayrat keltirsin degan niyatda suratlarini yasatib qo‘yganlar va bu suratlariga sig‘inmagan edilar. Bu zamon odamlari olamdan o‘tib ketishgandan keyin, ularning avlodlari zamonida Iblis vasvasa qilib, «Otalaring bu suratlariga sig‘inardilar, ulardan baraka va yomg‘ir so‘rardilar», deb solih kishilarning timsoliga ibodat qilishga o‘rgatdi. Hamma bu shirk amaliga muftalo bo‘ldi. Shunday qilib butparsatlik paydo bo‘ldi».

«Tafsir at-Tabariy» kitobidan

XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari — din tanqidchilarining paydo bo‘lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan «Turlarning kelib chiqishi» (1859) nomli asarning chop etilishi ham materialistik qarashlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho‘qqiga ko‘tarildi.

Unga ko‘ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, hissiyotlari mahsulidir. Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan murakkabga, umumiylikdan xususiylikka, ko‘pxudolikdan yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolutsion jarayonni bosib o‘tgan.

Mazkur qarash tarafdorlari fikriga ko‘ra, uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o‘lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag‘ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlari-

Materialistik yondashuv — dinlarning kelib chiqishini ibtidoiy insonning qo‘rquvlari bilan bog‘laydi.





IJODIY FAOLIYAT

1. Urug'-qabila dinlarining qanday shakllarini bilasiz?
2. Bugungi kunda urug'-qabila dinlarining qanday unsurlari saqlanib qolgan?
3. Urug'-qabila dinlarining o'ziga xos va o'xshashlik tomonlarini aytib bering.

miz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar. Natijada inson qo'rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig'ina boshlagan.

Materialistik qarash tarafdorlari fikriga ko'ra, qo'rquv dinlarning kelib chiqishida asosiy rol o'ynagan hissiy holatdir.

Ingliz faylasufi Xerbert Spenser (1820–1903) ham ibtidoiy qabila dinlarining kelib chiqishiga qo'rquv natijasida «ajdodlarga sig'inish» sabab bo'lganligini ta'kidlaydi. Spenser ijtimoiy hisob-kitoblarga suyan-gan holda, hayot qo'rquvining dinlardagi o'rniga alohida diqqatni tortadi.


Bu qo'rquvning ajdodlarga nisbatan ibodatning barcha ko'rinishlari shakllantirganligini va tangrilar-ni ustun yoki qahramon bo'lgan ajdodlardan tan-langanligini alohida ko'rsatadi; har bir dinda ajdodlarga alohida e'tibor qaratilganligiga ishora qiladi.

Maks Myuller (1823–1900) fikriga ko'ra, dinning ke-lib chiqishi tabiat hodisalarining insonga bergan dahsha-tiga borib taqaladi va u «naturalizm» deyiladi.

Maks Myuller hinduiylikning muqaddas kitobi Ve-dalarga suyan-gan holda, deyarli barcha dinlarda xudo nomlari tabiat hodisalarini bildirishini ta'kidlagan. Maz-kur ta'limot tarafdorlari dinlarning yuzaga kelishi va



Xerbert Spenser
(1820–1903)





**Fridrix Maks
Myuller**
(1823–1900)



IJODIY FAOLIYAT

Quyida sinflarda tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Maks Myuller nima uchun hinduiylikning muqaddas kitobi Vedalarlarga tayanganligi yuzasidan mulohaza qilib ko'ring.

shakllanishi animizm, totemizm, fetishizm va shamanizm kabi bosqichlarda yuzaga kelganini ta'kidlaydilar.

Animizm. Qadimgi odamlar atrofdagi dunyoda hayvonlar, o'simliklar, tabiat hodisalari kabi har narsaning joni, ya'ni ruhi mavjud deb tasavvur qilganlar. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan afsonaviy ko'rinishga ega bo'lgan yer, olov, o'rmon, suv, tog' va uyning odamsimon «ruhlari» ham shundan kelib chiqqan.

Jumladan, daraxtga sig'inish ham animizmning bir turi hisoblanadi. Shu sababli bo'lsa kerak, «Hayot daraxti» mavzusi O'zbekiston xalq hunarmandchiligida muhim o'rin tutadi. Xalqlarda insonning jismoniy o'limidan so'ng uning ruhi yashab qolishiga bo'lgan ishonch va e'tiqod dafn etish bilan bog'liq qator marosimlar paydo bo'lishiga olib kelgan.

Totemizm. Ibtidoiy jamoalar qavm-qarindoshlik asosiga qurilgan. Odam ijtimoiy munosabatlarning ushbu ko'rinishini tashqi muhitga – tabiatga ham ko'chirgan. Urug'ning jonivorlar va o'simliklar olami bilan aloqasini ular bilan qondoshlik alomati deb tushunilgan.

1938-yili Surxondaryo viloyati Boysuntog' tog'lari-dagi Teshiktosh g'oridan topilgan neandertal bola qabri hozirgi O'zbekiston hududidagi totemizm e'tiqodiga aloqador eng qadimiy yodgorliklardan biridir. Bolani ko'mishdan avval uning atrofi tog' echkisi – arxarning shoxlari bilan o'ralgan, bu uning totem jonivor bilan bog'liqligi to'g'risidagi taxmini ilgari surish imkonini beradi.




TARIXGA NAZAR

Farg‘ona vodiysining So‘x qishlog‘idan topilgan va miloddan avvalgi II mingyillikka oid tashqi ko‘rinishidan o‘qilonga o‘xshash tosh tumor O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanmoqda.

Ho‘kizga qadimdan kuch-qudrat, mahsuldorlik timsoli sifatida qaralgan. Ba’zi arxeologik yodgorliklardan tutqichi qo‘y shaklida ishlangan idishlar topilgan. Qadimgi mahalliy xalqlarda yuqoridagi hayvonlarni ulug‘lash odati ancha keng tarqalgan.

Fetishizm. Zamonaviy dinlarda fetishizm tabarruk buyumlarni tavof qilish tarzida, jumladan, xristianlarda — xoch, ikonalar, mayitga sig‘inish, buddizmda – tabarruk o‘g‘ir yoki hovoncha tarzida saqlanib qolgan. Irim-sirimga ishonadigan odamlar orasida tumor baxt keltiradi, ko‘zmunchoq esa yomon ko‘zdan asraydi, degan ishonch mavjud bo‘lgan. Taqa, tumor, bo‘yin taqin-



IJODIY FAOLIYAT

O‘zbekiston milliy ensiklopediyasidan animizm, totemizm, fetishizm, shomonlik, sehrgarlik tushunchalarining lug‘aviy mazmunini toping. Ularning har biriga misollar keltiring.

chog‘i (kulon) kabi narsalar zamonaviy fetishlarga misol bo‘ladi.



Shamanizm (shomonlik). Boshqa millatlarda bo‘lgani singari, Markaziy Osiyo xalqlarida ham shamanizm turli ko‘rinishlarda kuzatiladi. Folbinlik, rom ochish, issiq-sovuq qilish, ilgirlik kabilarni shamanizm belgilari sifatida keltiriladi.

Bugungi kunda ham ba‘zan biror narsasini yo‘qotgan kishi folbinga borish holatlari uchraydi. Shuningdek, sehr yo‘li bilan birovga foyda yoki zarar yetkazishga urinish amaliyoti ham kuzatiladi. Markaziy Osiyo xalqlarida ba‘zan biror kimsa uzoq vaqt kasal bo‘lsa, unga sog‘ayishning birdan-bir yo‘li – ruhlar bilan muvoqotga kirishish, deb uqtiradilar. Bunday kishilar xalq orasida «odamli» deyiladi. Ammo unutmash kerakki, ko‘pincha, bunday hollar sodda odamlarni aldash uchun o‘ylab chiqarilgan bo‘ladi.

Jonivorlar va o‘simliklarga sig‘inish. Markaziy Osiyo xalqlari orasida, asosan, quyidagi jonzotlar va o‘simliklar muqaddaslashtirilgan:

Bo‘ri. Qadimgi turk afsonalariga qaraganda, Ashina qabilasidan bo‘lgan yosh go‘dakni bo‘ri emizib katta qilgan. Shuning uchun ham Yevroosiyo vohalaridagi turklarning ko‘k bayrog‘ini bo‘rining oltindan yasalgan boshi bezab turgan. Bo‘rining mo‘jizaviy ilohiy kuchiga ishonch shu kunlarga qisman saqlanib qolgan.

Ot. Otni ulug‘lash turkiy xalqlar orasida qadimdan mavjud bo‘lgan. Buni Janubiy Qirg‘iziston tog‘laridagi (Aravon, Ayirmoch-Tog‘) qoyalarga bitilgan otlar tasvirida ko‘rishimiz mumkin. Tasvirlar tagida hayvonlarni qurbonlikka keltirib, sham yoqish uchun tokchalar yasalgan. Otning muqaddasligi haqidagi tushuncha nafaqat dashtlarda yashovchi qabila va elatlarda, balki dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi o‘troq aholi orasida ham keng tarqalgan.

Odamlar! Eng avvalo, ezgu axloqqa ega bo‘lishga harakat qiling, zero, axloq qonunning asosidir.



Qushlar. Rivoyatlarga ko‘ra, o‘zlarini O‘g‘izxon avlodlari deb hisoblagan turkiy o‘g‘izlar bobolar timsolini yomonliklardan asrovchi qushlarda ko‘rishgan. Qirg‘iy, burgut, lochin, qarchig‘ay kabi qushlar qabila a‘zolariga baraka va baxt olib keluvchi muqaddas jonzotlar hisoblanib, ularni otish qat‘iyan man etilgan.

O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman xalqlari qadimda ukki, boyo‘g‘li, burgut va lochin patlarining muqaddas kuchiga ishonganlar. Bugunga qadar ham kichik yoshdagi o‘g‘il bolalar va qizchalarning bosh kiyimlari, beshik va belanchaklarini qushlar pati bilan bezaydilar. Markaziy Osiyo xalqlari orasida qirg‘ovul, tovus, xo‘roz muqaddas qushlar deb sanalgan.

Daraxtlar. Markaziy Osiyoda chinor va sarv daraxtlari (archa) qadimdan muqaddas kuchga ega obyekt sifatida e‘zozlangan. Ularga qizlar o‘z qalb sir-larini aytib, daraxt shoxlariga nishona bog‘lab, armonlarining ushalishiga umid qilganlar. Janubiy Turkmaniston, O‘zbekiston va Tojikistonda chinor darax-ti g‘oyat e‘zozlanadi. Turkmanlar chinorning qurigan shoxlarini o‘tin sifatida yoqib, istifoda etishga ham qo‘rqadilar.

Turkmanistondagi Feruza vohasi uzunligi qirq metr keladigan «Yetti aka-uka» chinori bilan mashhur. Sayrob qishlog‘idagi bahaybat chinorning to‘rt metrli kavagida bir vaqtlar hatto madrasa joylashgan. Toshkent yaqinidagi Burchmulla qishlog‘ida odatdan tashqari katta chinorni ziyorat qilishga keluv-chilarning keti uzilmaydi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Animizm, totemizm, fetishizm, shomonlik, sehrgarlik kabi dastlabki diniy tasavvurlar o‘rtasida qanday umumiylik bor? Ularning bugungi kundagi ko‘rinishlari haqida ma’lumot bering.
2. Ilk diniy tasavvurlarning bugungi kundagi ko‘rinishlari haqida ko‘rgaz-mali slayd tayyorlang (MS Power Point).
3. Qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari hayotida animistik, totemistik, feti-shistik va shamanistik tasavvurlarning o‘rni nimalarda aks etgan?
4. Tarix fanidan milliy va jahon dinlarining qanday paydo bo‘lganligi haqida ma’lumot to‘plang.

5-§

YAHUDIYLIK



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yahudiylarning Markaziy Osiyoga kirib kelishi qachondan boshlangan?
2. Yahudiylarning qadimda Markaziy Osiyoda yashaganini ko'rsatuvchi topilmalar qachon va qayerdan topilgan hamda ular qaysi davrga tegishli?
3. Markaziy Osiyodagi yahudiylar nima uchun «Buxoro yahudiylari» deb ataladi?

DIN TARIXIDAN

Fanlarning foydasi — ular yordamida oltin va kumush to'plash emas, balki insoniylik va donishmandlikka erishishdir.

*Abu Rayhon
Beruniy*



Yahudiylar dunyodagi eng qadimiy dinlardan biri bo'lib, taxminan, miloddan avvalgi 2-mingyillikda Yaqin Sharqda paydo bo'lgan. U faqat yahudiy xalqiga xos millat dini hisoblanadi. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yahudiylar nomi somiy tillardagi «hoda», ya'ni «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan, degan fikrlar mavjud ekanini aytib o'tgan. Keng tarqalgan fikrga ko'ra esa, «yahudiy» so'zi Ya'qub payg'ambarning o'g'li Yahudo nomidan olingan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroildir. «Isroil» so'zi Ya'qub payg'ambarning ikkinchi nomi bo'lib, «banu»-bolalar deb tarjima qilinadi. Demak, Banu Isroil nomi «Isroil avlodlari» ma'nosini beradi.



Rivoyatlarga ko'ra, Ya'qub payg'ambarning 12 o'g'li bo'lib, ularning to'rtinchisi Yahudo edi. 12 o'g'ildan keyinchalik 12 ta qabila tarqaldi. Yahudo avlodlari bo'lgan yahudiylar boshqa qabilalarni o'zlariga bo'ysundirdilar. Shundan so'ng bu qabilalarning barchasi «yahudiy» deb atala boshladi.



Musoni quvib ketayotgan Fir'avn (papyrusga ishlangan rasm).

Yahudiy xalqiga nisbatan «yevrey» soʻzi ham ishlatiladi. Bu qadimiy somiy tillaridagi «ibriy» soʻzining oʻzgaragan shaklidir. Arab manbalarida bu soʻz «abara, yaʼburu» — «kechib oʻtmoq» feʼlidan kelib chiqqan, deb hisoblanadi. Mazkur din manbalariga koʻra, ilk yahudiy qabilalari Mesopotamiyada yashagan edilar. Ular miloddan avvalgi XV asrlarda Ibrohim paygʻambar boshchiligida Dajla va Furot daryolaridan kechib oʻtganlar.

Tavrot, Injil va Qurʻonda xabar berilishicha, Ibrohim paygʻambarning nabirasi boʻlgan Yaʼqubning oʻn birinchi oʻgʻli Yusuf edi. Yusuf va uning akalari oʻrtasidagi munosabatlar sababli Banu Isroil qavmi Misrga koʻchib kelgan. Ular ancha vaqt Misr yerlarida yashaganlar. Keyinchalik Misr firʻavni Banu Isroil qavmiga zulm qilgach, Muso paygʻambar boshchiligida bu xalq yana Kanʻon (Falastin) yerlariga qaytdi.

Miloddan avvalgi 722-yilda Isroil podshohligi Ossuriya tomonidan, 586-yilda esa Babil davlati tomonidan bosib olingach, yahudiy xalqining bir qismi oʻlkadan haydab chiqarildi.




Dengizning ikkiga ajralishi tasviri



TARIXGA NAZAR

Bibliya rivoyatlariga koʻra, mil avv. 1250-yilda yahudiylik Muso boshchiligida Misrni tark etdilar. Mil. avv. 1000-yilda podshoh Saul vafotidan soʻng uning kuyovi podshoh Dovud Falastinni birlashtirib, Yahudiy podshohligini tashkil qildi.



Isroilliklar Misrda.



Tanax birlamchi manba bo‘lib, u Tavrot (Tora), Payg‘ambarlar (Neviim) va Kitoblar (Xetuvim) deb ataluvchi uch bo‘limdan iborat.

Talmud (ibroniycha — «o‘rganish») Tavrotning sharhi sifatida e‘tirof etiladi.

MARKAZIY OSIYOGA YAHUDIYLIK DININING KIRIB KELISHI VA RIVOJLANISHI



Buyuk Ipak yo‘li.

Miloddan avvalgi VIII asrlarda ba‘zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o‘lkalardan boshpana topdilar. Markaziy Osiyoga yahudiylar So‘g‘diyona davlati davrida, ya‘ni miloddan avvalgi II asrda kirib kelganlar. Ular Eron orqali Marvgga kelib, u yerdan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar.

Tadqiqotchilar ularning bu yerga ko‘chib kelib, joylashishlarini «Buyuk Ipak yo‘li» faoliyati bilan bog‘laydilar. Yahudiylarning bo‘yoqchilik bo‘yicha mutaxassis bo‘lganlari ularning xomashyo manbalariga yaqinroq mintaqalarga o‘rnatishlariga sabab bo‘lgan.

Markaziy Osiyoda milodiy IX–X asrlarda yahudiy jamoalari ko‘p sonli va erkin bo‘lganlar. Ulardan faqat urushga yaroqli bo‘lgan erkaklarga jizya solig‘ini to‘laganlar. Yig‘ilgan soliqlarning faqat yarmi davlat xazinasiga topshirilgan, qolgan qismi esa jamoa boshlig‘i ixtiyorida qolgan.

Yahudiylarning Markaziy Osiyoda yashaganliklariga guvohlik beruvchi arxeologik topilmalar ilk bor tadqiqotchi tomonidan 1954-yili Turkmanistonning Marv va Bayramali shaharlaridan topilgan. Bular qadimgi sinagoga qoldiqlari, yahudiy yozuvida yozilgan sopol buyumlardir. Topilmalar Yunon-Baqtriya va Parfiya davlatlari hukmronlik qilgan miloddan avvalgi II – milodiy I asrlarga tegishli bo‘lgan.

IX–X asrlarda Markaziy Osiyoda *karaimlar* deb ataladigan yahudiy sektasi paydo bo‘ladi. Bu oqim tarafdorlari faqat Torani (Tavrotni) tan olar, Talmudni esa inkor qilish edilar. Ular mahalliy yahudiylarni **kashrut** (ruxsat etilgan ovqatlarnigina yeyish) qoidasini buzish, yerli aholi bilan aralashib ketish va yahudiy dinini bid’atlar bilan buzishda ayblay boshladilar.



Karaimlar milliy kiyimi.



Toshkentdagi Ashkenazi sinagogasi (1930-yilda yopilgan, 1966-yilda yer qimirlaganda buzilib ketgan).

XIII asr boshiga kelib qadimgi yahudiy jamoalari ham inqirozga uchradi. Saqlanib qolgan kam sonli yahudiylar Buxoro va uning atroflarida yashaganlar. Mo'g'ullar davrida esa Xorazmda yahudiylarning bir shaharda 100 uydan oshiq bo'lishlari taqiqlangan edi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr mintaqasiga Erondan ko'pgina yahudiy jamoalari ko'chirib keltirilgan. Ularning bir qismi Buxoroda yashagan. XVIII asrning boshlarida yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Markaziy Osiyo yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yashaganliklari tufayli **«Buxoro yahudiylari»** nomi bilan tanilgan bo'lsalarda, ularning asosiy qismi Samarqandda yashagan.

XIX asrga kelib yahudiylar Markaziy Osiyoning Qarshi, Marv, Xatirchi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana, Marg'ilon, Dushanba shaharlarida bir mavzega jam bo'lib umr kechirganlar.

1932-yilda Samarqandda yahudiylar teatri tashkil qilingan. 1940-yilgacha Markaziy Osiyoda yahudiylarning ivrit tilidagi maktablari, davriy va maxsus nashrlari mavjud bo'lgan.

Sovetlar davrining keyingi yillarida yahudiy tilida o'qitish va madaniy faoliyat yuritish to'xtatilgan. Lekin yahudiylik yagona millatga xos din bo'lganligi sabab-



*Yahudiy maktabi.
(Samarqand,
XX asrning
boshlari)*



IJODIY FAOLIYAT

«XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyoni bosib olishi yahudiylarning Turkiston va Buxoro jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi». Tarix fanidan olgan bilimlaringizga asoslanib, yahudiylarning Turkiston va Buxoro jamoalariga bo'linib ketish sabablarini aniqlang.



*Buxorodagi yahudiy oilasi
(XX asrning boshlari)*

li, ular qayerda yashashmasin, biri ikkinchisidan qancha uzoqda bo‘lmasin, o‘z dini va muqaddas kitoblariga e‘tiqod qilishni davom ettiraverganlar.

1991-yilda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng barcha dinlar, shu jumladan, yahudiy diniga ham erkin e‘tiqod qilish uchun keng sharoitlar yaratib berildi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bugungi kunda mamlakatimizda boshqa diniy konfessiyalar qatorida ro‘yxatdan o‘tgan «Yahudiylar jamoasi» faoliyat ko‘rsatadi. Ushbu jumlaning diniy va milliy bag‘rikenglik tamoyili bilan bog‘lab tushuntiring.
2. «1170-yilda birgina Samarqandda 30 ming yahudiy yashagan». Mazkur jumla asosida yurtimizdagi diniy bag‘rikenglik tamoyillari azaliy qadriyat ekanligi yuzasidan fikr bildiring.
3. Isroil davlati qachon tashkil topganligini va tashkil topish shart-sharoitlarini aniqlang.

6-7-§

YAHUDIYLIK MAROSIMLARI VA OQIMLARI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yahudiylikdagi O'n amr haqida eshitganmisiz?
2. Geografiya fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, Sinay (Tur) tog'ining joylashgan hududini aniqlang.
3. Tur tog'i bilan bog'liq qanday rivoyatlarni bilasiz yoki eshitgansiz?



Muso O'n amrni olmoqda.

YAHUDIYLIK TA'LIMOTI

Yahudiylik ta'limoti Xudo tomonidan Musoga nozil qilingan O'n amrga rioya etishga asoslanadi. Ularning e'tiqodiga ko'ra, O'n amr Muso payg'ambarga Sinay (Tur) tog'ida ikki marta tushirilgan.

Yahudiylikda aytilishicha, Muso o'z qavmining qo'lda yasalgan buzoqqa sig'inayotganini ko'rib, bundan g'azablanib ketadi va Xudoning amrlari yozilgan lavhalarni sindirib tashlaydi, shundan keyin Xudo quyidagi O'n amrni qayta tushirgan.

1. Dunyoni yaratgan, yakka-yu yagona Yahvedan boshqa iloh yo'qligiga imon keltirish.
2. Yahvedan boshqaga ibodat qilmaslik.
3. Xudoning nomini bo'lar-bo'lmasga tilga olavermaslik.
4. Shanba kunini muqaddas bilish va shu kuni dam olish.



IJODIY FAOLIYAT

O'n amrda berilgan qoidalarni axloq qoidalari bilan bog'lab tushuntiring.

5. Ota-onani hurmat qilish.
6. Qotillik qilmaslik.
7. Zino qilmaslik.
8. O'g'rilik qilmaslik.
9. O'z yaqinlari (yahudiylar) haqqiga yolg'on guvohlik bermaslik.
10. O'z yaqinlari uyiga, ayoliga, quliga, hayvonlariga, umuman, unga tegishli bo'lgan narsalarga ko'z olaytirmaslik.



Talmud

Mazkur amrlar yahudiylarning muqaddas manbasi hisoblangan Tavrot (Tora) kitobida keltirilgan. Tavrot Musoga tegishli bo'lgan besh kitobni o'z ichiga oladi:

- 1) «Borliq» yoki «Ibtido»;
- 2) «Chiqish»;
- 3) «Levit»;
- 4) «Sonlar»;
- 5) «Ikkinchi qonun».

Tavrot matni ibriy va aramey (eski yahudiy) tillarida yozilgan. Unda Isroil xalqining tarixi bayon qilingan.

IBODAT VA MAROSIMLAR

Yahudiylikda ibodat tong, peshin va shom paytida qilinadigan kundalik hamda shanba kuni sinagogada bo'lib o'tadigan haftalik ibodat shakllariga bo'linadi. Haftalik ibodat (Shabat-Sabt) juma kuni Quyoshning botishi bilan boshlanadi va shanba kuni nihoyasiga yetadi.

Shanba kuni olov yoqish, ishlash, hatto transportdan foydalanish ham taqiqlanadi. Yahudiylik ta'limotiga ko'ra, Xudo olamni olti kunda yaratib, yettinchi kuni dam olgan. Shuning uchun ham, yahudiylar haftaning yettinchi kuni — shanbani dam olish va ibodatga bag'ishlaydilar.



TARIXGA NAZAR

Eron podshohi Kir II tomonidan Babil egallangach, yahudiylarning ancha qismi Kan'onga qaytib, podshohning roziligi bilan ikkinchi marta o'z davlatlarini qayta tiklashga erishdilar. Muhojirlikda qolgan yahudiylarning bir qismi esa Sharqqa, xususan, Markaziy Osiyoga ko'chib o'tdi.



Sinagoga (yun. «jamlanish»; ibr. — «beyt kneset» — «jamlanish uyi»)da ibodatlar kamida oʻnta balogʻatga yetgan erkak kishi toʻplanganda oʻtkaziladi.

«Tavrot»da jannat «Adan» nomi bilan atalib, uning sifatlari bayon qilingan.

Yahudiylikda ibodat — «avoda she-ba-lev» ibroniycha «Qalb xizmati» degan maʼnoni anglatadi.



«Mezusa»

Ibodat vaqtidagi eng muhim lahza va uning asosiy shartlaridan biri «Tavrot» oʻramalarining tugunlar ichidan chiqarilishi va ruhoniylar tomonidan baland ovozda oʻqilishidir. Yahudiylarda faqatgina sinagogada emas, uyda ham ibodat qilinadi.

Uylarda kirish eshigining yuqorisida «mezusa» deb nomlangan, uzun bir quvur ichiga oʻrama holida qoʻyilgan «Tavrot» jumalari yozilgan boʻladi. Uyga kirish va chiqishda yahudiylar «mezusa»ga qoʻl tekkizib, barmoqlarini oʻpadilar. Yahudiylar «mezusa» ularni yovuz ruhlar yomonligidan saqlaydi, deb eʼtiqod qiladilar. Uyda olib boriladigan ibodat vaqtida bosh kiyim kiyilib, yelkaga esa chakmon (tales) tashlanadi. Duolarning eng muhimi sanalgan 16 tasi tik turgan holda aytiladi. Boshqalarini oʻqiyotganda tiz choʻkish, vujudni tebratib turish kabi harakatlar qilinadi.

Sinagogaalarda, albatta, uch unsur joy olishi shart. Bu Aron Kodesh, Ner Tamid va Bimadir. Quddusga yoʻnalgan muqaddas sandiq (shkaf) — Aron Kodesh ichida «Tavrot» tumorlari saqlanuvchi maxsus joy boʻlib, u masjididagi «mehrob»ga oʻxshash vazifani bajaradi va kirish eshigining toʻgʻrisida boʻladi.



Ner Tamid — (ibr. «abadiy shamchiroq») sinagogada «Tavrot» solingan sandiq ro‘parasida joylashgan bo‘lib, doimo yonib turuvchi shamchiroqdir. Singogalarda Ner Tamid Menorani eslatib turuvchi ramz sifatida qo‘yiladi.

Bima (yoki teva, almemar) esa — sinagoganing markazida joylashgan «Tavrot» o‘qiladigan minbardir.

BAYRAMLAR

Yahudiylarda Rosh Ashona, Yom Kipur, Pesax, Sha-vuot, Sukkot, Simxa Tora, Purim, Hanukka va boshqa diniy va milliy bayramlar (ibr. — Yom tov — yaxshi kun) mavjud.

Rosh Ashona (ibr. — «yil boshi») yahudiy milliy taqvimiga ko‘ra yangi yil bayrami tishre (sentabr-oktabr) oyining birinchi va ikkinchi kunlarida nishonlanadi.

Yahudiylik ta’limotiga ko‘ra, bu kunda ilk inson Odam yaratilgan va Xudo tomonidan berilgan taqiqni buzib, jannatdan chiqarilgan.



Ner Tamid



Rosh Ashona bayramining sinagogada nishonlanishi



«Tavrot» o‘qish marosimi

O‘n kun davom etadigan Rosh Ashonaning oxirgi kunida **Yom Kipur** bayrami nishonlanadi. Bu kuni hech qanday ish qilinmay, faqat ibodat bilan mashg‘ul bo‘linadi. Yahudiylar Yom Kipurda ro‘za tutishlari, sinagoga nadomatlar bilan yig‘lab, qilgan gunohlariga tavba qilishlari shart.

Pesax (Pasxa) yillik bayramlar orasida eng e‘tiborlisi hisoblanadi. U nisan (mart-aprel) oyining o‘n beshinchi kundan boshlanib, sakkiz kun davom etadi. Ushbu bayram yahudiylarning Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganlari munosabati bilan nishonlanadi va mazkur kunlarda xamirturushsiz non — «matsa» iste‘mol qilinadi.

Shavuot (Sheviot) (ibr. — haftalar) Pesaxdan keyingi 50-kuni nishonlanadi. Shavuot dastlab dehqonchilik bayrami bo‘lgan, keyinchalik Sinay tog‘ida Musoga «Tavrot»ning berilishi munosabati bilan nishonlangan.

Ibodatga chaqirish uchun chalinadigan shofar



Sukkot (chodirlar bayrami) yahudiylar Misrdagi qullikdan ozod bo‘lganlaridan so‘ng, cho‘lda chodirlarda kun kechirganlarini xotirlab o‘tkaziladigan marosim. Qadimda yahudiylar mazkur marosim kunlarida Quddusga ziyoratga borganlar. Bugunga kelib bu an‘ana tusidan chiqqan.

Oila davrasida «Pesax» bayrami



Milliy xususiyatga ega **Purim** (Shirinlik bayrami) adar (fevral-mart) oyining 14-kuni nishonlanadi. Ushbu bayram Quddusda 1 kun, boshqa joylarda esa 2 kun davom etadi.

Bu bayram Ester ismli qiz tufayli yahudiylarning Eronda qatliomdan qutulib qolishlari sharafiga bag'ishlanadi va unda ko'ngilochar bazmlar uyushtirilib, shirinliklar tarqatiladi.


Hanukka (ibr. — «yangilanish», «yoritish») yahudiylarning Suriya qiroli Antiokas ustidan qozongan g'alabalari sharafiga bag'ishlangan bayram hisoblanadi.

Kislav (noyabr-dekabr) oyining yigirma beshinchi kunidan boshlanib 8 kun davom etadigan bu bayramning odatiy kunlardan birgina farqi hanukkiya deb nomlangan to'qqiz shoxli shamdondan har kuni bittasining yoqilishidir.

Yahudiylikda dafn marosimi ham muayyan o'ziga xosliklarga ega. Inson vafot etgach, qarindoshlari maxsus kiyim kiyib, sham yoqishadi. Mayitni oq kafanga o'rab, «Kaddish» (oromiycha — «Muqaddas», sinagogaalarda o'qiladigan ibodat duosi) o'qiydilar.



Hanukka bayrami



Quddusdagi birinchi katta sinagoga

*3100 ta zina orqali
Tur tog'iga chiqish*



Jasad chiqqan xonadonda bir hafta davomida aza tutilib, uydan tashqariga chiqilmaydi. Bir yil o'tgach, mayitni xotirlab «yil marosimi» («Yorsayt») o'tkaziladi. Yom-kipur, Sukkot, Pesax bayramlarida marhumlarni xotirlab «Yizkor» deb nomlanadigan maxsus duolar o'qiladi.

OQIMLAR



Saduqiylar

Uzoq tarixiy taraqqiyot davomida boshqa dinlarda bo'lgani kabi yahudiylikda ham ichki bo'linishlar yuzaga kelgan. Ular orasida eng keng tarqalganlari saduqiylik, farziylik, essaniylik, hasidiylik, qaroim, islohotchi, konservativ kabi oqimlardir.

Saduqiylik klassik oqimlar orasida muayyan o'ziga xosliklari bilan boshqalardan farqlanadi. Mazkur oqimning vakillari asosan yirik yer egalari, yuqori qatlam vakillari (aristokratlar)dan bo'lishgan.

Saduqiylik ta'limotiga ko'ra ruh abadiy emasligi ta'kidlanadi. Insonning qayta tirilishi, farishtalarning mavjudligi inkor etiladi. Saduqiylar Xudo bandalarining



Saduqiy atamasi Sulaymon payg‘ambar podshohlik qilgan davrda ruhoniy bo‘lgan Sadoka (Sadok) nomidan kelib chiqqan.


Farziylar — ibr. «perushim» — «ayri bo‘lish», «nopokliklardan uzoq bo‘lish».

ishiga aralashmaydi, har bir inson taqdirini o‘zi yarata-di, deb hisoblaydilar.

Farziylar oqimi mil. avv. II asrda e‘tiqod va amalda saduqiylikka muxolif ravishda yuzaga kelgan. Shuningdek, saduqiylikdan farqli ravishda farziylarning o‘zagini quyi tabaqa vakillari va kambag‘allar tashkil etgan.

Yahudiylilik qonun-qoidalariga qattiq rioya qilinishini talab qiladigan ushbu oqim Xudo har bir narsani nazorat qilishi, bandaga xos hur irodaning mavjudligi, o‘limdan keyin qayta tirilish, jannat, jahannam, farishtalar, jazo va mukofotning borligiga ishonishga asoslanadi.

Issiyim, ya’ni Essaniylar saduqiylik va farziylik bilan bir davrda paydo bo‘lgan klassik oqimlardan biridir. Essaniylarning e‘tiqod asoslari farziylarnikiga yaqin bo‘lib, ular insonlarning taqdiri oldindan yozib qo‘yilganini, qayta tirilish va farishtalarning mavjudligini e‘ti-



Farziylar



Essaniylar



*Essaniylar
uylarining
qoldiqlari*

rof etadilar. Masalan, farishtalar — muqaddas mavjudotlar, «Osmon oʻgʻillari», amalga oshiradigan ishlariga qarab «Nurlar qirollari», «Zulmat farishtasi», «Ozodlik farishtasi», «Mastemah (shayton)», «Saqlovchi farishtalar» kabi sinflarga ajratiladi.

Ularning taʼlimotiga koʻra, inson vafot etgandan soʻng uning ruhi osmonga koʻtarilib, yaxshi ruhlar abadiy baxtli hayot kechiradilar, yomon ruhlar esa, qahraton sovuqda azoblanadilar.

XVIII asrning birinchi choragida yuzaga kelgan **hasidiylik** (ibr. — «dindorlar») oʻrta asr oqimlar ichida alohida oʻrinni egallaydi. Bu taʼlimot tarafdorlari dinning mohiyatiga aql bilan emas, balki his-tuygʻular orqali erishiladi, degan tamoyildan kelib chiqib, din qonunlarini oʻrganishni emas, balki diniy hissiyot va axloqni birinchi oʻringa qoʻyishadi.

Hasidiylar shanba va bayram kunlari «shtrayml» nomli telpak kiyishlari bilan boshqa oqimlardan ajralib turadi.

Hasidiylar hayotning barcha jabhalarida axloq normalarga qattiq rioya etib, «Tavrot»da belgilangan buyruqlarni bekam-koʻst bajarishga harakat qiladilar.



*Hasidiylik
oqimidagi
yahudiylar
«shtrayml»
telpaklarda*



*Buxoro yahudiylari
XX asr boshlari*



*Buxoro yahudiylari
XXI asr*

«**Islahotchi yahudiylik**» zamonaviy oqimi XIX asr boshlarida Germaniyada yuzaga kelgan bo'lsa-da, AQSHda shakllandi. Ushbu oqim yuzaga kelishiga Markaziy Yevropada yashovchi yahudiylarning o'zlarini yashayotgan mamlakat madaniyatiga moslashishga chaqiriqlari g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilgan.

«Islahotchi yahudiylik»ka xos xususiyatlar shundaki, uning ta'limotiga ko'ra, «yahudiylar endi bir xalq (millat) emas, balki bir jamoatdir, qadim yahudiy qonun-qoidalaridan faqatgina zamonaviy hayot tarziga mos bo'lganlarigina qabul qilinishi mumkin» deyiladi.

Masalan, shanba kungi ibodat yakshanba kuniga ko'chirilgan, sinagogada ayollar erkaklar bilan yonma-yon o'tirib ibodat qilishlari hamda ruhoniy sifatida marosimlarni boshqarishi ham mumkin.

Bundan tashqari, ibodat vaqtida bosh kiyim kiyish majburiyati yo'q. Boshqa e'tiqod vakillari bilan ni-



*Islahotchi
yahudiylar*



Bugungi kunda, islahotchi yahudiylar soni Isroilda taxminan 5–6 ming kishi bo'lsa, AQSHda yashovchi yahudiylarning 40 foizini tashkil qiladi.

O'zbekistondagi sinagoga



*Quddusdagi yig'i
devori*



koh munosabatlariga kirishishga monelik qilinmaydi. Ota-onasidan qaysi biri yahudiyligidan qat'i nazar farzand ham yahudiy, deb e'tirof etiladi.

Islahotchi yahudiylikka javob sifatida **konservativ yahudiylilik** yuzaga kelgan. Konservativ yahudiylikka boshqa e'tiqod vakillari bilan oila qurish qabul qilinmaydi va faqat yahudiy onadan tug'ilgan bola yahudiy deb hisoblanadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yahudiylikka yuzaga kelgan oqimlar o'rtasida qanday umumiylik va bir-biriga zid bo'lgan g'oyalar mavjud?
2. Yahudiylikka dinining o'ziga xos xususiyatlarini aytib bering.
3. Tur tog'ining qadimiy nomlarini aniqlang. Yahudiy jamoalarning dunyo bo'ylab tarqalishi xaritasini chizing.

8-§

BUDDAVIYLIK



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, quyidagi savollarga javob bering.

1. Buddaviylik dini qachon va qayerda paydo bo‘lgan?
2. Bugungi kunda mazkur dinga e‘tiqod qiluvchilar sonini bilasizmi?
3. Buddaviylik dini tarqalgan mamlakatlarni dunyo xaritasidan ko‘rsating.
4. Nima uchun bu din jahon dini deyiladi?
5. Bizning o‘lkamizga buddaviylik dini qachon kirib kelgan?
6. Buyuk Ipak yo‘lining buddaviylik dini tarqalishidagi o‘rnini tushuntirib bering.

BUDDAVIYLIK

Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga kelgan bo‘sa-da, ko‘p o‘tmay sharqqa tomon keng tarqala boshladi. Rivoyat qilinishicha, Budda vafotidan so‘ng uning jasadi kuydirilib, hoki sakkiz buddaviy jamoaga yuborildi. Uning hoki dafn etilgan joylarda buddaviylik stupalari (gumbazlari) barpo etildi.

O‘zi yuzaga kelgan Hindistondan hinduiylik ta’sirida siqib chiqarilgan buddaviylik boshqa mamlakatlarga keng tarqalib, jahon dini darajasiga chiqdi.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoy, IV asrda Koreya, VI asrda Yaponiya, VII asrda Tibet, XIII asrdan XVI asrgacha Mongoliya, XVII asrdan XVIII asrgacha Buryatiya va Tuva, XIX–XX asrlarda Amerika va Yevropa qit’alariga kirib borgan.



*Budda haykali,
Xitoy*



*Yer osti va yer usti
ibodatxonasi. II–IV
asrlar. Qoratepa*

MARKAZIY OSIYOGA BUDDAVIYLIKNING KIRIB KELISHI

Buddaviylik O‘zbekiston janubining qadimgi va ilk o‘rta asrlar tarixida chuqur iz qoldirgan din hisoblanadi. Mamlakatimiz hududida buddaviylik madaniyatiga oid yodgorliklarning ochilgani va o‘rganilgani, yuksak darajali ko‘rinishdagi badiiy asarlar va buyumlarning topilgani ham bundan dalolat berishini siz tarix darslarida o‘qigansiz.

Buddaviylikning eng mashhur qadimgi yodgorliklari milodning III–I asrlariga mansub. VII asrning boshlarida Termizda 10 ta buddaviylik monastiri (sangarama) va mingta rohib bo‘lgan. Markaziy Osiyoda V–VIII asrlarda buddaviylik o‘rnini islom dini egallay boshladi.

1927-yilda qadimiy Termizda buddaviylikka oid noyob yodgorliklar mavjudligi aniqlandi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari na-



*Shri-Lankaning
qadimiy poytaxti
Anuradxapuradagi
stupa*

tijasida Qoratepa va Chingiztepa balandliklarida ikkita yirik buddaviylik monastiri bo'lganligi aniqlandi va grek-buddaviylik me'morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o'nlab joylar qayd etildi.

Ayritom. Ayritom Termizdan 7 km masofada, Amudaryoning qadimiy kechuvi yaqinida, tik qirg'oqning o'ng tomonida joylashgan.

Ko'hna shaharning sharq tarafida buddaviylik stupa-siga o'xshash minora shaklidagi xom g'ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan.

1933-yil arxeolog Mixail Yevgenyevich Masson tomonidan xom g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlari, uning ichida esa haykal, tosh karnizlar, me'moriy buyumlar, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar, musiqachilar va mutafakkirlar, ehson keltiruvchilarning shakllari tushirilgan haykallarning hoshiyali tosh plitalari topilgan.

Qoratepa. Tepalik buddaviylik ruhoniylarining eng katta markazi hisoblangan va u Kushon imperiyasi davridagi Termizning tashqi devori himoyasi ostida, shahar tashqarisida joylashgan bo'lgan.



Amudaryodan topilgan tilla haykalcha



Ayritom topilmasi




MA'LUMOT UCHUN

Buddaning hayoti bilan bog'liq ko'plab voqealarga afsonaviy tus berilgan. Xususan, rivoyatlardan birida keltirilishicha, Budda 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, qiyon qiyofalarida 550 marta qayta tug'ilgan. So'nggi marta xudolar uni insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar.



*Budda. Qoratepa,
mil. III asr*



*Budda.
Dalvarzintepa,
mil. III asr*

1961-yildagi tadqiqot ekspeditsiyasi natijasida Qoratepa binolarining uch qavati topilgan. Asosiy majmuaning uch qismi g'arbdan sharqqa qarab deyarli to'g'ri tortilgan. Maxsus hovlida Budda qabrining tim-soli bo'lgan «stupa» o'rnatilgan.

Fayoztepa. Qoratepa sharqidan sakson metr narida Fayoztepa ibodatxona-monastiri majmuyi aniqlandi. Fayoztepa ibodatxonasi to'g'ri to'rtburchakdan iborat tuzilishga ega.

Bino uchta teng qismga ajralgan, ularning har birida ichki hovli bo'lgan. Bir qismida yashash xonasini o'z ichiga olgan monastir (rohibxona) joylashgan. Unda rohiblar yashaganlar. Bundan tashqari, ovqatlaniladigan xona, oshxona, non yopiladigan xona kabi yordamchi xonalar bo'lgan. Uchinchisi ibodatxonaga o'xshagan markaziy xona bo'lib, devorlari xom g'isht va paxsadan qurilgan, somonli loy bilan suvalgan va oqlangan.

Dalvarzintepa. Surxondaryo viloyati, Sho'rchi tumanida joylashgan. Buddaviylikka oid mazkur yodgorlik 1962-yili aniqlangan.

Ushbu qadimiy shahardan tashqarida ham yana bir buddaviylik ibodatxonasi, vino tayyorlash qurilmalari hamda dafn qilish joyi topilgan.



IJODIY FAOLIYAT

1. Buddaviylikning Markaziy Osiyoga yoyilishi qaysi davrlardan boshlanganligini eslang.
2. Bu davrda Markaziy Osiyodagi xalqlar qaysi dinlarga e'tiqod qilgan?
3. Qo'shimcha adabiyotlardan mamlakatimiz hududida buddaviylik tarqalgan hududlardagi madaniy hayot haqida ma'lumot to'plang.

Mazkur shaharchadan Markaziy Osiyo hududlarida birinchi marta loydan yasalgan, yaxshi saqlangan Buddha tasvirlangan va ko‘plab boshqa haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan.

Ibodatxonadagi Buddaning tik turgan haykali juda yaxshi saqlangan: uning oyoqlari mustahkam g‘ishtin asosda turibdi, kiyimlarining burmalari aniq, bularning barchasi yorqin qizil rangga bo‘yalgan. Buddha sochlari-ning tubi, asosan, qora, tepasi qizil rangda. Xuddi shu rang bilan qosh va ko‘zining qorachiq-lari chizilgan.

Quva. 1957-yilda Farg‘ona vodiysidagi Quva shahri vayronalarida arxitektura va haykaltaroshlikning ajoyib namunasi bo‘lgan buddaviylik ibodatxonasi qoldiqlari topilgan. Ushbu materiallar Farg‘ona viloyatida VII asrda buddaviylik dini keng tarqalganini tasdiqlaydi.

Bu davrda Markaziy Osiyoning boshqa hududlarida zardushtiylik dini, xususan, uning mahalliy diniy an‘analarni o‘ziga singdirgan shakli hukmron bo‘lgan. Bugungi kunda yurtimizda buddaviylikning lamaizm yo‘nalishi tarqalgan.



Shoh Xuvishka davriga oid tanga

*Bodxisatva,
Fayoztepa,
mil. I–II asrlar*



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Milodning I–III asrlarida O‘zbekistonning janubida qaysi davlat faoliyat yuritgan?
2. Bu davrda qaysi podshoh hukmronlik qilgan?
3. Nima uchun buddaviylik davlat diniga aylangan?
4. Berilgan rasmlar asosida o‘sha davrda davlatning buddaviylik diniga bo‘lgan munosabatini tushuntirishga harakat qiling.
5. A. Ziyoning «O‘zbek davlatchiligining shakllanishi» kitobidan Kushon imperiyasi va buddaviylik dini haqidagi ma‘lumotlarni toping.

9-§

BUDDAVIYLIK TA'LIMOTI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Birorta dinning jahon diniga aylanishiga nimalar sabab bo'lishi mumkin?
2. Buddaviylik ta'limoti nima sababdan jahon bo'ylab keng tarqalgan?
3. Siz tomosha qilgan badiiy filmlar orasida budda rohiblari haqidagilari bormi? Rohiblarning xulq-odobi va axloq me'yorlariga rioya qilishlari haqida fikr yuriting.

Har bir millatning Buddha ta'limotini o'z tilida o'qib-o'rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Milodning birinchi asrida buddaviylik butunlay boshqacha tus oladi. Buddha ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko'tariladi va unga sig'ina boshlanadi.



*Bodhisatva,
Dalvarzintepa.
III asr*

BUDDAVIYLIKDA MUQADDAS MATNLAR

Buddaviylikning muqaddas manbasi «Tripitaka» (sanskritcha «Uch savat donolik») uchta katta bo'limdan iborat. Birinchi bo'lim – «Vinaya-pitaka» (sanskritcha – «Axloqiy me'yorlar kitobi») buddaviylar jamoasi «sangxa» tarkibiga kirish tartibi, rohiblarning xulq-atvori hamda diniy ko'rsatmalarga rioya qilish qonun-qoidalar va unga amal qilinmagan taqdirda beriladigan jazolar tavsifini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bo'lim – «Sutta-pitaka» (sanskritcha – «Duolar kitobi») hajm jihatdan eng kattasi hisoblanadi. Unda, asosan, «to'rt asl haqiqat» haqida so'z yuritiladi. Buddha ta'limoti shogirdlari tilidan masal, suhbat, na-

sihat, afsona, hikmatli soʻz, dostonlar shaklida bayon etilgan. Shuningdek, ushbu boʻlimda Buddha jamoasi («sangxa»)ning tuzilishi va uning shogirdlariga oid maʼlumotlar ham keltiriladi.

Uchinchi boʻlim – «Abxidxarma-pitaka» (sanskritcha – «Diniy-falsafiy masalalar kitobi»)da diniy taʼlimotning asosiy qoidalari ifodalanib, buddaviylik amaliyotining falsafiy mazmun-mohiyati ochib berilgan. Matn yozilish uslubi va tili murakkabligi uchun buddaviy rohiblar ularni faqat ustozlaridan taʼlim olish yoʻli bilan oʻzlashtirganlar.

«Tripitaka» matnlariga vaqt oʻtishi bilan oʻzgartish, tuzatish va qoʻshimchalar kiritilgan. Bunday oʻzgarishlar buddaviylikda oʻziga xos yoʻnalishlar paydo boʻlishiga zamin yaratgan.

«Tripitaka»ning ilk matni sanskrit tilida yozilgan boʻlsa ham, vaqt oʻtib asl matnlar yoʻqolib ketgani uchun faqat tibet, xitoy va yapon tillariga tarjima qilingan namunalari saqlanib qolgan. Mazmunan «veda» (sanskritcha – muqaddas bilim) va brahmanlik falsafiy qarashlaridan xoli boʻlgan buddaviylik manbalari, oʻzining ommabop uslubdagi talqini bilan oddiy xalqqa tushunarli boʻlgan. Masalan, «mahayana» aynan shu xususiyati tufayli buddaviylikni Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoga yoyilishini taʼminlay olgan. Milodning birinchi asridan boshlab buddaviylik Xitoy, Koreya, Yaponiya Shri-Lanka, Birma, Tayland, Vetnam, Kambodja, Laos sarhadlarigacha yetib borgan.

Budda bilim orqali azob-uqubatlardan qutulish mumkinligini uqtirgan. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda koʻp ezgu va yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin.



Buddaviylik dinining ramzi «Dharmachakra». U «Qonun gʻildiragi» deb ham nomlanadi.



«Nirvana» sanskritcha — «soʻlish», «oʻchish»,
«rupaloka» sanskritcha — «jannat»,
«kamaloka» sanskritcha — «doʻzax», «eng quyi olam»dir.
«Tripitaka» sanskritcha — «Uch savat donolik» demakdir.



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o‘qing va buddaviylik ta’limotining asosi haqida fikr bildiring.

Budda fikricha, inson «Pancha shila» (sanskritcha — besh nasihat)ga amal qilishi, qotillik, o‘g‘rilik, gumrohlik, yolg‘on so‘z, mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim.



Bodxisatva — nirvanaga erishgan, lekin jonli mavjudotlarga muhabbati tufayli undan voz kechgan inson.

Buddaning 84 mingta nasihati 108 jilddan iborat «Kangyur»da, uning talqin va tafsiri 225 jilddan iborat «Tengyur» kitoblarida aks etgan. Shuningdek, Buddaning hayotiga bag‘ishlangan va milodning II asrida yozilgan «Maxavosu», milodning II–III asrlarida yozilgan «Lalitavistara» («Buddaning hayoti»), buddaviy faylasuf Ashvagxosha tomonidan milodning I–II asrlarida yaratilgan «Buddxacharita», milodning I asrida yozilgan «Abnixishkramansutra» va «Nidanakatxa», «Dhammapada» («Dharma yo‘li», «Buddaning fikr-g‘oyalari») kabi asarlar buddaviylikning muhim manbalaridan hisoblanadi.

BUDDAVIYLIK YO‘NALISHLARI

Buddaning o‘limidan so‘ng shogirdlari orasida ajralish ro‘y berdi.

Xinayana (sanskritcha — kichik arava) yo‘nalishi an’anaviy qarashlarga rioya qilishi bilan birga Buddha ta’limotiga qat’iy mantiqiy izchillik berishga intildi.

Rivoyat qilinishicha, Budda vafotidan so‘ng uning jasadi olovda kuydirilgan. Buddaning shogirdlaridan biri o‘sha joydan Buddaning tishini topib olgan va bu tish ibodatxonada saqlangan. «Buddaning tishi» ibodatxonaning yer ostida, kumushdan yasalgan qo‘ng‘iroq ichida oltin idishlarda saqlanadi.



Buddaviylikning ilk yoʻnalishlaridan biri, najot topishning tor yoʻli xinayana miloddan avvalgi I asrda shakllangan boʻlib, uning asosiy qoidalari «Tiripitaka»da bayon qilingan.

Xinayanada «Budda tishiga sigʻinish», muqaddas joylarni ziyorat qilish kabi dabdabali marosimlar paydo boʻlgan. Buddaviylarning muqaddas joyi Shri Lanka boʻlib, bu yerga turli mamlakatlardan bu dinga eʼtiqod qiluvchilar tashrif buyuradilar. Shri Lankaning avvalgi poytaxti boʻlgan Kandi shahrida dunyoga mashhur «Buddaning tishi» ibodatxonasi joylashgan.

Mahayana (sanskritcha — katta gʻildirak) yoʻnalishi Budda taʼlimotining barcha tomonlarini isloh qildi. Buddaga ilohiylik tusini berib, diniy marosim va ibodatlarni joriy etdi. Ushbu yoʻnalishlarning mahalliy qadriyatlar va boshqa dinlar bilan aralashuvi lamaizm, vajrayana, dzen (chan) buddizm, tyantay, dxiana kabi yoʻnalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi. Xu-

*«Oʻzingga ozor yetmasin desang,
oʻzgalarga ozor berma,
boshqalarga ozor bersang,
oʻzing ham ozor chekasan. Hirs-u havas barcha baxtsizliklarning sababchisidir.*



Budda

*Toshkentdagi
Budda
ibodatxonasi*





*Budda rohiblar
bilan.
Fayoztepa.
Mil. I — II asrlar.*

*Kamchilik va
nuqsonlaringni
ko'rsatib,
seni koyigan
donishmandning
etagidan
mahkam tut.
Zero, u zot
xazinaga
eltayotgan
yo'lboshchiga
o'xshaydi va
sen sira kam
bo'lmayсан.*



Budda

dolarga yetish yo'llari barcha uchun mumkin bo'lgani sababli «mahayana» yo'nalishi «katta arava» nomini olgan.

Dzen buddizm V–VI asrlarda Xitoyda paydo bo'lgan mahayana yo'nalishidagi maktablardan biridir. Uning asoschisi afsonaviy rohib Bodhidharma hisoblanadi. «Dzen» (lotincha – meditatsiya, fikrni jamlash, diqqat bilan mushohada qilish) buddizmning asosiy xususiyatlari shundaki, unda nazariyadan ko'ra amaliyotga, diniy o'g'it va qonun-qoidalarni yodlash o'rniga mushohada qilishga alohida e'tibor berilgan.

Dzen buddistlar jismoniy mehnat qilish, san'at turi bilan shug'ullanishga katta ahamiyat beradilar. Dzen buddizmida tashqi olamdan uzilib, abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlashga alohida e'tibor beriladi.

Hozir dunyo bo'yicha dzen buddistlar 10 milliondan ortiq, ularning 85 foizi Yaponiyada yashaydi. Yaponiyada dzen ibodatxonalari diniy, siyosiy va madaniy markazga aylanib, yoshlar tafakkuri, turmush tarzi, faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, dzen san'ati Xitoy va Yaponiya madaniyati an'alaridan biriga aylangan.

Lamaizm (tibetcha — eng ulug') VII–XIV asrlarda Tibetda mahayana yo'nalishi ta'sirida vujudga kelgan. «Kang'yur» va «Teng'yur»da bayon qilingan barcha qonun-qoida va talablar lamaizm e'tiqodining asosini tashkil etadi. Lamaizm ta'limotiga ko'ra, inson faqat lamalar yordamida najot topadi, gunohlardan poklanadi, ularning yordamisiz oddiy kishilar jannatga tusha olmaydi.

Buddaning Yer yuziga yana qaytishi va dunyoda adolat o'rnatishiga ishonch lamaizm ta'limotida muhim

o‘rin egallaydi. Xudolarning Yerdagi vakili hisoblangan lamalarga va dunyoviy hokimiyatga so‘zsiz bo‘ysunish, ibodat va rasm-rusumlarni dabdabali o‘tkazish, muqaddas kitoblar talqinini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish lamaizmga xos xususiyat hisoblanadi. Odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, tuhmat, g‘iybat, bekorchi so‘zlash, ochko‘zlik, kek saqlash, zino qilish lamaizmga ham og‘ir gunoh sanaladi.

«Lamaizm» tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. Tibetda 3000 dan ortiq buddaviylik ibodatxonalari mavjud. Shuningdek, lamaizm Rossiyaning Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan.

Neobuddizm XX asrning 40–50-yillaridan boshlab keng tarqala boshlagan oqim bo‘lib, Birma, Tayland, Laos, Vetnam mahalliy ziyolilarining ozodlik va milliy uyg‘onish harakati bilan bog‘liqdir. Uning asosida yangi zamon talabiga javob bera oladigan bunyodkor g‘oyalarni targ‘ib qilish kabi masalalar yotadi. Aql-idrokning ahamiyatsizligi, dinning najotkorligi e‘tirof etilib, buddaviylik g‘oyalarini tushuntirishda bilish nazariyasi usullaridan foydalaniladi. Milliy ozodlik kurashida faol qatnashgan neobuddizm oqimi diniy-islohotchilik harakati kuchayishiga katta ta‘sir ko‘rsatgan.



Dalay-lama



Lamaizmning oliy diniy rahnamosi Dalay-lama (tibetcha – «den-gizdek ulug‘ lama») tug‘ilgan mavjudotlarning eng ulug‘i, «bodhisattva»ning Yerdagi ko‘rinishi, tirik xudo hisoblanadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Buddaviylik asosiy manbasining nomlanishi «Tipitaka» qanday ma‘no-ni anglatadi?
2. Buddaviylik ta‘limotidagi oqimlarning umumiy va o‘ziga xos tomonlari nimalardan iborat ekanligini ayting.
3. «Inson o‘ziga xos mavjudot bo‘lib tug‘iladi, o‘zini-o‘zi halok qiladi yoki qutqaradi». Mazkur matndagi «o‘zini-o‘zi halok qiladi» degan iboraga hayotiy misollar keltiring.


10-§ XRISTIANLIK



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xristianlik dini haqida nimalarni bilasiz?
2. Xalqimizga xos bo'lgan diniy bag'rikenglik qadriyati deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar bilan izohlang.
3. Ushbu matnni o'qing va «etnik sabr-toqat», «bag'rikenglik» tushunchalari xalqimiz hayotida qanday o'rin egallaganligini tushuntirishga harakat qiling.

«Etnik sabr-toqat, bag'rikenglik hayot bo'ronlaridan omon qolish va rivojlanish uchun zarur tabiiy me'yorlarga aylandi» (Islom Karimov).



Iso Masih

VUJUDGA KELISHI

Milodning I asrida Falastinda vujudga kelgan xristianlik dini e'tiqodchilari soni bo'yicha dunyoda birinchi o'rinda turadi, Yer yuzi aholisining qariyb 2 milliarddan ortig'i bu dinga e'tiqod qiladi. Shuning uchun ham xristianlik jahon dini sifatida e'tirof etiladi.

Xristianlik ta'limotining paydo bo'lishi Iso Masih shaxsi bilan bog'liq. Iso shaxsi haqida fanda mifologik va tarixiy yondashuvlar mavjud.

Mifologik yondashuv tarafdorlari fan Iso Masihning tarixiy shaxs ekanligi haqida ishonchli ma'lumotga ega emas, deb hisoblaydilar. Ular xristianlikning Falastindan tashqarida vujudga kelganini ta'kidlaydilar. Shuningdek, Iso Masih haqidagi rivoyatlar Sharqda tarqalgan aso'tirlardagi xudolarning vafot etib, tirilishiga o'xshashini, Injilda ziddiyatlar va turlicha talqinlar mavjudligini buning isboti deb keltiradilar.

Tarixiy yondashuv vakillari esa Iso Masihni xristianlik ta'limoti asoslarini shakllantirgan, yangi dinni targ'ib qilgan tarixiy shaxs, deb hisoblaydilar. Ular bu haqda ma'lumot beruvchi qator tarixiy manbalarga tayanadilar. Masalan, shunday manbalarning biri Iosif Flaviy «Qadimiyotlar» asarining Rim prokuratori Pontiy Pilatga bag'ishlangan bobida Iso yangi e'tiqodni targ'ib etgani va unga ko'pchilik yahudiylar va yunonlar ergashgani qayd etilgan. Isoning safarlari davomida ko'plab odamlar unga shogird bo'ladilar. Ularni havoriylar (yunoncha «apostol» — «yordamchi») deb ataganlar.

Xristianlik ta'limotiga ko'ra, Isoning da'vati aksariyat hukmdorlar, qabila sardorlari va yahudiy ruhoniylari tomonidan ta'qibga uchragan. Shogirdlaridan biri Iuda Iskariot sotqinligi oqibatida Iso Masih 33 yoshida fitnachilikda ayblanadi. Xristianlik manbalariga ko'ra, Iso

Iso Masih haqidagi ma'lumotlar, asosan, diniy manbalarda keldi. Iso nomiga qo'shiluvchi Masih so'zi qadimiy yahudiy tili — ibriydagi «moshiax» so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi.



Iso Masih va uning 12 havoriy shogirdlari

ruhoniylar talabiga binoan Golgofa tepaligida xalq ko‘zi o‘ngida xochga mixlanadi. Uning ta‘limoti havoriylar tomonidan davom ettiriladi va ko‘plab odamlar xristian diniga jalb etiladi. Hukmron tabaqalar o‘z hokimiyatini mustahkamlash maqsadida xristianlik dinini qabul qildilar.

MARKAZIY OSIYODA ILK XRISTIANLAR

Xristianlik Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston hududiga ikki yo‘l bilan kirib kelgan. Birinchisi, xristian missionerlarining targ‘ibotchilik harakati bo‘lsa, ikkinchisi, mintaqaning Rossiya tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e‘tiqod qiluvchi aholining ko‘plab ko‘chib kelishidir.



Marv

III–V asrlarda xristianlik ko‘chmanchi turkiy qabilalar orasida ham mashhur bo‘lgan. Ularni bu dinga yepiskop Iliya da‘vat qilgan — u «turkiylar apostoli» nomiga sazovor bo‘lgan.

Xristianlikning Eron, keyinchalik Markaziy Osiyoda tarqalishi bu din vakillarining avval Vizantiya, keyin esa



IJODIY FAOLIYAT

Matnni o‘qing va o‘rta asrlarda diniy bag‘rikenglik tushunchasi haqida fikr bildiring.

Xristianlar musulmon davlatlarida tabiblik bilan shug‘ullanib, yuqori lavozimlarda ham ishlaganlar. Mashhur nasroniy tabib Ali ibn Sahl Rabbaiy 808-yilda tug‘ilgan, otasi Marv hokimining kotibi edi. Rabbaiy faylasuf va matematik ham bo‘lib, Aflotunning «Almagest» asarini yunonchadan tarjima qilgan. Shundan so‘ng unga «Rabbaiy» — o‘qituvchi degan unvon berilgan.

Arab geografi al-Kindiy

Sosoniy hukmdorlar tomonidan tazyiq ostiga olinishlari bilan bogʻliq.

Marvda IV asr boshlarida yepiskoplik, V asr boshida esa mitropoliya tashkil qilinadi. Turli ibodatxona va monastirlar mitropoliyaning yaqin va uzoq hududlarida oʻz faoliyatini hech qanday qarshiliklarga uchramay davom ettiradi.

Mitropoliyalar. Qadimgi Soʻgʻdda xristianlik vakillari oʻzlarining dinlariga qarshiliklarsiz eʼtiqod qilganlar va diniy marosimlarini erkin amalga oshirganlar. Bu esa mazkur mintaqada mahalliy aholiga diniy eʼtiqod erkinliklari yaratilganligini koʻrsatadi. Masalan, bu davrda Urgutda xristianlar cherkovi, zardushtiylar va buddaviylar ibodatxonalari faoliyat yuritgan.

VIII asrda Movarounnahr arab xalifaligi tarkibida boʻlgan davrda musulmon jamiyatida xristianlar boshqa din vakillariga qaraganda koʻproq imtiyozlarga ega boʻlib, yuqori lavozimlarda faoliyat yuritganlar.

X asrning oʻrtalarida Markaziy Osiyoda islom dini keng tarqalgan boʻlsa-da, Urgutdagi xristianlik cherkovi shu darajada rivojlanib ketadiki, arab geografi Abu Muhammad Qosim ibn Havqal uni yerga va turli xususiy mulkchilik shakllariga ega katta monastir (rohibxona) sifatida taʼriflaydi.

Amir Temur davlatida ham diniy bagʻrikenglik muhiti saqlanib qolgan. Kastiliya elchisining guvohlik beri-



Rossiya,
1930-yillar

*Oʻgʻrilik qilma,
oʻz qoʻllaring
bilan foydali
mehnat qil va
muhtojlarga
yordam ber.*



Bibliya



XX asrning ikkinchi yarmida Samarqandning Registon maydonida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida xristian anʼanalari asosida dafn etilgan bir nechta qabr topildi. Pasdargʻomda arxeologlar yogʻochdan yasalgan tobutda kiyimlari va oltin xochi bilan dafn etilgan mayitni topishgan.

shicha, Samarqandda turli din vakillari yashagan. Jiz-zax viloyatida — Vinkerd hududidagi gʻor devorlaridan xristianlik tarixiga oid Iso Masih goʻdakligi ifodalangan suratlar topilgan.



*1917-yildan keyin
cherkovlarning
mol-mulki
musodara qilinishi*

XIX asrda xristianlarning Turkiston shimoliy hu-dudlariga kirib kelishi Chor Rossiyasi tomonidan oʻlkaning bosib olinishi bilan bogʻliq. Harbiy qoʻshin tarkibida ruhoniylar ham boʻlgan. Askarlarning di-niy ehtiyojlarini qondirish maqsadida koʻchma ibodat-xonalar tashkil etilgan. 1850-yilda Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilingan. 1871-yilda rus im-peratorining Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tash-kil etish toʻgʻrisidagi farmoni eʼlon qilingan. Dastlabki cherkovlarning koʻpchiligi odmi boʻlgan va qoʻngʻiroq-lari ham boʻlmagan. Xristianlarning koʻpayishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta oʻsha davr zamonaviy cherkovlaridan qolishmaydigan inshootlarning bunyod boʻlishiga olib keldi.

Markaziy Osiyoga katolik va protestant yoʻnalishi vakillarining kirib kelishiga birinchi jahon urushida asir-ga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston oʻlkasiga sur-gun qilinishi sabab boʻldi. Bu, oʻz navbatida, yevropalik



TARIXGA NAZAR

1920–1930-yillarda deyarli barcha katolik ibodatxonalari yopildi. 1930-yilda Lyuteran protestant cherkovining faoliyatiga chek qoʻyildi. Xris-tian cherkoviga tegishli qadriyatlar toptaldi.

1917-yil 27-oktabrda II Butun Rossiya syezdida yer haqida dekret qabul qilindi. Unga koʻra cherkovga tegishli yerlar musodara qilindi.

asirlar orasida diniy jamoalar tuzilishi hamda cherkovlar paydo bo'lishiga olib keldi. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1917-yilda qurib bitkazilgan.

Sovet hukumatining din va dindorlarga nisbatan shafqatsiz munosabati boshqa din vakillarini ham chetlab o'tmadi. 1920-yilda birinchi bo'lib Rus pravoslav cherkoviga qarshi hujum boshlandi. Minglab pravoslav ruhoniylari otildi, qamoqqa olindi va surgun qilindi. Diniy xizmatchi va rohiblar qattiq tazyiqqa uchradi. Ko'plab ibodatxonalar yo'q qilindi yoki yopildi. Katta miqdordagi ikonalar va cherkov kitoblari yondirildi.

1920–1930-yillarda deyarli barcha katolik ibodatxonalarini yopildi. 1930-yilda Lyuteran protestant cherkovining faoliyatiga chek qo'yildi. Xristian cherkoviga tegishli qadriyatlar toptaldi. 1931-yilda XV asrga oid Gutenberg Bibliyasi sovet hukumati tomonidan londonlik auksionchiga sotib yuborildi. Ushbu Bibliya Iogann Gutenberg tomonidan 1450-yilda 180 nusxada chop etilgan bo'lib, undan faqat 47 nusxasi saqlanib qolgan edi.



*Ibodatxonalarning
buzilishi*



*Moskva, Iso Masih
ibodatxonasining
portlatilishi,
1931-yil*

Iogann Gutenberg



XX asrning o'rtalari



XX asrning oxiri



*XX asrning
boshlari*



XX asrning oxiri

Ikkinchi jahon urushidagi vaziyatni e'tiborga olib, sovet hukumati 1943-yilda Ichki ishlar vazirligi qoshida Rus pravoslav cherkovi ishlari vakilligi, 1944-yilda barcha dinlar uchun mas'ul Din ishlari bo'yicha vakillik tashkil qilindi. Rossiya hududidagi cherkov va ibodatxonalar Sinod (pravoslav cherkovining boshqaruv organi)ga qaytarildi. Lekin bu masala uzoqqa cho'zilma- di — urush tugashi bilan sovet hukumatining dindorlar- ga tazyiqi yanada jiddiy tus oldi. Dindorlarni repressiya qilish va dinga qarshi targ'ibot qayta tiklandi. Qaytarib olingan hududlardagi dindorlar va ruhoniylar qatag'on qilina boshladi. «Din afyundir» degan g'oya yana qayta tiklandi.

Mustaqillik sharofati bilan O'zbekistonda turli dinlar- ga mansub qadriyatlarni asrab-avaylash, barcha fuqaro- larga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoit- lar yaratib berildi. Jumladan, 1995-yilning oktabr oyida Toshkent shahrida «Bir samo ostida» shiori bilan xalq- aro musulmon-xristian konferensiyasi o'tkazildi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan matnni o'qing. Diniy bag'rikenglik tu- shunchasi haqida fikr bildiring.
2. Berilgan rasmlarga izoh bering. 1 bilan 2 hamda 3 bilan 4-rasmlar o'rtasida qanday umumiylik bor?
3. 2- va 4-rasmlarni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-, 31-, 49- moddalari bilan bog'lab tushuntiring.

11–12-§ KRISTIANLIK TA'LIMOTI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xristianlik dinining dunyo bo'ylab tarqalishi xaritasini chizing.
2. Xristianlik dastlab qaysi hududlarda tarqalgan?
3. Uning jahon diniga aylanishidagi tarixiy shart-sharoitlarni aniqlang.
4. Xristianlikda dastlabki bo'linish qachon sodir bo'lgan, uning tarixiy sabablari nimada edi?

MUQADDAS MANBALARI VA MAROSIMLARI

Xristianlikning muqaddas manbasi «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd» deb nomlanuvchi ikki bo'limdan tarkib topgan «Bibliya» (yunoncha — «kitoblar») hisoblanadi.

«Qadimgi Ahd» «Tavrot», «Zabur» va boshqa bir necha kitob va madhiyalarni o'z ichiga olib, umumiy hisobda 39 kitob, ya'ni bo'limdan iborat.

«Bibliya»da qayd etilishicha, Iso Masih o'z da'vatlarida xalqni yaqinlashib kelayotgan oxirzamondan ogohlantirish uchun Xudo tomonidan yuborilganini ta'kidlaydi. Gunohlardan tiyilib, tavba qilish va to'g'ri yo'lga kirishga chaqiradi. U turli mo'jizalar ko'rsatib, odamlarni davolaydi.


Milodning IV asridan boshlab xristianlik cherkovi oliy tabaqa ruhoniylarni vaqti-vaqti bilan Butun Jahon



«Bibliya»



Milodiy 313-yilda imperator Konstantin yepiskoplarga Isoning o'gitlarini to'plash va kitob holiga keltirishni buyurdi. Kitob holidagi xristianlik tarixi yoritilgan «Yangi Ahd» Konstantin vafotidan so'ng Karfagen yig'inida tasdiqlandi.



Ilk Butun Jahon Sobori 325-yil Nikeya shahrida o'tkazilib, unda e'tiqod timsoli deb nomlangan xristianlik ta'limoti asosini tashkil etuvchi bosh aqidalar majmuasi qabul qilingan. Muqaddas kitob Muqaddas rivoyatlar (Papalar maktublari va xristian soborlarining qarorlari) bilan to'ldirilgan.



G'arbiy Rimning qulashi



Soborlariga yig'ib turadi. Bunday yig'ilishlarda diniy ta'limot tizimi ishlab chiqildi va tasdiqlandi. Xristianlikdagi qonunchilik me'yorlari va ibodatlarni olib borish qoidalari shakllandi, bid'atga qarshi kurashish usullari belgilandi.

Xristianlik ta'limotiga binoan qator marosimlarda Muqaddas Ruh ishtirok etadi va aynan shu sababli ular sirli deb ataladi. Bunday marosimlarga cho'qintirish (xristianlik diniga kiritish), yevxaristiya (non va vino tamaddi qilish), ruhoniylilik unvonini berish, tavba qilish, miro surtish, yeley moyi surtish, nikoh kiradi.



TARIXGA NAZAR

G'arbiy Rim Imperiyasi qulagach (476-yilda), Rimdagi dunyoviy hokimiyat cherkovning qo'liga o'tdi. Xuddi shu vaqtdan boshlab Rim yepiskopi Rim Papasi unvonini oldi.

Imperiyaning sharqiy qismi Vizantiyada esa kuchli imperator hokimiyatining saqlanib qolganligi sababli cherkov imperatorga bo'ysundirildi. Natijada Rim cherkovi Konstantinopol cherkovini o'ziga bo'ysundira olmadi. Xristian cherkovining katolik va pravoslav cherkovlariga ajralib ketishi Rim Papasi va Konstantinopol patriarxining xristian olamida yetakchilik uchun olib borgan raqobati oqibatida yuz berdi.

XRISTIANLIK YO'NALISHLARI

1054-yilda xristianlik doirasida bo'linish ro'y berishi natijasida **pravoslav** (Sharqiy xristianlik) va **katolik** (G'arbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga keldi.

Tarixan xristianlikning sharqiy yo'nalishi sifatida shakllangan **pravoslavlik**, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon yarim oroli mamlakatlarida tarqalgan.

Pravoslavlik ta'limoti asoslarini Muqaddas kitob (Bibliya) va Muqaddas rivoyatlar tashkil etadi. Pravoslavlikda sirli marosimlar muhim o'rin egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, ular davomida Xudo tomonidan

Turlicha xato qilish mumkin, ammo to'g'ri yo'l esa bitta. Shu sababli ham to'g'ri yo'ldan ko'ra xato qilish oson; mo'ljalga tegishdan ko'ra tegmaslik o'ng'ay.

Arastu



Nikeya va Konstantinopolda o'tkazilgan Butun Jahon Soborlarida qabul qilingan «E'tiqod timsolida» xristianlikning ta'limot asoslari 12 bandda belgilandi, bular:

- 1. Olamni yaratgan yagona Ota-Xudo — Muqaddas Uchlikning birinchi yuzi haqida;*
- 2. O'g'il-Xudo, ya'ni Iso Masihga ishonish haqida;*
- 3. Ilohiy mujassamlashuv, ya'ni Iso Xudo bo'la turib, bokira Bibi Maryamdan tug'ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;*
- 4. Gunohlar kechirilishi — Isoning tortgan azoblari va o'limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechirilishi haqida;*
- 5. Isoning qayta tirilganligi haqida;*
- 6. Isoning osmonga ko'tarilishi haqida;*
- 7. Isoning kelajakda ikkinchi marotaba yerga qaytishi haqida;*
- 8. Muqaddas Ruhga ishonish haqida;*
- 9. Cherkovga yagona, muqaddas, havoriylar (apostollar) cherkovi sifatida munosabatda bo'lish haqida;*
- 10. Cho'qintirish sirli marosimining gunohlardan forig' qilishi haqida;*
- 11. O'lganlarning ommaviy tirilishi haqida;*
- 12. Abadiy hayot haqida.*





TARIXGA NAZAR

Katoliklik tarixida XI–XIII asrlardagi salb yurishlari, «Xudo tobuti» va Muqaddas Yerni, yaʼni Falastin hududini, «gʻayridin»lardan ozod qilishga daʼvatlar boʻlgan. Din, eʼtiqod bayrogʻi ostida sodir etilgan bu harakatlar aslida Papalar taʼsirini mustahkamlash va kengaytirish hamda boylik orttirish maqsadida uyushtirilgan.



Pravoslavlik xochi



Katoliklik xochi

alohida savoblar nozil boʻladi. Cherkov yetti sirli marosimning barchasini tan oladi. Buyuk bayramlar ichida Pasxa birinchi oʻrinni egallaydi.

Pravoslavlik cherkovi bayramlar va roʻza tutishlarga katta ahamiyat beradi. Odatda, katta cherkov bayramlari arafasida roʻza tutiladi. Uning mohiyati inson ruhining poklanishi va yangilanishi, diniy hayotdagi muhim hodisaga tayyorlanishdan iborat.

Katoliklik xristianlik dinining eng yirik yoʻnalishi hisoblanadi. «Katolik» soʻzi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan maʼnoga ega. Bu yoʻnalish, asosan, Gʻarbiy, Janubi-Gʻarbiy va Markaziy Yevropa, Boltiqboʻyi, Ukraina va Belarusning gʻarbiy hududlarida, Lotin Amerikasi va AQSHda tarqalgan.

Katoliklik xristian dinining yoʻnalishi sifatida uning asosiy aqidalari va marosimlarini tan olishi bilan birga, taʼlimoti, marosimlarni amalga oshirish, tashkil topishida oʻziga xos xususiyatlarga ega. Katolik taʼlimotining asosini xristianlikda tan olingan Muqaddas kitob — Bibliya va Muqaddas rivoyatlar tashkil etadi.

Katolik Cherkovi Tashkiloti jiddiy ravishda markazlashganligi bilan ajralib turadi. Rim Papasi bu Cherkovning rahbari hisoblanadi. U din va axloq masalalari boʻyicha qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati Butun



*Pravoslav, katolik,
va protestant
cherkovi
ruhoniylari*

Jahon Soborlaridan yuqori turadi. Katoliklik ta'limotiga ko'ra, Cherkov gunohlarni afv etish, kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq indulgensiya to'g'risidagi ta'limotning, ya'ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo'lgan.

Katoliklikda 1870-yilda Vatikanda o'tkazilgan 1-soborda qabul qilingan Papaning begunohligi haqidagi aqidalar mavjud. Papani kardinallar yig'ilishi (kollegiyasi) saylaydi.



Pasxa pishiriqlari



IJODIY FAOLIYAT

Matnni o'qing. Berilgan tarixiy voqea asosida protestantlarning talablari nimadan iborat ekanligi yuzasidan fikr bildirung.

Praga universiteti professori Yan Gus (1369–1415) J. Viklif g'oyalari-dan ta'sirlanib, cherkov boyliklaridan voz kechishi kerakligini targ'ib qildi. Cherkovga katta daromad keltiradigan va, Yan Gus fikriga ko'ra, dindorlar ongini buzuvchi indulgensiyaning sotilishiga qarshi chiqdi. Bu qarashlari uchun u 1415-yilda Konstans sobori qaroriga binoan gulxanda kuydirildi.



*Pravoslav cherkovi.
Italiya*



*M. Lyuter cherkov
eshiklariga
95 asosni qoqib
qo'ydi.*

Protestantlik Yevropa mamlakatlarida katoliklikda kechayotgan jarayonlarga qarshi qaratilgan reformat-siya harakati natijasida vujudga kelgan. Reformator-lar katoliklik amallarini Injil ideallaridan qaytish deb talqin qiladilar. Oksford universiteti professori J. Viklif (1320–1384) Rim Papasining Angliyadan olinadigan soliqlariga qarshi chiqdi, ingliz cherkovining fuqarolar ishlari bo'yicha Angliya qiroliga bo'ysunishi lozimligi va Muqaddas kitobning cherkov rivoyatlaridan ustunligi to'g'risidagi g'oyalarni ilgari surdi. Bu g'oyalarni ing-liz kambag'al ruhoniylari qo'llab-quvvatladilar.

Protestantlik dunyoviy kishilarni ruhoniylardan ajrat-maydi, bu ta'limotga ko'ra, barcha dindorlar ruhoniy-dir. Sirlı marosimlardan faqat cho'qintirish va non bi-lan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo'ysunmaydilar. Ibodat va'z o'qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo'shiqlar (psalomlar) aytishdan iborat.

Protestantlar Bibi Maryamning ilohiy ekanini tan ol-maydilar, tarkidunyochilik, go'daklarni cho'qintirish, ruhoniylar kiyadigan kiyimlar, ikonalarini rad etadilar.

Yan Gus kuydirilgandan yuz yil keyin Germaniyada Vittenberg universiteti professori Martin Lyuter (1483–1546) Protestantlar Cherkov asoslarini yaratadi. U ham indulgensiya sotilishini tanqid qiladi. M. Lyuter di-niy-axloqiy jihatdan mehnatni qadrlash lozimligi g'oya-sini ilgari surdi. Lyuterning fikricha, inson va Xudo o'rtasida bevosita aloqa bo'lishi mumkin.

Lyuter ta'limoti protestantlikdagi yo'nalishlardan biri — lyuteranlikka asos soldi. Bu ta'limotga ko'ra, odamlar vijdon va tavba-tazarruni ongli ravishda va muntazam nazorat qilishlari lozim. M. Lyuter tavba-ta-zarru uzoq davom etadigan jarayon ekanligini qayd eta-di. Lyuteranlar ta'limotiga ko'ra, Papa o'zi buyurgan

yoki cherkov nizomida belgilangan jazolardan ozod qilishi mumkin, ammo cherkov insonni xudoning jazosidan ozod qilolmaydi deb hisoblanadi.

Indulgensiyalarni sotib olishning befoydaligini M. Lyuter shunday asoslaydi: «Xudo chin ko'ngildan tavba qiluvchilarning gunohidan kechadi, abadiy qiynoqlardan ozod qiladi, osiy bandalar Papaning yorlig'isiz ham bundan umid qilishlari mumkin». Lyuteranlik Germaniya, Daniya, Norvegiya, AQSHda tarqalgan. Xristianlikda bu yo'nalishlardan tashqari kalvinizm, presviterianlar, anglikan cherkovi, baptizm, anabaptizm, mennonitlar, unitarizm, metodistlar, kvakerlar, pyatidesyatniklar, adventistlik yo'nalishlari mavjud.

Bugungi kunda xristianlik yo'nalishlaridan mamlakatimizda pravoslav, katolik, arman apostol, nemis yevangel-lyuteran, yevangel xristian-baptistlar, yettinchi kun xristian adventistlari, koreys protestant, to'liq injilchi, «Golos Bojiy» kabi chekovlari ro'yxatdan o'tgan.

Ular mamlakatimizda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonun talablariga amal qilishlari shartligi ham belgilab qo'yilgan.



*Rim Papasi
Fransisk II*



*Katolik cherkovi,
Smolensk*



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xristianlik cherkovining pravoslavlik va katoliklikka ajralishining sabablari nimada?
2. Xristianlikdagi bo'linish sabablarini muhokama qiling.
3. Katoliklik va pravoslavlik ta'limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlar haqida qiyosiy ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
4. O'zbekistondagi xristian diniy tashkilotlari haqida nimalarni bilasiz?

13-§ MARKAZIY OSIYODA ISLOM



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Islom dini paydo bo'lishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Islom dini dastlab Markaziy Osiyoning qaysi hududlarida tarqalgan?
3. Islomning jahon diniga aylanishidagi tarixiy shart-sharoitlarni aniqlang.
4. Islom dinida dastlabki bo'linish qachon sodir bo'lgan, uning tarixiy sabablari nimada edi?
5. Arabiston tarixida qaysi davr «Johiliyat davri» deb atalgan?



*Toshkentdagi
Usmon
Mus'hafning
varag'i*

ISLOM DININING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI

Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) vafotidan so'ng u kishining eng yaqin izdoshlari Abu Bakr (632–634), Umar ibn Xattob (634–644), Usmon ibn Affon (644–656) va Ali ibn Abu Tolib (656–661) (r.a.)lar musulmonlar jamoasiga rahbarlik qildilar. Bu davr islom tarixida «Xulafoi-roshidin» (To'g'ri yo'ldagi o'rinbosarlar) davri deb ataladi.

Usmon ibn Affon (r.a.) davriga kelib musulmonlar hozirgi Turkmaniston hududlariga kirdilar. Sekin-asta arab-musulmon qo'shinlari Xuroson va Movarounnahr hududlarini egallab, islom dinini tarqata boshladilar. Lekin arablar egallagan yerlarning aholisi bir zumda

Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'ambar nomi zikr etilganda unga hurmat yuzasidan «sollallohu alayhi vasallam» (qisqacha: s.a.v.: «unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin») yoki «alayhis-salom» (qisqacha: a.s.: «unga salom bo'lsin») iborasini aytish lozim hisoblangani uchun islom tarixiga oid adabiyotlarda s.a.v. yoki a.s. qisqartmasi ishlatiladi.



musulmonlarga aylanib qolmadi. Markaziy Osiyoda IX asr o'rtalariga kelibgina, ya'ni Movarounnahr fathidan bir yarim asr o'tgach, islom mahalliy aholining asosiy diniy e'tiqodiga aylandi.

Markaziy Osiyoga islom dinining kirib kelishi bilan mintaqada ijtimoiy-ma'naviy soha rivojlana boshladi. O'lkada iqtisodiy yuksalish yuz berdi, dunyoviy va diniy fanlar tez sur'atlar bilan rivojlandi.

O'zbekiston hududida islom dinining sunniylik yo'nalishi, xususan, Hanafiy (Imom A'zam) mazhabi qaror topdi.

O'ZBEKISTONDA ISLOM MANBALARINING O'RGANILISHI

Islom dinining asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni karim mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab o'zbek olimlari va din ulamolari tomonidan o'rganila boshlandi. Chunonchi, u jadallik bilan o'zbek tiliga tarjima qilindi va chop etildi.

Qur'oni karimning ilk bor to'liq ravishda zamonaviy o'zbek tilidagi tarjimasi Alouddin Mansur tomonidan amalga oshirildi. Mazkur tarjima 1990–1992-yillarda «Sharq yulduzi» jurnalida e'lon qilingan bo'lsa, 1992-yili alohida kitob shaklida ko'p nusxada nashr etildi.

1991-yildan boshlab Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf (1952–2015) tomonidan yozilgan «Tafsiri Hilol» nomli tarjima-tafsirning avval 27, 28, 29, 30-poralari nashr qilindi. Aytish kerakki, ushbu tafsir zamonaviy o'zbek tilidagi keng izohli va sharhlarga boy asarlardan biridir. Ushbu tafsir 2005-yilda olti jildda to'liq nashr etildi, so'ngra uning tuzatilgan va to'ldirilgan



TARIXGA NAZAR

Abu Bakr Siddiq (632–634) davrida Qur'on ilk bor sahifalarda jamlandi. Xalifa Usmon ibn Affon (642–654) davrida Qur'on ikkinchi marta jamlanib, kitob holatiga keltirildi. Bu vazifa Abu Bakr Siddiq davridan tajribaga ega bo'lgan sahoba — Zayd ibn Sobit tomonidan amalga oshirildi. Yagona Mus'hafdan bir necha nusxa ko'chirildi va har bir mintaqaga bittadan yuborildi.



Ka'baning qadimiy va hozirgi ko'rinishi



Hadis — *Islom dinining Qur'oni karimdan keyingi o'rinda turuvchi muqaddas manbasi.*



IJODIY FAOLIYAT

Mazkur matnni o'qing. Matndagi «o'z nafsining baxilligi» degan iborani qanday tushundingiz? Nafsning baxilligidan qanday saqlanish mumkin deb o'ylaysiz?

«Kimki o'z nafsining baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o'shalar najot topguvchi zotlardir».

Hashr surasi, 9-oyat

nashri 2011–2016-yillarda olti marta qayta chop qilindi. 2013–2014-yillarda tafsirning 1 va 2-juzlari rus tiliga ham tarjima qilinib, bosmadan chiqdi.

Shayx Abdulaziz Mansur tomonidan amalga oshirilgan Qur'oni karim ma'nolarining tarjimasi va tafsiri «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi tomonidan 2001, 2004, 2006, 2007, 2009, 2012, 2014, 2016-yillarda qayta-qayta nashr qilindi. Ushbu asarning boshqa tarjima-tafsirlardan o'ziga xosligi shundaki, unda Qur'oni karim ma'nolari arabcha matn atrofida o'zbek o'quvchisiga o'z ona tilida ravon va tushunarli qilib, kerakli izohlar bilangina cheklanib, iboralarning ta'sirchanligiga katta e'tibor bergan holda taqdim etilgan.

Shamsiddinxon Boboxonov tomonidan tayyorlangan Qur'oni karimning 30-porasiga qilingan tarjima mustaqillikning dastlabki yillarida xalqimiz qo'liga yetib bordi. Unda kishilarga yaxshi tanish bo'lgan va ko'p o'qiladigan suralar borligi hisobga olinib, 30-poraning arabiy matni ham berilgan.


Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazida professor Mutallib Usmonov mas'ul muharrirligida Qur'oni karim o'n besh porasining («Fotiha» surasidan «Isro» surasigacha) akademik tarjimasi tayyorlanib nashr etilgan. Unda Qur'oni karimning nozil bo'lish davri tarixi ham qisqacha yoritilgan.

Muftiy Usmonxon Alimov tomonidan ham hozirgacha Qur’oni karimning o‘n besh porasi tafsir qilinib chop etildi. «Tafsiri Irfon»ning boshqa tafsirlardan ajralib turadigan xususiyatlari shundaki, unda oyatlar ma’nosi zamondoshlarimiz uchun tushunarli, sodda va ravon bo‘lishiga harakat qilingan.

Hadisi shariflarni O‘zbekistonda o‘rganish XX asrning o‘rtalariga borib taqaladi. 1968-yildan chop etila boshlagan «Sovet Sharqi musulmonlari» jurnali sahifalarida muhaddislar va hadislar haqidagi ayrim maqolalar berilar edi. Mustaqillik davrida bu jurnal «Movarounnahr musulmonlari» va keyinchalik «Hidoyat» nomi bilan chop etila boshladi. Jurnal hozirgi kunda ham o‘z sahifalarida hadis va muhaddislarga oid maqolalarni muntazam berib bormoqda.

Mustaqillik davrida hadis bo‘yicha chop etilgan ilk kitoblardan biri Shamsuddin Boboxonov, shayx Abdulaziz Mansur kabi olimlar tomonidan odobaxloq, maishiy hayot masalalariga oid hadislarini o‘z ichiga olgan «Ming bir hadis» kitobidir. Keyinchalik akademik Ne’matulla Ibrohimov va shoir Mirzo Kenjabek tahriri ostida Imom Buxoriyning «al-Jome as-sahih», «al-Adab al-mufrad» kitoblari tarjima qilindi.

Oxirgi yillarda Toshkent islom universiteti qoshidagi Islomshunoslik ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan samarqandlik mashhur Imom Dorimiyning «Sunani Dorimiy» hadislar to‘plami hamda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf tomonidan «Oltin silsila» rukni ostida Imom Buxoriyning «Sahih al-Buxoriy» asari o‘zbek tiliga tarjima qilinib, nashr etildi.




Sahih Buxoriy



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Islom dini tarixi haqida so‘zlab bering.
2. Qur’oni karim va Hadisi sharif deganda nimani tushundingiz?
3. Islom dini Movarounnahrqa qachon kirib keldi?
4. Islomning jahonga yoyilishi xaritasini chizing.
5. Islom madaniyat markazi deganda nimani tushunasiz?


14-§ ISLOMDAGI MAZHABLAR VA AQIDAVIY TA'LIMOTLAR



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Bugungi kunda musulmon aholisi ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda qaysi davlat turishini bilasizmi?
2. Islom ta'limoti, xususan, oyat va hadislarda ilm olish haqida aytilgan qanday so'zlarni bilasiz?
3. Eng ezgu odatlardan bo'lgan salomlashish odobining islom ta'limotiga aloqasi bormi?
4. Nima deb o'ylaysiz, jamiyat uchun tinchlikning o'rni qanday? Islom dinida bu borada nima deyiladi?

ISLOM DINI TA'LIMOTI VA BAYRAMLARI



Qur'oni karim

Islom dini ta'limotiga ko'ra, Alloh barcha jonli va jonsiz narsalarning, butun koinotning yaratuvchisi hisoblanadi. U hech kimga o'xshamaydi va hech narsani u bilan tenglashtirish mumkin emas. Insonlar Alloh yaratgan maxluqotlarning eng buyugidir. Alloh odamzotni to'g'ri yo'lga boshlash uchun o'z elchilari — payg'ambarlarni yuborib turgan. Manbalarda payg'ambarlarning soni 124 ming nafar bo'lgani qayd etiladi.

Muhammad (s.a.v.) avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, sof e'tiqodni tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo) deb tan olinadi.

Islom dinining asosiy bayramlari — bu hijriy yil hisobida Shavvol oyining birinchi kunida nishonlanadigan Ramazon hayiti hamda undan 70 kundan so'ng nishonlanadigan Qurbon hayitidir. Ikki hayit ham O'zbekistonda rasman bayram deb e'lon qilingan. Bu



Toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn Ali ibn Ismoil Qaffol Shoshiy (291–365-h.y.) fiqh, hadis, lug‘at va adabiyot bo‘yicha o‘z davrining mashhur olimlaridan edi. Qabrlari Toshkentdagi Hastimom (Hazrati Imom) dahasida joylashgan.

kunlarda qariyalar, qarindoshlarni ziyorat qilish, bolalarga hayitlik sovg‘alar, shirinliklar berish urf hisoblanadi. Hayit bayrami insonlar orasida mehr-muhabbat, muruvvat tuyg‘ularining shakllanishiga yordam beradi. Masalan, Ramazon hayitidagi fitr sadaqasi, Qurbon hayitida qo‘y yoki qoramol so‘yib, muhtojlarga tarqatilishida Islom dinining insonparvarlik mohiyati namoyon bo‘ladi. Bu kunda musulmonlar chiroyli kiyimlarni kiyib, xushbo‘y atirlarni sepib, masjidga boradilar va hayit namozini ado etadilar.

ISLOMDAGI MAZHABLAR

VII asrning ikkinchi yarmida islomda ilk bo‘linishlar boshlandi. Xalifa Ali davriga kelib turli g‘arazli kuchlar ta‘sirida bu jarayon kuchaydi. Natijada **xorijiylik**, **shialik** va **sunniylik** deb ataluvchi yo‘nalishlar vujudga keldi.

Bugungi kunda musulmonlarning aksari sunniylik yo‘nalishidadir. VIII–IX asrlarga kelib esa sunniylik doirasida huquqiy maktablar (mazhablar) — **hanafiylik**, **molikiylik**, **shofe‘iylik** va **hanbaliylik** hamda ikki aqidaviy ta‘limot — **ash‘ariylik** va **moturidiylik** yuzaga kelgan.

Mazhablar shariat bilimdoni (faqih) tomonidan Qur‘on va sunnat asosida ishlab chiqilgan yo‘ldir. Ular o‘z asoschilari nomi bilan atalgan. Masalan, Abu Hanifa asos solgan mazhab — hanafiylik, Molik ibn Anas asos solgan mazhab — molikiylik deb atalgan. Mavjud mazhablar asosiy masalalarda bir-birini inkor etmaydi.



Toshkentdagi
«Minor» masjidi

«Men ming nafar shayxni topdim va ulardan hadis yozib oldim. Bu besh shayxdan faqihrog‘ini, taqvolirog‘ini, olimrog‘ini topmadim. Ularning eng birinchisi Abu Hanifadir».



**Yazid
ibn Horun**



Bugungi kunda dunyodagi taxminan 1,7 milliard musulmon aholining 92,5 foizini sunniylar tashkil etib, ular mazhablar bo'yicha quyidagi nisbatda bo'linadilar: hanafiyilar — 49%, shofe'iyilar — 25%, molikiylar — 17%, hanbaliylar — 1,5%.



Istehson (ar. yaxshi deb bilish) — islom huquqida ikki masaladan yengilroq tomonni tanlashga aytiladi.

Hanafiylik mazhabi asoschisi Abu Hanifa nomi bilan mashhur Nu'mon ibn Sobit Kufiy (699–767) hisoblanadi.

Ushbu mazhab o'z mohiyati, ta'limoti va qo'llagan uslubi bilan jamiyatda yuz berib turadigan har qanday savolga javob topa oladi. Bu shundan kelib chiqadiki, hanafiy mazhabi yangi vujudga kelgan diniy masalaning yechimi Qur'on va hadisda mavjud bo'lmasa, qiyos va uning eng muhim turi bo'lmish istehsonga tayanib ish olib boradi. Abu Hanifa og'ir vaziyatlarda odamlar uchun qulay sharoit yaratib berib, qiyinchiliklarini oson qilishga uringan. Abu Hanifa erkinlik tamoyilining homiysi edi, tijorat va boshqa sohalarida inson huquqi va erkinliklarini himoya qilib keldi.

Masalan, turmush qurishda erkak va ayolga teng huquq berilib, oqil va balog'atga yetgan qiz va ayollarni hech kim ularning roziligisiz nikoh qilishga majburlay olmaydi, nikoh shartnomasi qizning valiysi (ota, buva, amaki, aka, uka) bo'lmasa ham uning o'z so'zi bilan bog'lanadi.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo musulmonlarining aksari hanafiylik mazhabiga ergashadi. Ayni damda mazkur maktab Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Turkiya va qator Afrika mamlakatlarida keng tarqalgan.

Molikiylik mazhabi asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas 711-yilda tavallud topgan. Mazkur mazhabda birinchi manba Qur'oni karim, ikkinchi manba hadis hisoblanadi. Molikiylik mazhabida shar'iy masalalarda Madina hayoti va odatlari ko'p hollarda ustun turgan.

Molikiylik Marokash, Jazoir, Tunis, Bangladesh kabi mamlakatlarda asosiy mazhab hisoblanadi.

Shofe'iylik mazhabi asoschisi Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris Shofe' (767–804) Falastinning G'azo shahrida tugilib, 804-yili Misrda vafot etgan.

Shofe'iylik mazhabi fiqhiy hukm chiqarishda Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga suyanadi. Ular hanafiylar va molikiylarda mavjud bo'lgan istehsonni rad qiladilar.

Shofe'iylik, asosan, Indoneziya, Malayziya, Misr, Sudan, Keniya, Mali, Liviya kabi davlatlarda tarqalgan.

Hanbaliylik mazhabi asoschisi imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanbal (780–855) Bag'dod shahrida yashagan.

Hanbaliylik mazhabida Qur'on va sunnat asosiy manba hisoblanadi. Ijmo va sahobalarning gaplari keyingi o'rinlarda turadi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatishga ruxsat beriladi. Mazkur mazhab izdoshlari bo'yicha eng kamsonli hisoblanib, asosan, Saudiya Arabistoni, Yaman, BAA, Quvayt, Qatar davlatlari aholisi orasida tarqalgan.

Sunniylikdagi to'rtala mazhab bir-biri bilan teng hisoblanadi. Mazhablar an'anaviy diniy huquq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan farq qiladi.

*2017-yil iyuni-
da Prezidentimiz Shavkat
Mirziyoyev
topshirig'i bilan
Imom Moturidiy
majmuasida
«Kalom ilmi
maktabi»ni,
moturidiylik
ta'limotining
yirik vakili Abul
Mu'in Nasafiy
ziyoratgohida
esa «Aqoid mak-
tabi»ni tashkil
etish ishlari
boshlandi.*



Keyingi davrda paydo bo'lgan «soxta salafiylik», «Hizbut tahrir» kabi yo'nalishlarni fiqhiy mazhablarga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ular shar'iy masalalarda o'z mustaqil yechimlarini bergan tizimga ega emas. Ularga diniy-siyosiy harakat va noqonuniy siyosiy partiyalar sifatida qarash mumkin.

AQIDAVIY TA'LIMOTLAR

*Donishmand —
baqqolning
do'koniga
o'xshaydi:
borini indamay-
gina ko'rsatadi-
qo'yadi, nodon
esa lashkar
nog'orasining
o'zi: ovozi
baland-u, ichi
bo'm-bo'sh va
g'arib.*



*Sa'diy
Sheroziy*



*Abu Mansur
Moturidiy
maqbarasi*

Islom dinida Alloh taolo, uning sifatleri, insonlarning taqdiri, qiyomat, jannat va do'zax, gunoh va savob kabi aqidaviy masalalarni o'rganuvchi fan «kalom ilmi» deb ataladi. Milodiy VIII–IX asrlarda musulmonlar orasida yunon falsafasidan ta'sirlangan, Qur'on oyatlari va hadislarni noto'g'ri tushungan toifalar paydo bo'ldi. Ular goh Allohni insonga o'xshash tasvirlar, goh uning xususiyatlarini inkor etar, payg'ambarlar, Qur'oni karim sha'niga noloyiq fikrlarni bildirar edilar. Mana shunday sharoitda sunniylik yo'nalishi olimlari ayrim oqimlarning buzg'unchi g'oyalariga bir qator raddiyalar berganlar. Natijada moturidiya va ash'ariya ta'limotlari yuzaga kelgan. Sunniylik doirasida mazkur ikki yo'nalish ham to'g'ri hisoblanadi.

Moturidiya ta'limotiga movarounnahrlik olim, buyuk ajdodimiz Abu Mansur Moturidiy (870–944) asos solgan.

Moturidiy sof diniy aqida doirasidan chiqmagan holda aql-idrokni ulug'laydi va mantiqan asoslangan bilimning ahamiyatini alohida ta'kidlaydi.

Moturidiyga ko'ra, inson hayotiy imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda unga ushbu sinovlardan muvaffaqiyatli o'tish va to'g'ri yo'lni topish uchun keng imkoniyatlar ham berilgan. Inson o'z xatti-harakatlarini tanlashda ixtiyorlidir.

Buyuk alloma o'z qarashlari bilan hanafiylik ta'limotining Markaziy Osiyo xalqlari an'analari, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatib berdi. Eng



Moturidiya ta'limoti XI–XII asrlarda keng miqyosda rivojlangan. Ushbu davrlarda ta'limot nafaqat Movarounnahrda, balki Xuroson, Iroq, Misr va Shom o'lkalariga ham tarqala boshlagan.



Kalom ilmining sultoniga nisbatan hurmat-ehtirom, ixlos ramzi sifatida O‘zbekistonda 2000-yili Imom Moturidiy tavalludining 1130 yilligi keng nishonlandi, u kishi mangu orom topgan Chokardiza qabristonidagi maqbara qayta tiklandi.

e’tiborlisi, islom olamining aksariyat mintaqalarida, Suriya, Iroq, Turkiya, Pokiston, Hindiston, Shimoliy Afrika kabi mamlakatlarda moturidiylik ta’limoti hozir ham oliy, o‘rta va diniy o‘quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o‘qitib kelinadi.

Ash’ariya ta’limoti. Ushbu ta’limotga basralik Abul Hasan Ash’ariy (873–936) asos solgan. Imom Ash’ariy umrining yarmini adashgan oqimlarga qarshi kurashga bag‘ishlagan.

Ash’ariy Muhammad ibn Jarir Tabariy, Ibrohim ibn Ahmad Marvaziy, Mahmud ibn Dovud Isbahoniy, Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal, Abu Mansur Moturidiy kabi olimlar bilan bir davrda yashagan.

Ash’ariya ta’limoti ham sunniylik aqidasiiga muvofiq ta’limot hisoblanadi. Ushbu ta’limot ham, asosan, mo‘taziliya, qadariya, jabariya kabi adashgan guruhlarining aqidaviy g‘oyalariiga qarshi turgan. Ash’ariya ta’limoti, asosan, Iroqda, so‘ngra saljuqiylar hukmronligi davrida Xurosonda rivojlangan.



*Qadimiy Bog‘dod.
Abul Hasan
Ash’ariy butun
umrini shu shahar-
da o‘tkazgan.*



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sunniylik nechta fiqhiy mazhabdan iborat?
2. Kalom ilmi nimani o‘rganadi?
3. Mazhablarning yangi paydo bo‘lgan firqalardan farqi nimada?
4. Sunniylikdagi to‘rt mazhabning tarqalish hududlarini xaritada ko‘rsatib bering.

15-§ TASAVVUF VA TARIQATLAR



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tasavvuf tushunchasi haqida nimalarni bilasiz?
2. Toshkent viloyatidagi «Zangi ota», Buxorodagi «Hazrat Naqshband» ziyoratgohlari kimlarning sharafiga qurilganini bilasizmi?
3. Axloqiy tarbiya deganda nimani tushunasiz?



Tasavvuf — islom axloqi bilan bezanish uchun kerakli boʻlgan ilmlarni oʻrgatadigan soha sanaladi.

Soʻfiy esa tasavvuf bilan shugʻullanuvchi kishiga nisbatan ishlatiladigan atamadir. Ayni maʼnoda yana «solik» soʻzi ham ishlatiladi.

Tasavvuf tariqatlari. Koʻpincha, tasavvuf yoki tariqat deganda mashaqqatli hayot yoʻli, tarkidunyochilik qilish, zamonaviy fan yutuqlaridan voz kechish, mehnat qilmasdan faqat ibodat bilan shugʻullanish, oʻzini-oʻzi qiynash koʻz oldimizga keladi. Aslida ham shundaymi?

Aslini olganda tasavvufning chin mohiyati nafsni poklash, axloqni sayqallash, maʼnaviy kamolotga erishishdan iborat. Mazkur maqsadlarga erishish uchun olimlar tomonidan maxsus maktablar — tariqatlar tuzilgan.

«Tariqat» arab tilidagi soʻz boʻlib, «yoʻl» maʼnosini anglatadi. Tasavvufda esa bu muayyan yoʻlboshlovchi (murshid, pir) tomonidan Qurʼon va hadislar, sahobalarning yoʻl-yoʻriqlari asosida ishlab chiqilgan ruhiy poklanish yoʻli, metodi jamlanmasi hisoblanadi. Bugungi kunda tariqatlar soni koʻp boʻlib, ularning eng yiriklari Yassaviya, Kubraviya va Naqshbandiyadir. Eʼtiborlisi, ularning barchasi ona yurtimizda yuzaga kelgan.



Tasavvuf va unga oʻzakdosh boʻlgan soʻfiy, mutasavvif atamalarining kelib chiqishi arab tilidan «jun, yung» maʼnosini bildiruvchi «suf» soʻzidan olingan.



IJODIY FAOLIYAT

Tasavvufga berilgan ta'rifni o'qing. ta'rifdagi «yomon axloqlar» deganda nimani tushunasiz? Nima uchun bunday yomon axloqlardan qutulish kerak deb o'ylaysiz?

Tasavvuf — xuddi tibbiyot ilmi badan sog'lig'iga oid ma'lumotlarni o'rgatganidek, tasavvuf ham qalbning, ruhning yomon axloqlardan xalos bo'lishi yo'llarini o'rgatadi.

Movarounnahrda tasavvuf yo'nalishining vujudga kelishi shayx Abu Ya'qub Yusuf Hamadoniy (vaf. 1140–41-y.) shaxsi bilan bog'liq bo'lsa-da, XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviydir.

Yassaviya. Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yassida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan.

Ahmad Yassaviy o'zining «Devoni Hikmat» asarida ma'naviy poklanish, axloq, halollik, bag'rikenglik g'oyalarini she'riy uslubda bayon qilgan. Yassaviylikning o'ziga xos jihati oshkora uslubda zikr va duolar o'qish, dunyo lazzatlaridan qisman voz kechishda aks etgan. Yassaviylikka xos xususiyatlar keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan.

Kubraviya — Yassaviylik bilan bir asrda yuzaga kelgan tariqatlardan biri. Bu tariqatning asoschisi — Shayx Najmiddin Kubro Xivaqiy (1145–1221). U Xorazmdagi Xivaq shahrida dunyoga kelgan. Shayx Najmiddin Kubro kubraviya yoki «zahabiya» deb ataluvchi tariqatga asos solgan. Mazkur tariqatchilar orasida «xufiya» zikr qilish keng qo'llangan. Uning eng mashhur asari «Usuli ashara» bo'lib, u barcha tariqatlarga



Amir Temur qurdirgan Xoja Ahmad Yassaviy maqbarasi



Yassaviya tariqatida Allohni tanish (ma'rifa-tulloh), mutlaq javonmardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (ta-vakkul) va teran tafakkur muhim o'rin tutadi.



1221-yilning iyulida Chingizxonning lashkarboshilaridan biri Xulaguxonga qarshi 76 yoshli Shayx Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'playdi va Urganch qal'asini «Yo Vatan, yo shrofatli o'lim» shiori ostida bir necha kun dushmandan saqlab turadi. Mazkur jang paytida shayx Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vahshiyona o'ldiriladi.



Shayx Najmiddin Kubro maqbarasi

o'z ta'sirini ko'rsatgan. Najmiddin Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Kubraviya ta'limoti mo'g'ullar istilosiga bardosh bergan ta'limotlardan biridir. Bu ta'limot mo'g'ul qabilalari va hukmdorlarining islom dinini qabul qilishida katta ta'sir ko'rsatgan.

Naqshbandiylik XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan tasavvufiy tariqatdir.

Bahouddin Naqshband (1318–1389) — islom olamining eng mashhur avliyolaridan biri, Buxoro viloyatida tug'ilgan. Bahouddin Naqshbandning asl ismi — Muhammad. Otasining ismi ham Muhammad bo'lgan. Yoshligida otasi bilan birga kimxobga naqsh solish hunari bilan shug'ullangani uchun Naqshband laqabi bilan mashhur bo'lgan. «Bahouddin» so'zi «dinning nuri» degan ma'noni anglatadi.

Naqshbandiylik ta'limoti asosida «Qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin», degan shior yotadi. Bahouddin Naqshband tasavvufdagi ilgarilari amalda bo'lgan qattiq talablarni bir qadar yumshatdi va kundalik turmushga mosladi.



IJODIY FAOLIYAT

Mazkur hikmatni ma'naviy va moddiy hayot uyg'unligi tushunchasi bilan bog'lang:

«Qalbing Allohda bo'lsin-u, qo'l ish bilan band bo'laversin».



Bahouddin Naqshband vafotidan bir asrcha vaqt oʻtganidan keyin Abdu-rahmon Jomiy (1414–1492) birinchi marta bu tariqatni «**naqshbandiya**» deb atay boshladi.

Bahouddin Naqshband maqbarasi

Naqshbandiyada zohir (tashqi koʻrinish) va botin (ichki olam) oʻzaro ajratilgan. Bu soʻfiylikni xalq orasida oshkor etmaslik, boshqalardan ajralib turmaslik, xilvatga chekinmaslik, mehnat qilib kun koʻrishdan voz kechmaslik, oila, bola-chaqa boqish masʼuliyatini zim-maga olish, boshqalar (qul va choʻrilar) mehnatidan foy-dalanmaslik kabi ezgu tartib-qoidalarga qatʼiy amal qili-shni talab qiladi.

Naqshbandiya tariqatining asosiy tarbiya usuli suhbatdir. Naqshbandiyalar suhbatning foydasi koʻp, suhbat orqali inson qalbiga kirib borish mumkin, deb hisobla-ganlar. Bu tariqat quyidagi toʻrt tamoyil asosiga quril-gan: 1) shariat bilan xulq-atvorni poklash; 2) tariqat bi-lan qalbni poklash; 3) haqiqat bilan Allohga yetishmoq; 4) maʼrifat bilan Allohga erishmoq.

Oʻzbekiston mustaqillikka erishgach, tasavvuf ilmi sohiblarining nomlari abadiylashtirilib, ehtirom koʻrsa-tildi.

Hozirgi paytda dunyoning koʻp mamlakatlarida, Amerika Qoʻshma Shtatlaridan to Avstraliya arxipe-lagigacha boʻlgan hududda Bahouddin Naqshband va naqshbandiya tariqati maʼlum va hurmatli maqomga



ega. Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo‘l qo‘ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniy g‘oyalar va fazilatlarini ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o‘rtasida futuvvat — javonmardlik rishtalari paydo bo‘lishiga turtki bo‘lgan.

Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarni qayta tiklash jarayonida masjidlar, madrasalar va boshqa diniy tashkilotlar bilan bir qatorda tariqat vakillarining faoliyatiga ham alohida e‘tibor qaratildi. Jumladan, 2003-yili Abdulxoliq G‘ijduvoniyni 900 yilligi nishonlangan bo‘lsa, 2018-yilda allomaning 915 yilligi nishonlanishi belgilangan. Xuddi shunday, 1993-yili Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi keng ko‘lamda nishonlangan bo‘lsa, 2018-yilda 690 yillik yubileyi nishonlanadi. Bugungi kunda Buxorodagi Naqshband ziyoratgohida Bahouddin Naqshband yodgorlik majmuasi markazi, “Naqshbandiya tariqati” muzeyi hamda “Naqshbandiya” jurnali faoliyati yo‘lga qo‘yilgan.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Tasavvuf va tariqat so‘zlarining mazmunini aytib bering.
2. Movarounnahrda tasavvufning rivojlanishi qaysi allomaning nomi bilan bog‘liq?
3. Yassaviylik tariqati haqida gapirib bering.
4. Kubraviylik tariqatining o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
5. Naqshbandiylik tariqatining asosiy shiori mazmunini tushuntirib bering.
6. Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing, Naqshbandiya tariqatining asosiy tarbiya usuli — suhbat usuli bilan bog‘lang. Suhbatlashish madaniyatiga asoslanib fikr bildiring. Siz fikr bildirganingizda qanday qoidalarga amal qilasiz?

... *tilingni yaxshi hunar bilan o‘rgatgil va muloyim so‘zdan boshqa narsani odat qilmagil. Nedinkim, tilga har nechuk so‘zni o‘rgatsang, shuni aytur, so‘zni o‘z joyida ishlatgil, so‘z agar yaxshi bo‘lsa, ammo noo‘rin ishlatilsa, garchand u har nechuk yaxshi so‘z bo‘lsa ham yomon, nobop eshitilur. Shuning uchun behuda so‘zlamagilki, foydasizdur. Bunday befoyda so‘z ziyon keltirur va har so‘zki undan hunar isi kelmasa, bunday so‘zni gapirmaslik lozim.*

Kaykovus, «Qobusnoma»

16-§ O‘ZBEKISTONDA DINIY BAG‘RIKENGLIK VA IJTIMOYIY BARQARORLIK



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan rasmlarda xalqimizga xos qanday qadriyatlar uyg‘unlashgan?
2. Bag‘rikenglik deganda nimani tushunasiz?
3. Vatanimiz tarixidan bag‘rikenglik tamoyiliga oid ma’lumotlarni keltiring.
4. Ikkinchi jahon urushi yillarida o‘zbek xalqining bag‘rikenglik qadriyati qanday namoyon bo‘ldi?

Bugun O‘zbekiston diniy bag‘rikenglik, millatlararo totuvlik borasida butun dunyoga namuna bo‘lmoqda. O‘zbekiston xalqiga xos ushbu fazilat uzoq va murakkab tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Og‘ir sinovlarni boshidan kechirgan turli e‘tiqod vakillari qiyin vaqtlarda bir-birlarini qo‘llab-quvvatlab, o‘zaro yordam qo‘lini cho‘zganlar. O‘lkamiz tarixi turli din vakillari orasida diniy asosdagi nizolar chiqmaganligi bilan ajralib turadi.

Bundan deyarli 1,5 ming yil avval hozirgi Markaziy Osiyoni o‘z ichiga olgan G‘arbiy turk hoqonligi davrida (552–576) o‘lkada ma’lum bo‘lgan barcha

«...din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan».



**Islom
Karimov**

din vakillariga o'z e'tiqodlarini amalga oshirish uchun keng yo'l qo'yib berilgan.

VIII asr boshida Movarounnahrda islom dini kirib keldi. Bunda yangi diniy e'tiqod va mahalliy urf-odat, an'analar birlashib, boshqa musulmon mamlakatlaridan farqli o'ziga xos shaklni oldi. Keyinchalik shu o'lka ulamolari tomonidan keng rivojlantirilgan hanafiylik mazhabi mazkur urf-odatlarining Qur'on va hadislariga mos qismini diniy manba sifatida qabul qildi. Natijada diniy-ijtimoiy masalalarni hal qilishda «urf» fiqhiy manbalardan biri bo'lib qoldi.

Islom olamida kim musulmon, kim musulmon emas, degan tortishuvlar avj olgan bir paytda Markaziy Osiyo ulamolari islom dinini qabul qilib, o'zini musulmon sanagan kishini kofirlikda ayblash mumkin emas, degan qoidani islom dinining manbalari bilan asoslab berdilar. Islom dinining ushbu o'lkada keng tarqalgan mazhabi hanafiylikning bosh aqidaviy tamoyillari ana shunday bag'rikenglikka asoslangan.

Imomi A'zam Abu Hanifa (699–767) tomonidan boshlangan bunday bag'rikenglikning ilmiy-aqidaviy asoslari yurtimiz allomalaridan Imom Moturidiy (870–944), Abul Muin Nasafiy (1046–1115) kabi zotlar tomonidan davom ettirildi. Ular qoldirgan boy ilmiy meros asrlar osha musulmon mamlakatlar madrasalarida diniy



IJODIY FAOLIYAT

Ieromanax Xaritonning gapini o'qing va quyidagi savollarga javob bering.

1. Voqea qaysi davrga oid deb o'ylaysiz?
2. Xalqimizga xos bag'rikenglik qadriyatlarini tushuntiring.

«Mahalliy aholi bechora ko'chmanchi (rus dehqon)larga hamdardlik bilan mehribonlik qilishmoqda, aks holda ularning ko'pchiligi ocharchilik va muhtojlikdan o'lib ketgan bo'lar edi».

«Oramizda do'stlik rishtalari hamma sohalarda namoyon bo'lmoqda: har bir pravoslavning musulmon do'stlari mavjud bo'lgani kabi ruhoniylar va imomlar o'rtasida ham do'stlik aloqalari juda baland. Do'st-musulmonlarga tadbirkorlik sohasi yoki konstitutsiya bo'yicha yordam bilan murojaat qilinsa, albatta, so'ralgan narsani olamiz. Bizda ziddiyatlar u yoqda tursin, tushunmovchiliklar ham mavjud emas».

Mitropolit Vladimir



bag'rikenglikka asoslangan qo'llanmalar sifatida o'qitib kelindi va hozirgi kunda ham o'qitilmoqda.

XIII–XIV asrlarda mo'g'ullarga qarshi ozodlik kurashi jarayonida ushbu mintaqa aholisini birlashtiruvchi kuch sifatida yassaviya, kubraviya, naqshbandiya kabi so'fiylik tariqatlari shakllandi. Markaziy Osiyo tasavvuf namoyandalari vatanparvarlik, xalqparvarlik, tinchlik, barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qilgan islom dinining ilg'or vakillari sifatida obro'-e'tibor topdilar.

Buyuk sohibqiron Amir Temur e'tiqod va ma'naviyatning katta ahamiyatini to'g'ri idrok etgan edi. Sharafuddin Ali Yazdiy haqli ravishda Amir Temurni e'tiqodi komil inson sifatida ta'riflagan. Eng muhimi, sohibqiron Markaziy Osiyoda keng tarqalgan islomdagi birlashish va ajralmaslik tarafdori bo'lgan yo'nalish «ahli sunna va jamoa»ga doim sodiq, diniy aqidaparastlikka qat'iy qarshi bo'lgan. Amir Temur islom dini ni mutaassiblikdan xoli tushungan. Uning komil e'tiqodi boshqa dinlarni rad etish hisobiga bo'lmagan. Shu sababli ham u nafaqat o'z asri, balki keyingi davrlar uchun ham namuna bo'ldi.

Bugungi kunda mamlakatimizda ajdodlarimizning buyuk va ulug'vor mehnati hamda me'rosini o'zida mujassam etgan diniy qadriyatlar rivojlanmoqda. Yurtimizda faoliyat ko'rsatayotgan turli e'tiqod vakilla-

«Diniy bag'rikenglik va qonun ustuvorligi — bu ko'pmillatli davlat qurilishi lozim bo'lgan poydevorning bir qismidir».

**O'zbekiston
Bibliya jamiyati
ijrochi direktori
S.Mitin**



*Samarqanddagi
Avliyo Aleksiy
Moskovskiy sobori*



ri ham davlatimizning bu siyosatini to‘g‘ri tushunib, qo‘llab-quvvatlamodalar.

O‘zbekistonda din davlatdan ajratilgan bo‘lsa-da, e‘tiqod erkinligini ta‘minlash borasida davlatimiz tomonidan tartibli va tizimli ravishda qator ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2000-yilda — O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoniga binoan Toshkent va O‘rta Osiyo Arxiyepiskopi Vladimir dinlararo bag‘rikenglikni mustahkamlash borasidagi xizmatlari uchun «Do‘stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

Markaziy Osiyodagi musulmon va boshqa din vakillari o‘rtasidagi munosabatlar o‘zaro hurmat va bag‘rikenglikka asoslangan. Bugun respublikamizda 16 konfessiya vakillari emin-erkin faoliyat olib bormoqdalar. Murakkab tarixiy jarayonlar sinovlarini mardona yengib o‘tishlari natijasida shakllangan diniy



IJODIY FAOLIYAT

Ushbu matnni o‘qing va munosabat bildiring.

Odamlarni ayblamang, shunda siz ham ayblanmaysiz, aks holda, ularni qanday ayblagan bo‘lsangiz, siz ham shunday ayblanasiz. O‘zgalarning aybini qaysi qarichda o‘lchasangiz, sizniki ham o‘sha mezonda o‘lchanadi.

bagʻrikenglik muhiti mamlakatda tinchlik, taraqqiyot va farovonlikka xizmat qilmoqda. Chunki bu holatdan barcha din vakillari manfaatdordirlar. Mana shu oliyjanob maqsad yoʻlida barcha konfessiyalar yurtimizda va xorijda tashkil etilayotgan maʼnaviy va maʼrifiy tadbirlarda respublikamizda diniy bagʻrikenglik va ijtimoiy barqarorlikni yanada mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarni qoʻllab-quvvatlab kelmoqdalar.

Bugungi kunda Oʻzbekistonda har bir diniy konfessiya oʻzining diniy tashkilotiga ega boʻlib, diniy marosimlarini amalga oshirmoqda. Konfessiyalar oʻz faoliyatlarini Oʻzbekistonning «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar toʻgʻrisida»gi Qonuniga amal qilgan holda olib bormoqdalar.

XX asr bashariyat tarixiga ikkita jahon urushi sodir boʻlgan asr sifatida yozildi. Butun jahon afkor ommasi XXI asr — tinchlik asri boʻlmogʻi uchun kurashmoqda. Bu yoʻlda diniy bagʻrikenglik, dinlararo muloqot katta ahamiyat kasb etadi. Anʼanaviy diniy bagʻrikenglik oʻlkasi sifatida maʼlum va mashhur boʻlgan Oʻzbekiston bu jabhada ham oʻz vazifasini sharaf bilan ado etmoqda.



Fayoztepa — Oʻzbekistonda 2000 yil avval buddaviylik taraqqiy etganini koʻrsatadi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yurtimizda bagʻrikenglik muhiti yaratishda noislomiy konfessiyalarning oʻrni qanday?
2. Oʻzbekiston xalqiga xos diniy bagʻrikenglik asoslari qanday murakkab jarayonlar sinovlari natijasida yuzaga kelgan?
3. Yurtimizga katoliklik yoʻnalishi vakillarining kirib kelishi qaysi voqea bilan bogʻliq boʻldi?
4. Noislomiy konfessiyalarning mamlakatda ijtimoiy-maʼnaviy muhitni sogʻlomlashtirish jarayoniga qoʻshgan hissasi nimalarda namoyon boʻlmoqda?

17–18-§ YURTIMIZ MUTAFAKKIRLARINING JAHON ILM-FAN RIVOJIGA QO‘SHGAN HISSASI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘rta asr ilm-fan rivoji bugungi kundagi qaysi fanlarning takomillashuviga asos bo‘ldi? Bu o‘rinda yurtimiz mutafakkirlarining hissasi nimalardan iborat edi?
2. Qanday sharoitda ilm-fan rivojlanadi?
3. Markaziy Osiyodan chiqqan olimlar qanday fan sohalarida faoliyat yuritganlar?
4. Islom ilmlari deganda nimani tushunasiz?

AQL-ZAKOVAT BILAN BUNYOD ETILGAN BOY MA‘NAVIYAT

Yangi jamiyat va davlat qurishga qodir bo‘lgan avlod tafakkurining shakllanishida, millatning o‘zligini anglashida boy ilmiy, ma‘naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimiz g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Davlatimizning qanchalik tez ulg‘ayishi, kuch-quvvatga to‘lishi, dunyo hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rin egallashi, avvalambor, xalqimiz ma‘naviy saviyasi, g‘ururi va faxri nechog‘liq yuksak bo‘lishiga bog‘liq.

Asrlar davomida aql zakovat bilan bunyod etilgan boy ma‘naviyati tufayli xalqimiz mag‘rur yashadi,



Manbalarda buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino 17 yoshida Nuh ibn Mansur (976-997-yillar)ni davolayotgan vaqtida «Dor ul-ulum» — «Bilimlar uyi» nomi bilan ham atalgan saroy kutubxonasidan foydalangani haqida xabar beriladi.



Muhammad ibn Muso Xorazmiy algebra faniga asos soldi, ilmiy ma'lumot va traktatlarni bayon etishning aniq qoidalarini ishlab chiqdi, u astronomiya, geografiya va iqlim nazariyasi bo'yicha ko'plab ilmiy asarlar muallifidir.

mehnat qildi, doimo hurriyat va erk sari intildi. Ana shu milliy ong, milliy g'urur bugungi hayotimizning oltin poydevoridir.

Bu poydevorga buyuk allomalarimiz Beruniy va Forobiy, Moturidiy, Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Zamaxshariy, Buxoriy, Imom Abu Iso Termiziy, Hakim Termiziy, Navoiy va Ulug'bek kabi yuzlab ulug' zotlar asos solganlar.

Islom dini tabiat ilmlari, psixologiya, tarix, geografiya, sotsiologiya, biologiya, umuman, insoniyat uchun kerakli bo'lgan har qanday ilmni o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi.

Islomning ilm-fanga ijobiy munosabati natijasida islom dunyosida o'rta asrlarda ilm-fan keskin rivojlanib, butun jahon taraqqiyotiga katta hissa qo'shdi.

IX–XII asrlar Islom renessansi davri — Imom Buxoriy, Termiziy, Abu Mansur Moturudiy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Burxonuddin Marg'noniylarning jahon ilmiga qo'shgan ulkan xizmati davri Ma'mun akademiasining Xorazmdagi faoliyati bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchi bosqichi — Temuriylar renessansi davri XIV–XVI asrlarga to'g'ri keladi. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzolarining ilm-fan, madaniyat rivojidadagi xizmatlari beqiyosdir. Osiyoda IX–XII va XV asrlarda ro'y bergan ilm-fan, falsafa, adabiyot sohasidagi rivojlanish Yevropa renessansiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Zamonaviy matematika, trigonometriya va geografiya fanlari taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan mashhur alloma **Muhammad ibn Muso Xorazmiy**dir. U o'nlik pozitsion hisoblash tizimini, nol belgisi va qutblar koordinatalarini birinchilardan bo'lib asoslab berdi va



IJODIY FAOLIYAT

1. Quyida berilgan rasmlarga diqqat bilan qarang. O'рта asrlarda ushbu chizmalarni chizish va tafakkur qilish uchun qanday bilimlarga ega bo'lish kerak edi?
2. 5-rasmdagi manzarani Buxorodagi Ulug'bek madrasasining peshtoqiga yozilgan hikmat bilan izohlang.
3. Abu Ali ibn Sinoning XIV asrda Italiyada nashr etilgan «Tib qonunlari» kitobiga ishlangan gravyuraga qarab dunyo tibbiyot ilmning rivojlanishiga ibn Sino qo'shgan hissasini ko'rsating.



Qiblani aniqlash chizmasi. VIII asr. Muhammad ibn Muso Xorazmiy



Usturlobning bir qismi. X asr. Ibn Iroq



Siqib chiqarilgan suvning aniq hajmini aniqlash idishi XI asr. Beruniy



Tibbiyot anjomlari, XI asr



Ulug'bek shogirdlari bilan. Miniatura, XVI asr



Abu Ali ibn Sinoning XIV asrda Italiyada nashr etilgan «Tib qonunlari» kitobiga ishlangan gravyura



Ahmad Fargʻoniy tomonidan qurilgan Nil daryosida suv sathini oʻlchaydigan inshoot. Tashqi va ichki koʻrinishi. IX asr

amaliyotga tatbiq etdi. Bu esa matematika va astronomiya fanlari rivojida keskin burilish yasadi.

Allomaning dunyo ilm-fani rivojidagi xizmatlari umumeʻtirof etilgan boʻlib, Sharq olimlari orasida faqat uning nomi va asarlari «*algoritm*» va «*algebra*» kabi zamonaviy ilmiy atamalarda abadiylashtirildi.


Sharq Uygʻonish davri oʻziga xos iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy va ilmiy muhitni qamrab olganki, ushbu davrning «Uygʻonish davri» deb atalishi ham aslo bejiz emas.

IX asrda *Ahmad Fargʻoniy* «Astronomiya asoslari» asarida olamning tuzilishi, yerning oʻlchovi haqidagi dastlabki maʼlumotlar, sayyoramizning sharsimon koʻrinishga ega ekanligiga dalillar keltiriladi. Kitob XVII asrga qadar Yevropa universitetlarida astronomiya boʻyicha asosiy darslik sifatida oʻqitilgan. Buyuk geografik kashfiyotlar davrida Kolumb, Magellan va boshqa sayohatchilarning kashfiyotlari uchun ilmiy asos boʻlib xizmat qilgan. Ahmad Fargʻoniy oʻrta asrlardagi asosiy astronomik asbob — usturlob nazariyasini ishlab chiqqan. Nil

XI asr butun dunyodagi tabiiy fanlar tarixchilari tomonidan «Beruniy asri» deb ataldi.



Abu Rayhon Beruniy Kolumb sayohatidan 500 yil oldin Tinch va Atlantika okeanlari ortida qitʼa mavjudligi haqidagi qarashni ilgari surdi.



Abu Ali ibn Sino-ning XV asrda Yevropada chop etilgan «Tib qo-nunlari» kitobi

daryosida nilometr — suv sathini o‘lchaydigan asosiy vosita sifatida qo‘llaniladigan mashhur inshootni yaratgan.

Abu Nasr ibn Iroq — «Ikkinchi Ptolomey» deb nom olgan buyuk alloma. Ibn Iroq fazoviy trigonometriya-ning asoschisidir. U matematika va astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan shuhrat qozongan.

Abu Rayhon Beruniyning 150 dan ziyod ilmiy ishlaridan bizgacha faqat 31 tasi yetib kelgan. Beruniy dunyo ilm-fanida birinchilardan bo‘lib dengizlar nazariyasi va yerning sharsimon globusini yaratish yuzasidan o‘ziga xos yangi g‘oyalarni taklif etdi. Yer radiusini hisoblab chiqdi, vakuum, ya’ni bo‘shliq holatini izohlab berdi. Minerallar tasnifi va ularning paydo bo‘lishi nazariyasini ishlab chiqdi, geodeziya faniga asos soldi.

Abu Ali ibn Sino — «Islom olamining eng mashhur faylasufi va qomusiy allomasi hamda insoniyatning eng buyuk mutafakkirlaridan biri» degan unvonga sazovor bo‘lgan. U ilmiy tadqiqot ishlarini 16 yoshida boshlagan. Umri davomida 450 dan ortiq asar yaratgan. Ibn Sino-ning tibbiyot va falsafa, mantiq, kimyo, fizika, astronomiya, matematika, musiqa, adabiyot va tilshunoslik sohalariga bag‘ishlangan asarlari dunyo olimlari tomonidan e’tirof etilgan. Leonardo da Vinchi, Mikelanjelo, Frensis Bekon va boshqa ko‘plab olimlar avlodi uning asarlarini o‘qib hayratga tushganlar.



IJODIY FAOLIYAT

1. 2014-yil 15–16 may kunlari Samarqand shahrida qanday xalqaro anjuman bo‘lib o‘tdi? Anjumanning maqsadi nimalardan iborat edi?
2. Yurtimiz allomalarining dunyo ilm-fani ravnaqiga qo‘shgan hissalarini haqida fikr bildiring. O‘sha davrda dunyoning boshqa mamlakatlaridagi ilm-fanga munosabat masalasiga ham e’tibor bering.



IJODIY FAOLIYAT

1. Quyidagi xalq maqolini o‘qing va yurtimiz mutafakkirlarining turli sohalaridagi ilmlarni egallashi uchun qancha mashaqqat chekkanlarini aytib bering.
«Ilm bilan shug‘ullanish — igna bilan quduq qazish bilan barobar».
2. Siz o‘z oldingizga ilm va hunarning qaysi sohalarini egallashni maqsad qilib qo‘ygansiz? Maqsadingizga erishish uchun qanday harakat qilmoqdasiz?
3. Berilgan rasm asosida Sharq uyg‘onish davri haqida hikoya qiling.



*Ozad Xabibullin,
«Sharq allomalari».*

Abu Ali ibn Sinoning «Tib qonunlari» deb atalgan bebaho fundamental asari hozirgi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Bu kitob Yevropada XV asrda chop etilgan tibbiyot sohasidagi dastlabki kitoblardan biridir. Qariyb 500 yil davomida Yevropaning yetakchi universitetlarida tibbiyot ilmi ayni shu asar asosida o‘qitib kelingan.

Islom ilm olish har bir erkag-u ayolga farz, deb ta’lim beradi. Har bir musulmon erkak va ayolni ilm olishga undaydi. Ilm olish va olimlarning fazilatlarini borasida ko‘plab hadislar keltirilgan.



O‘rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining qo‘lyozmalari Yevropa va Osiyoning Buyuk Britaniya, Germaniya, Ispaniya, Rossiya, Fransiya, Misr, Hindiston, Eron va boshqa ko‘plab mamlakatlardagi kutubxonalarining «oltin fond»ini tashkil etadi.



TARIXGA NAZAR

VIII asrning oxirlaridayoq Buxorodagi imom Abu Hafs Kabir Buxoriy (767 — 832) madrasasida katta kutubxona, maxsus qi-roatxona mavjud bo‘lgan.

Barcha fanlar bir-biri bilan shu qadar chambarchas bog‘lanib ketganki, ularni bitta-bittalab o‘rganishdan ko‘ra, birvarakayiga o‘zlashtirish osonroq.

Rene Dekart



Ma‘mun akademiyasi. Olimlar mashvarati

Yurtimiz allomalari diniy bilimlar bo‘yicha ham yetuk darajaga erishganlar. Masalan, Ibn Sino, Mahmud Zamaxshariy, Forobiy, Beruniylar Qur‘on, hadis, islom tarixi va huquqshunosligi bo‘yicha ham asarlar yozganlar.

Musulmon olamidagi dastlabki o‘quv dargohlari — madrasalar VIII asrning oxirlarida o‘sha davrdagi ilmiy-madaniy markazlar hisoblangan Buxoro, Samarqand, Nasaf, Termiz, Xiva, Shosh (Toshkent), Marg‘ilon kabi qadimiy shaharlarda faoliyat ko‘rsata boshlagan.

Bunday ilm dargohlari o‘zining natijasini ko‘rsatib, yurtimizdan buyuk mufassirlar va muhaddislar yetishib chiqdilar.

O‘lkamizdan chiqqan dastlabki muhaddislardan biri mashhur olim **Abdulloh ibn Muborak Marvaziydir** (736–798). Yana bir yurtdoshimiz, yirik muhaddis **Imom Dorimiy** (798–869) Samarqandda tavallud topgan. Allomaning eng mashhur asari «al-Musnad» bo‘lib, bu asar «Sunan ad-Dorimiy» nomi bilan mashhur.

Muhammad (s.a.v.)ning olti yuz mingga yaqin hadislarini yodida saqlagan buyuk alloma **Imom Buxoriy**



«Hadis ilmining sultoni» degan sharafli unvonga sazovor boʻlgan. Buyuk muhaddisning «al-Jome as-Sahih» asari Qurʼoni karimdan keyingi oʻrinda turadigan ikkinchi muhim manba sifatida islom olamida yuqori bahoga sazovor boʻlib kelmoqda.

Imom Buxoriyning shogirdi va doʻsti boʻlish sharafiga muvassas boʻlgan zotlardan biri **Abu Iso Muhammad Termiziy** (824–892). Imom Termiziy asarlarining

*Imom Buxoriy
maqbarasi*



IJODIY FAOLIYAT

1. «Imom Buxoriyning imtihon qilinishi» hikoyasini oʻqing. Uning noyob isteʼdodi haqida mushohada qiling.
2. Xotirani mustahkamlash uchun qanday mashqlar zarur? Siz xotirangizni mustahkamlash uchun qanday mashqlar bajarasiz? Kitob oʻqish va yod olish xotirani mustahkamlaydi, degan fikrga qoʻshilasizmi?

IMOM BUXORIYNING IMTIHON QILINISHI

Bir kuni Imom Buxoriyning Bagʻdodga kelganini eshitgan olimlar u kishini imtihon qilib koʻrmoqchi boʻldilar. Bagʻdod muhaddislari yuzta hadisni tanlab olib, ularning matn va isnodlarini oʻzgartirdilar (yaʼni bir isnod matnini ikkinchi bir isnod matni bilan va bir matn isnodini boshqa matn isnodi bilan almashtirib qoʻydilar). Soʻng ularni oʻn kishiga oʻntadan boʻlib berdilar-da, yigʻin vaqtida Imom Buxoriyga aytishni tayinladilar. Yigʻinga minglab xurosonlik, bagʻdodlik va boshqa olimlar kelishdi. Boyagi kishilar oʻzlariga topshirilgan hadislarni Imom Buxoriyga aytib, ular xususida soʻradilar. Shunda Imom Buxoriy ularning har biriga: «Bunday hadisni bilmayman», — deb javob berdi. Savollar tugaganidan soʻng birinchi boʻlib savol bergan kishiga oʻgirildi-da: «Ammo, sen aytgan birinchi hadisning matni boshqa bir hadis isnodiga taalluqli boʻlib, toʻgʻrisi mana bunday, ikkinchisining isnodi esa boʻlak hadis matniga tegishli boʻlib, toʻgʻrisi mana bunday...» — deya savol bergan 10 kishiga javob berdi. Barcha hadislarning isnod-u matnlarini joy-joyiga qoʻyganiga qoyil qolgan odamlar u kishining xotirasi, aql-u zakovatiga tan berib, chuqur izzat-ehtirom bildirdilar.



Imom Buxoriydan: «Shuncha Hadisni qanday xotirangizda saqlab qoldingiz?» — deb soʻraganlarida, «Men barcha oʻrganagan ilmlarga amal qildim», deb javob bergan ekan.

ichida eng mashhuri «al-Jome as-sahih» boʻlib, u oltita ishonchli hadislar toʻplamidan biri hisoblanadi.

Movarounnahrda chiqqan buyuk allomalar islom shariati — **fiqh** sohasida ham peshqadamlardan boʻlganlar. Mana shunday buyuk faqihlardan biri **Burhoniddin Margʻinoniy** (1123–1197)dir. Uning «Hidoya» nomli asari yaratilgan davridan to hozirgacha Sharq va Gʻarbning oʻquv yurtlarida islom shariatini oʻrganishda asosiy asarlardan biri sifatida foydalaniladi.

Oʻrta asrlarda faoliyat koʻrsatgan mashhur olim imom **Abu Mansur Moturidiy** (870–944) kalom ilmida yuksak darajaga erishganlardan biridir. Moturidiya taʼlimoti uning nomi bilan bogʻliq. Abu Mansur Moturidiy islom olamida «Musulmonlarning eʼtiqodini tuzatuvchi» degan yuksak sharafga sazovor boʻlgan.

Xorazm diyori ham islomiy ilmlar rivojlanishiga katta hissa qoʻshgan boʻlib, bu diyordan yetishib chiqqan allomalardan eng buyugi **Mahmud Zamaxshariydir**. Jismoniy nogironligiga qaramasdan, bu zot ilm talabida oʻz umrining aksar qismini uzoq mamlakatlardagi safarda, musofirchilikda oʻtkazdi. Makkada olti yilga yaqin yashadi. Shu bois «Jorulloh» («Allohning qoʻshnisi») degan yuksak maqomga sazovor boʻldi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Tinchlik va barqarorlik ilm-fan taraqqiyotiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi», degan iborani hayotiy misollar asosida sharhlab bering.
2. Maʼmun va Mirzo Ulugʻbek akademiyalarida faoliyat koʻrsatgan olimlar fanning qaysi sohalarida izlanishlar olib borgan edilar?
3. Temuriylar Renessansi davri — XIV–XVI asrlarda yashab ijod etgan olimlarning ilm-fan, madaniyat va sanʼat, adabiyot kabi fanlarning rivojiga qoʻshgan hissasi haqida maʼlimot toʻplang.

19-§ DIN VA «OMMAVIY MADANIYAT»



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ommaviy madaniyat deganda nimani tushunasiz?
2. Ommaviy madaniyatning jamiyat rivojiga ta'siri bormi?
3. Qo'shtirnoq ichidagi «ommaviy madaniyat»ni siz qanday tushunasiz?
4. «Ommaviy madaniyat»ning jamiyat ma'naviyatiga ta'siri qanday, uning xavfli tomonlari bormi? Fikringizni asoslang.

«OMMAVIY MADANIYAT» TUSHUNCHASI

Bugun shiddat bilan rivojlanayotgan tezkor zamonada yashayapmiz. Har tomondan axborot xuruji, turli chalg'itishlar, nomaqbul va xatarli ma'lumotlar bilan yoshlarimiz ong-u tafakkurini egallashga intilishlar mavjud... Ana shunday tahdidlardan biri «ommaviy madaniyat»dir.

«Ommaviy madaniyat» degan niqob ostida axloqiy buzuvchilik va zo'ravonlik, individualizm, egotsentrizm g'oyalari tarqatishga qaratilgan, boshqa xalqlarning necha ming yillik an'ana va qadriyatlari, turmush tarzining ma'naviy negizlariga bepisandlik, ularni qo'p o'qishga qaratilgan xatarli tahdidlar, harakatlarni tushunish mumkin.

Bunday g'arazli g'oyalarni tarqatadigan guruhlarining asl maqsadi boshqalar hisobidan boylik orttirishdir.

«OMMAVIY MADANIYAT»NING MAQSADI

«Ommaviy madaniyat»ning maqsadi, avvalo, iqtisodiy boylik orttirish, odamlarni bir-biriga qara-

*Ey, mardlar,
xotinlar kiyimini
kiymaslik uchun
g'ayrat qilingiz.*



*Sa'diy
Sheroziy*



Ommaviy madaniyatning ijobiy tomonlari

ma-qarshi qo'yib, bir-birini va shu bilan birga o'zini o'zi o'ldirishigacha olib borishdan iborat. Natijada esa uning tarqatuvchilari dunyo va undagi boyliklarga yagona hukmron bo'lib qolishni xohlaydilar.

Siz tengi o'smirlar, yoshlar tengqurlariga havasmand, yangiliklarni tez o'zlashtirishga intiluvchan bo'ladingiz. Ulardagi ana shu ijtimoiy-psixologik holat, ko'pincha, soxta qadriyatlar ta'siriga berilib qolishlariga sabab bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda axloqsizlikni madaniyat va aksincha, asl ma'naviy qadriyatlarni mensimasdan, eskilik sarqiti deb qarash bilan bog'liq holatlar taraqqiyotga, inson hayoti, oila muqaddasligi va yoshlar tarbiyasiga katta xavf solmoqda. Bunga misol tariqasida bir jinslik nikohlar, nikohsiz yashash, befarzand o'tish, ya'ni farzandni ortiqcha muammo deb hisoblash, qiyofasini g'ayrioddiy shakllarga solish (badanga igna bilan turli suratlar va shakllar berish), o'z joniga qasd qilishni qahramonlik deb bilish kabi salbiy oqibatlarni keltirishimiz mumkin. Bunday holatlarga barcha dinlar qat'iy qarshidir.

Umuminsoniy qadriyatlarga zid kiyimlarni kiyish «ommaviy madaniyat»dir. Masalan, tizzasi yoki pochasi yirtilgan, manmanlik belgisi sifatida tor va uzun, beli



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o'qing va «ommaviy madaniyat» xavfsizlik uchun qanday tahdid solishi mumkinligiga misollar keltiring.

XXI asrning xalqaro munosabatlar va milliy xavfsizlik nuqtayi nazaridan alohida ajralib turadigan tomoni — globallashtirish sharoitida yangidan yangi qarama-qarshiliklar yuzaga kelib, ular milliy xavfsizlik uchun yangi tahdidlarni keltirib chiqardi.

yoki qorni ochilib turadigan kiyimlarni kiyish shular jumlasidandir.

Islom dinining muqaddas manbayi Qur’oni karimda Xudo tomonidan insonlarning xushbichim va xushsurat yaratilganligi alohida ta’kidlanadi. Shuningdek, islom ta’limotida inson jismini pok tutishi, toza va xushbo’y bo’lishiga targ’ib va tashviq qilinib, go’zallik belgilangan chegaradan chiqmasligi ham alohida zikr etilgan.

«Ey Odam bolalari, batahqiq, sizlarga avratingizni to’sadigan libos va ziyarat libosini nozil qildik. Taqvo libosi, ana o’sha yaxshidir. Ana o’shalar Allohning oyat-belgilaridandir. Shoyadki eslasalar». (Libosning zaruri avratni pinhon tutadiganidir. Lekin Alloh insonning avratdan boshqa a’zolarini ham to’sish ehtiyoji borligini inobatga olib, libosni ziynat tarzida nozil qildi. Xuddi shunday libosni o’z o’rnida, ya’ni shariatga muvofiq foydalangan inson ziynatli hisoblanadi. Ammo eng asosiy libos – taqvo libosi.)

A’rof surasi, 26-oyat



Keyingi vaqtlarda tatuaj, rastushovka, tatuirovka (tanaga rasm soldirish) odat tusiga kirib bormoqda. Bu jarayonlar ham og’riqli, ham insonlarning sog’lig’i uchun zararlidir.

«**Tatuaj**», «**Rastushovka**» jarayoni haqida soha mutaxassislari o’z fikrlarini bildirganlar. Tatuaj — permanent pardoz, ya’ni yuzdagi a’zolar — qosh, ko’z va labni uzoq vaqtgacha ketmaydigan qilib bo’yab, pardoz berish demak. Permanent pardozda sanab o’tilgan a’zolarining terisiga tatuaj uchun mo’ljallangan igna yordamida maxsus bo’yoq yuboriladi. Bu pigmentlarning uzoq vaqt ushlanib turishini ta’minlaydi. Permanent pardoz muolajasi og’riqli bo’lib, bir-ikki soatga cho’ziladi.

Ammo soxta zebning inson organizmi uchun zararlari tuzatib bo’lmas asoratlarga olib kelishi ham mumkin.



Tatuirovka asboblari bilan gepatit B, S hamda OIV infeksiyasini yuqtirib olish juda oson.

Tatuirovkasi bor insonlarning gepatit S kasalligiga chalinish xavfi oddiy odamlarga qaraganda 9 baravar yuqori bo'ladi.



Gotlar

Qosh tatuaj qilinganda qoshlar ildizining yo'q bo'lishiga olib kelib, ularning to'kilishiga sabab bo'ladi. Ko'zlarga tatuaj qilinganda esa ko'zning ko'rish qobiliyatiga, qovoq terilarining sezuvchanligiga salbiy ta'sir etadi. Lablar tatuaj qilinganda og'iz atrofida shishlar paydo bo'ladi. Bu muolajalarda igna bilan teri teshilgani bois organizm turli infeksiyalarga beriluvchan bo'lib qoladi. Teri teshiklariga esa turli kimyoviy bo'yoqlar kiritilishi allergiya kasalliklarini keltirib chiqaradi.

«Tatuirovka» igna bilan asab tomirlariga zarar yetkazib, tanaga surat soldirishdir. Bu og'riqli jarayon bo'lib, inson o'z-o'ziga shikast yetkazadi. Soha mutaxassislari-ning ta'kidlashicha, «tatuirovka» qildirgan insonlarda 20 dan ortiq kasallikka chalinish ko'rsatkichi yuqori bo'lar ekan. ***Tatuirovka bo'yog'i tarkibida saratonni yuzaga keltiradigan omillar mavjud.*** Bo'yoqlar tarkibida inson organizmi uchun zararli bo'lgan metallar, ya'ni ***simob sulfidi, xrom, kadmiy, qo'rg'oshin, titan, aluminiy, kobalt*** kabi unsurlar bor.

«*Mycobacterium haemophilum*» bakteriyasi sil va moxov kasalligini chaqiradi, odamlarda immun tizimini sustlashtiradi. Bu bakteriya esa faqat tatuirovka chizdirgach yuzaga keladi. Xristianlik dinining muqaddas kitobida ham tatuirovkalar qilish qoralanib, badanni tilmaslik, teriga o'yib narsa yozmaslik uqtiriladi.

«Ommaviy madaniyat»ning yana bir korinishi «**Gotlar**»dir. «Gotlar» (ingliz tilidan «goths» — gotlar, varvarlar, madaniyatsiz odamlar, johil va nodonlar deb tarjima qilinadi) axloqsizlik, g'ayriinsoniylik kabi illatlarni targ'ib qiluvchi submadaniyat bo'lib, XX asrning 70-yillari oxirida Buyuk Britaniyada paydo bo'lgan. Xususan, 1982-yilda «Betkav» klubining ochilishi got hayot tarzini targ'ib qilishda katta o'rin tutgan. Aynan ularning faoliyati natijasida gotik-rok musiqiy janri yu-

zaga kelib, ingliz yoshlari orasida mashhur bo‘la boshlagan. «Gotlar» harakatining asosiy g‘oyasi o‘limni romantiklashtirish, iztirob, azob-uqubat, ifloslikdan rohatlanishdan iboratdir. Mazkur **submadaniyat** vakillari qora rangga asoslangan imijga tayanadilar, gotik musiqaga qiziqadilar, bugungi kun bilan yashaydilar. Gotlar pozitiv his-tuyg‘ulardan zavqlanish o‘rniga, ruhiy azoblanish, umidsizlik va ruhiy alamdan lazzatlanadilar. Gotlarni ko‘cha-ko‘yda tanib olish mushkul emas.

Yuqorida qayd etilganidek, mazkur submadaniyat vakillari qora rangga asoslangan «dress-kod»ga amal qiladilar. Jumladan, gotik kiyinish uslubining asosiy elementlari — liboslarda qora rang ko‘p bo‘lishi, metallardan ishlangan turli bezaklarni ishlatishdir. Yuqorida keltirilgan misollar ko‘rsatmoqdaki, «ommaviy madaniyat» insonni manqurtga aylantiradi. U o‘zining «men»ligini yo‘qotadi. Uning uchun qadrlil narsalar qolmaydi, otana, farzand, qadriyat kabilarni tan olmaydi.

Jamiyatda hech narsani qadrlamaydigan insonlarning ko‘payib ketishi davlatni inqirozga olib keladi. Natijada befarq odamlar ko‘payadi, milliy qadriyatlarga, ma’naviyatda putur yetadi.

Sizlar Xudoyingiz — Egamizning farzandlarisizlar, o‘lganlar uchun o‘zingizni kesmang, sochingizning oldini qirqmang.

**Qadimgi Ahd
(Ikkinchi qonun, 14:1).**



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Ommaviy madaniyat» insonning hayotiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Adabiyot fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, «manqurt» tushunchasining jamiyat rivojiga ta’siri haqida fikr yuriting.
3. Diniy ta’limotlarning «ommaviy madaniyat»ga munosabati qanday?
4. Siz nima uchun «ommaviy madaniyat»ni qoralaysiz? Fikringizni asoslang.
5. Berilgan xalq maqolini «ommaviy madaniyat» bilan bog‘lab tushuntiring: «*Barcha yaltirab ko‘ringan narsalar oltin bo‘lavermaydi*».
6. Berilgan rasmlarda tasvirlangan holatlar umuminsoniy qadriyatlarga qanday putur yetkazadi?

20-§ KSENOFOBIYA VA DIN



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Ksenofobiya, xristianofobiya, yudofobiya, islamofobiya degan atamalarni eshitganmisiz?
2. Insonga xos bo'lgan qo'rquv holatiga qanday hodisalar ko'proq sabab bo'ladi?
3. Qo'rquvni yengish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Biologik qo'rquv bilan sun'iy qo'rquvning farqi nimada?

Ksenofobiya — (yunon. *ksenos* — begona; *phobos* — qo'rquv) yunon tilida birorta «begona», «notanish» bo'lgan narsa yoki tushunchadan «qo'rqish» ma'nosini anglatadi.

Tibbiyotda bu so'z insondagi «notanish shaxs, narsa, hodisa va boshqalardan qo'rqish» yoki ulardan «nafratlanish» tuyg'ularini bildiradi. O'zi uchun begona bo'lgan narsalardan yotsirab qo'rqish, ayniqsa, yosh go'daklarda yaqqol namoyon bo'ladi.

Notanish narsa va hodisalardan ehtiyotkorlik yuzasidan begonasirab, ulardan yetishi mumkin bo'lgan xavf-xatardan qo'rqish insondagi o'z-o'zini himoya qilish xususiyati bilan bog'liq bo'lib, odatda, sog'lom insonda kuzatiladigan holatdir. Bu kabi o'z hayoti, nasli, turini begona va noma'lum xavf-xatardan himoyalash, biologik qo'rquv hissiyoti hayvonlarda ham mavjud.



«Biz, shuningdek, dunyoning turli joylarida antisemitizm va islamofobiyaning kuchayganini, yahudiy, musulmon arab jamoalariga nisbatan zo'ravonlik, irqchilikni targ'ib qiluvchi hamda ularni kamsituvchi g'oyalarga asoslangan ayirmachilik harakatlarining paydo bo'layotganini chuqur tashvish bilan tan olamiz».

«Irqi kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risidagi deklaratsiya»ning 61-moddasi

Ksenofobiya bu tabiiy bo‘lmagan, insondagi biror notanish narsaga nisbatan haddan ortiq nafrat hissining yuzaga kelishi, asab tizimining izdan chiqishi holatidir.

Insondagi ushbu psixologik xususiyat har qanday yangilikni, u yaxshi yoki yomon bo‘lishidan qat’i nazar, undan hadiksiragan holda qabul qilishdan iborat. Masalan, yangilik kashfiyotchilaridan Galileo Galiley (1564–1642), Nikolay Kopernik (1473–1543) kabi olimlarning olamshumul ixtirolariga bo‘lgan munosabatni olishimiz mumkin. XIX asrda mahalliy xalqlar o‘rtasida «Tunuka tom yopilgan uyga farishta kirmaydi», «kartoshka — musulmonning taomi emas» kabi mutaassibona fikrlar tarqalgan. Bu masala haqida gapirilganida kulib qo‘yasiz. Ammo hozirgi XXI asrdagi sivilizatsiya jarayonlarining jadallashuvi davrida insonlar orasida ijobiy yangilikka nisbatan qo‘rquv hissi yo‘qolmaydi. Qo‘rquvning obyekti o‘zgaradi, xolos.



TARIXGA NAZAR

AQSHda XIX asrda yuzaga kelgan «Ku-kluks-klan» guruhi qora tanlilarga qarshi oq tanlilar millatchiligi sifatida yuzaga kelgan edi. Bu guruh tomonidan qora tanlilarga nisbatan o‘tkazilgan tazyiq va terrorchilik harakatlari natijasida jamiyatda anchagina notinchliklar kelib chiqdi. «Oq irqchilik» nomi bilan mashhur bo‘lgan bu yashirin jamoa AQSHda 1861–1865-yillardagi fuqarolar urushidan keyin janublik sobiq askarlar tomonidan tashkil etilgan edi. Ular tomonidan nishonga olingan qora tanli «qurbon»ga dub daraxti shox-butog‘i yoki apelsin urug‘lari tashlab ketilar edi. Bu belgini olgan qora tanli kishi aytilgan ishni qilishi yoki mamlakatni tashlab chiqib ketishi kerak edi. Aks holda uni muqarrar o‘lim kutar edi.

Ку Клуks Клан. Белое движение в США. — Москва, 2001; McVeigh, Rory.





*Ksenofobiya irqiy
yoki diniy kamsi-
tishlarga sabab
bo'ladi.*

Diniy ksenofobiyadan tashqari etnik, milliy, irqiy ksenofobiya turlari mavjud. Biror xalqqa (etnosga) nisbatan hadixsirash, qo'rquv bilan qarash va shu qarashlar bilan bog'liq xatti-harakatlar etnik ksenofobiyaning bir ko'rinishidir.

Hozirgi kunda ommaviy axborot vositalarida «terrorizm» va «islom» so'zlari juda ko'p holatlarda birgalikda ishlatilmoqdaki, oqibatda islomdan qo'rqish — islamofobiya tushunchasi yuzaga keldi. Islamofobiya atamasi XX asrning oxirlaridan muomalaga kirib kelgan.

Islamofobiyaning mafkuraviy jihati shundan iboratki, bunda bir tomondan dunyoviylik, ikkinchi tomondan vijdon erkinligi tamoyillarining ba'zi g'arb davlatlarida to'liq tartibga solinmaganligida ko'rinadi.

Islamofobiya ba'zan «diniy kamsitish» (diniy diskriminatsiya) ko'rinishida namoyon bo'lishi mumkin. «Diniy kamsitish» kishilarni diniy mansubligiga ko'ra, ularning haq-huquqlarini chegaralashdan iborat.

Diniy ksenofobiyaning ko'rinishlari boshqa jahon dinlariga nisbatan ham ishlatiladi. Masalan, xristianlik diniga nisbatan salbiy munosabat «xristianofobiya» so'zi shaklida, yahudiylik diniga nisbatan «yudofobiya» iborasi ishlatiladi.

Ko'pincha, jamiyatdagi ksenofobiyaning paydo bo'lishiga ommaviy axborot vositalari sababchi bo'la-



Insonning psixologik holatlari bilan bog'liq bo'lgan «fobiya»larning ham, o'z navbatida, bir necha turi mavjud. Xususan, «akrofobiya» (balandlikdan qo'rqish), «agorafobiya» (odamlar gavjum joylardan qo'rqish), «araxnofobiya» (o'rgimchak va sh.k. hasharotlardan qo'rqish), «astrafobiya» (momaqaldiroq va chaqmoqdan qo'rqish), «klaustrofobiya» (tor va yopiq joylardan qo'rqish) va hokazo.



Islamofobiya — jamiyatdagi tinchlik va barqarorlikka raxna soluvchi diniy ksenofobiyaning bir ko‘rinishi bo‘lib, u islom diniga, unga e‘tiqod qiluvchilarga va shu din bilan bog‘liq obyekt va tushunchalarga bir yoqlama, ya‘ni salbiy jihatdan yondashuvning natijasidir.

di. Chunki ommaviy axborot vositalari vakillari, ko‘pincha, shov-shuvga sabab bo‘ladigan, kishilarda qiziqish uyg‘otadigan ma‘lumotlarni tezlik bilan yetkazishga harakat qiladilar. Bunda biror millat, irq, dinga oid tushuncha va istilohlarni salbiy munosabat uyg‘otuvchi shaklda taqdim etish asosiy rol o‘ynaydi.

Ommaviy axborot vositalari qatoridan birinchi o‘rinni egallagan Internet hozirgi kunda islom dini deganda, asosan, «urush», «jang», «qo‘shin», «zo‘ravonlik», «bosqinchilik» kabi ma‘lumotni taqdim etmoqda.

Masalan, islom nomidan faoliyat ko‘rsatayotgan ekstremistik guruhlarining islom manbalarini buzib, o‘z manfaatlariga mos ravishda talqin etishga urinishlari, ikkinchi tomondan bu kabi o‘z manfaatlari yo‘lida hech qanday muqaddas narsani, na din-u diyonatni, na millat va Vatanni tan olmaydigan guruhlarini «islom» deb atash, ular olib borayotgan xunrezliklarni «islomning shartlari» sifatida talqin etish islamofobiyaning kuchayishiga olib keladi.

Islom diniga e‘tiqod qiluvchi kishi ushbu din muqaddas manbalaridagi aqidalar, ularning ezgu mohiyatini to‘g‘ri anglab yetishi zarurdir. Musulmonlarning o‘zlari islom manbalari umuminsoniy qadriyatlarga qarshi chiqmasligini tushunib yetishlari lozim bo‘ladi. Islom ezgulik dini bo‘lgani sababli ham uni adolatli tarzda talqin etish talab etiladi. Aks holda uning mohiyatiga putur yetishi va bu din haqida chuqur bilimga ega bo‘lmaslik kishida u haqda salbiy tasavvur hosil bo‘lishiga olib keladi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Diniy ksenofobiyaning kelib chiqishiga qanday omillar sabab bo‘ladi?
2. Islamofobiyaning ma‘naviyatga tahdidi bormi? Fikringizni asoslang.
3. Islom dining ezgulik mohiyati haqida fikr bildiring.

21-§ DUNYO DINLARIDA TINCHLIK G'OYASI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Bir kun urush-janjal bo'lgan joydan qirq kun baraka ketadi» degan hikmatli gapning ma'nosini bilasizmi?
2. Urush va buzg'unchilik qanday oqibatlarga olib kelishi haqida o'ylab ko'ring.
3. Tinchlikni asrash uchun har birimizning mas'uliyatimiz nimada deb o'ylaysiz?

*O'zaro ham-
fikir, hamdard
bo'linglar,
bir-biringizni
birodarlar-
cha sevinglar.
Bir-biringizga
mehr-shafqat-
li va kamtar
bo'linglar.*

**Yangi Ahd.
Pyotrning
birinchi maktu-
bi, 3-bob, 8–12**



Ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot va boshqa barcha jabhalarning taraqqiy etishi tinchlik, osoyishtalik bilan bog'liqdir. Shu sababli ham bugungi kunda xavfsizlik butun dunyoda eng dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Yil sayin davlatlar tomonidan mudofaa tizimi va harbiy sohaga ajratilayotgan xarajatlarning oshib borishi fikrimizni tasdiqlaydi. Biroq faqatgina zamonaviy qurol-yaroqqa ega bo'lishning o'zigina tinchlikni ta'minlamaydi. Chunki zamonaviy buzg'unchi kuchlar ochiqcha jang qilmay, balki to'satdan qo'poruvchilik amaliyotlarini qo'llash, harbiylar emas, balki tinch aholini nishonga olish kabi qabih usullardan foydalanmoqdalar. XX asrning ikkinchi yarmida dunyoda 300 dan ortiq tinchlikka raxna soluvchi nizolar qayd qilingani ham afsuslanarli holdir.

Har qanday din o'z izdoshlarini tinchlik va insonparvarlikka chaqiradi. **Hech qaysi din nohaq qon to'kish, urush olovini alanga oldirish va buzg'unchilikni targ'ib qilmagan.**

Xristianlik dunyoda eng keng tarqalgan din hisoblanadi. Tarixda mazkur dinni niqob qilib buzg'unchilik,



Hech kimga yomonlik evaziga yomonlik qaytarmanglar. Barcha odamlarning ko'zi oldida yaxshilik qilishga intilinglar.

Agar iloji bo'lsa, qo'lingizdan kelganicha, barcha odamlar bilan tinch-totuv hayot kechiringlar.

Yangi Ahd. Rimliklarga maktub, 12-bob, 17–18.

xunrezlik maqsadlarida foydalanilgani, «Salb yurishlari», «Inkvizitsiya» nomlari ostida ko'plab shaharlar vayron qilingani, minglab odamlarning halok bo'lgani tarixdan ma'lum. Holbuki, xristianlikda hech kimga yomonlik qilinmaslik haqida ta'lim beriladi. Bu din ham barcha dinlar kabi tinchlikparvarlik, yaxshilik qilish va ezgulikka chaqiradi.

Buddaviylik ta'limotining o'ziga xos jihatlari barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashning targ'ib etilishida, aql ko'rsatmalariga qat'iy bo'ysunish va hissiyotga berilmaslikda ham aks etgan. Tinchlikparvarlik va ezgulik g'oyalari buddaviylikning «Pancha shila» (sanskritcha — besh nasihat) qoidasida ham aks etadi. Unga ko'ra buddaviy qotillik, o'g'rilik, gumrohlik, yolg'on so'z, mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim. Bu dinga e'tiqod qilgan har bir rohib o'zgalar mulkiga ko'z olaytirmaslik, birovga nafrat bilan qaramaslik, adolat haqida o'ylash, munosib insonlardan yaxshilikni ayamasklik, axloqiy xatti-harakat qoidalariga amal qilishi lozim hisoblanadi.

Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan zardo'shtiylik dini ham o'zining tinchlikparvarligi bilan alohida ajralib turgan. Bu «Avesto»da aks etgan «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» ta'limotida ham o'z aksini topgan. Ayni damda, Videvdat kitobining ikkinchi fragardida tinchlikning muhimligi borasida fikrlar bildirilgan. Yasna kitobining 12-bobida har bir zardo'shtiy tiyilishi lo-



*Xalq orasida
fitna qo'zg'atish,
tuhmat va
ig'vo tarqatish
yo'lidagi
urinishlar,
tinchlik va
xotirjamlikni
izdan
chiqaruvchi
hodisalar yoki
harakatlar
islomning
mohiyatiga
mutlaqo zid.*

«O‘zingga ozor yetmasin desang, o‘zgalarga ozor berma, boshqalarga ozor bersang, o‘zing ham ozor chekasan. Hirs-u havas barcha baxtsizliklarning sababchisidir. Vaqt o‘tishi bilan hamma narsa o‘zgaradi, shuning uchun hech narsaga ortiqcha ko‘ngil bog‘lama, ko‘ngilni toza tut, haqiqat va boqiy saodat izla. Yomonlik qilma, gunohdan saqlan. Hamisha yaxshilik qil. Boshqalarni sevsang, o‘zing ham, boshqalar ham baxtli bo‘lishadi. O‘zgalarning aytganlarini rad etma va qoralama, o‘zni baxtli qilish uchun o‘zgalarni baxtsiz qilish insofdan emas».



Ahimsa — nafaqat odamlar, shu bilan birga barcha jonli mavjudotlarga nisbatan ham zo‘ravonlik qilmaslik.

zim bo‘lgan narsalar qatorida chorvani talon-taroj qilish, talafot va vayrongarchilik keltirishdan tiyilish ham sanab o‘tilgan.

Milliy dinlardan bo‘lgan hinduiylik va jayniylikda tinchlikparvarlik g‘oyalari «ahimsa» — kuch ishlatmaslik ta‘limotida o‘z aksini topgan. Unga ko‘ra yer yuzida buzg‘unchilik qilish, nafaqat insonlar, balki barcha jonzotlarga ozor berish taqiqlanadi. Ayni damda mazkur ta‘limot zo‘ravonlikka zo‘ravonlik bilan javob berish, urush qilganga qarshi urushishni ham qoralab chiqadi.

Tinchlik g‘oyasiga eng katta e‘tibor qaratgan dinlardan biri islom dinidir. Zero, «Islom» so‘zining ma‘nolaridan biri ham tinchlik demakdir.

Tinchlikni qadrlash, osoyishta hayot uchun shukronalik uni saqlab qolish va mustahkamlashning zaruriy



IJODIY FAOLIYAT

Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, sizning xotirjam yashashingiz, maktabga boriishingiz, dam olishingiz, maroqlanib televizor qarshisida o‘zingiz yoqtirgan ko‘rsatuvlarni ko‘rib o‘tirishingiz uchun qancha odamlar o‘zlarining rohatlaridan kechishlari kerak?

sharti hisoblanadi. Islom ta'limotida masalaning bu jihati ham alohida e'tibor berilgan.

Islom dini ta'limotida ulug' ne'mat bo'lgan el-yurt tinchligi, xalq xotirjamligini qadrlash, asrab-avaylash, unga putur yetkazishdan saqlanish zarurligi haqida qat'iy ko'rsatma beriladi. Bu masala islom dinining muqaddas manbalarida muhim o'rin egallaydi.

Islom ta'limoti Alloh taoloning ulug' ne'matlari — tinchlik va xotirjamlikning qadriga yetish, hushyor va e'tiborli bo'lishga chaqiradi. Loqaydlik, e'tiborsizlik, befarqlik, noshukurchilik emas, balki berilgan ne'matni e'tirof etish, uning qadriga yetish, e'zozlash, asrab-avaylash shukronalikning mohiyatini tashkil etadi. O'zaro nizolarni yarashish, kelishish yo'li bilan hal etish, jamiyatdagi tinchlikka tahdid qilishda, tajovuzkorlik va

Men senga tinchlikni ko'paytirib beraman, men tinchligingni qaytarib beraman va himoya qilaman. Mening saltanatimda na sovuq shamol, na qurg'oqchilik, na azob va na o'lim bo'ladi.



Avesto



«Men Prezident sifatida Amerika xalqi va o'z nomimdan kafolat beraman, biz terrorism va ekstremizmga qarshi qattiq kurash olib boramiz, bu yo'lda, qaysi din vakili bo'lishimizdan qat'i nazar, barchamiz birlashishimiz zarur. Yer yuzida tinchlikni saqlash va mustahkamlash eng asosiy vazifamiz bo'lishi kerak, dedi AQSH Prezidenti.

Sammit minbaridan yangragan bunday gaplar, albatta, bizga ham ma'qul bo'ldi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, biz bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy hayotimizni rivojlantirish borasida amalga oshirayotgan ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarishimiz, buning uchun davlatimiz va jamiyatimizning barcha kuch va imkoniyatlarini safarbar etishimiz shart».

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 15-iyulda «Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash — davr talabi» mavzusidagi anjumanda so'zlagan nutqidan

Islom dinining muqaddas manbasi bo‘lmish Qur’oni karimning «Baqara» surasi, 208-oyatida: «Ey, imon keltirganlar! Yoppasiga tinchlik ishiga kirishingiz!» — deyiladi. Oyatdagi «yoppasiga» so‘zi tafsir kitoblarida keltirishicha, bir tomondan, barcha insonlarning birlashgan holda tinchlik yo‘lini tutishlari lozimligi, ikkinchi tomondan esa, uni barqaror qilish uchun qanday yo‘l bilan bo‘lsa ham hissa qo‘shish zarurligini bildiradi. Shu bilan birga, Alloh taoloning «U (yer)ga sog‘-salomat, tinch-omon kiringiz!» (Hijr, 46) degan oyatida jannat ahlining abadiy hayoti tinchlik, osudalik va salomatlikda kechishi ta’kidlangan. Demak, bu oyat tinchlik va omonlik nafaqat bu dunyoda qadrlı, balki jannatda ham juda ulug‘ ne’mat ekanini hamda yer yuzi insoniyatning farovon, o‘zaro totuv va hamjihat yashashi uchun yaratilganini bildiradi.



Ikki ne’mat borki, ko‘pchilik insonlar uning qadriga yetmaydilar. U xotirjamlik va sihat-salomatlikdir.

Hadis



zo‘ravonlikda davom etadiganlarga nisbatan qat’iy va tezkor choralar ko‘rish zarurligi qayd qilinadi.

Tinchlikni saqlash uchun har bir kishi mas’ul, uni saqlab qolish va mustahkamlash uchun har kim o‘z hissasini qo‘shishi lozim. Tinchlikka qarshi da’vatlar ayrim hududlarda notinchlik, beqarorlik, xunrezlik va xudkushliklar hukm surayotgan hozirgi davrda mamlakatimizdagi tinchlik-osoyishtalikni ta’minlash o‘z-o‘zidan bo‘lmayotganini anglashga, o‘zaro yanada inoq va ahil bo‘lib yashashga undaydi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Tashqi siyosati prinsiplarida tinchlikni saqlashga qaratilgan qanday tamoyillar mavjud?
2. Dunyo dinlari ta’limotida tinchlikni asrash g‘oyalari qanday talqin etiladi?
3. «Avesto»da aks etgan «Ezgu fikr, ezgu so‘z, ezgu amal» ta’limotining tinchlikparvarlikka qanday aloqasi bor?

22-§

MISSIONERLIK — YOSHLAR KELAJAGIGA TAHDID



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Missionerlik va prozelitizm haqida nimalarni bilasiz?
2. Missionerlarning asosiy maqsadlari nimadan iborat deb o'ylaysiz?
3. O'zbekiston qonunlarida missionerlik haqida nima deyilgan?
4. Missionerlikning jamiyatga qanday ta'siri bor?

SEKTALAR

Missionerlik dinlar orasidagi tabiiy muvozanatning buzilishi, dinlararo ziddiyatlarning kelib chiqishiga sabab bo'luvchi qonunga zid bo'lgan illatlardan biridir. Bugun ayrim sekta va guruhlar missionerlik faoliyatini jamiyatni ichidan yemirish, g'arazli maqsadlarga erishish yoki pul topishga yo'naltirganlar. Ularning bu faoliyati minglab insonlar, ayniqsa, yoshlarning hayoti, sog'lig'i va ruhiyatiga jiddiy tahdid tug'diradi.

Ko'pchilik sektalar «Vatan» tushunchasini umuman inkor qiladilar. Bu esa insonlarda Vatandan begonalashish, uning taqdiriga nisbatan loqaydlik va befarqlik kayfiyatining shakllanishiga olib keladi.

Ayrim missionerlik tashkilotlari o'z a'zolariga harbiy xizmatga borishni taqiqlaydi. Bu kabi g'oyalarga qat'iy sadoqatning talab etilishi o'z mohiyatiga ko'ra, milliy xavfsizlikka to'g'ridan-to'g'ri tahdid tug'diradi. Ayrim sektalar esa «Bibliya»dagi ba'zi ko'rsatmalarni g'ayriinsoniy mazmunda talqin qiladilar.

Ba'zi sektalarda bir insonning qonini boshqasiga quyish gunoh hisoblanadi. Inson hayoti uchun kutilma-



Sekta — faqat o'zini «haq din», insonlarni «najatga yetkazuvchi» deb da'vo qiladigan, aslida esa muayyan siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlaydigan guruhdir.



Missionerlarning ma'lum xalqlar o'rtasida o'z e'tiqodiga nisbatan shubha paydo qilib, asta-sekin ularda o'z ota-onasi, millati, Vataniga nafrat uyg'otishdir.

gan vaziyatlarda qon quyish hal qiluvchi ahamiyat kasb etishini inobatga oladigan bo'lsak, bunday g'oyaviy targ'ibot fojiaiviy oqibatlariga olib keladi.

MISSIONERLIK USLUBLARINING TAKOMILLASHUVI

Missionerlar makon va zamonga moslashgan holda o'z uslub va vositalarini doimiy takomillashtirib kelganlar.

Xususan, so'nggi vaqtlarda ular ma'lum bir ijtimoiy qatlamni ajratib olib, ushbu qatlam bilan maqsadli ish olib borishga intilmoqdalar.

Jumladan, missionerlar asosiy e'tiborni aralash millat vakillaridan iborat oilalarning a'zolari, ilgari hech bir dinga e'tiqod qilmagan, og'ir xastalikka, judolikka, moddiy qiyinchilikka duch kelgan, axloq tuzatish muassasalaridan chiqib kelgan, ya'ni moddiy va ma'naviy ko'makka muhtoj kishilarga qaratmoqdalar.

Shu bilan birga, missionerlar sanoat korxonalarini joylashgan hududlarda ishchilar va vaqtincha ishsizlar hamda xususiy tadbirkorlar bilan ishlashga ham alohida e'tibor bera boshlaganlarini ta'kidlash zarur.

Shuningdek, san'at sohasi xodimlari, kutubxonachilar, o'rta maktab o'qituvchilari, turli idoralar xizmatchilari faol missionerlik targ'iboti obyekti sifatida tanlanayotganini ham qayd etish lozim. Bunda sekta



IJODIY FAOLIYAT

Fuqarolarning quyidagi burchlari cheklanishi mumkinmi yoki qaysi hollarda boshqa vazifa bilan almashtiriladi?

O'zbekiston Respublikasini himoya qilish — O'zbekiston Respublikasi har bir fuqarosining burchidir. Fuqarolar qomunda belgilangan tartibda harbiy yoki muqobil xizmatni o'tashga majburdirlar.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 52-modda



O'tgan asrning 90-yillari boshlarida, 1995-yilgacha qon quyilmagani uchun qurbon bo'lgan 3 315 sekta izdoshlari nomma-nom ko'rsatilgan memorial tashkil etilgan edi.

ta'siriga tushgan san'atkor san'atning hissiy-emotsional ta'sir quvvatidan foydalanib, e'tiqodiy bosim o'tkazishda yuqori samaradorlikka erishishi mumkin bo'lsa, prozelit kutubxonachida esa «o'lja» sifatida tanlanganlar bilan yakka tartibda ishlash imkoniyati tug'iladi.

Qayd etilgan misollar ham missionerlik obyekti sifatida tanlanayotgan qatlamlar doirasi muntazam ravishda kengayib borayotganini ko'rsatadi.

Missionerlar tizimli targ'ibot-tashviqot bosimini amalga oshirish, tadrijiy psixologik tazyiq o'tkazish orqali kishilarni o'z e'tiqodini o'zgartirishga majbur qiladilar. Ularning bunday harakatlari oxir-oqibatda insonlar va konfessiyalararo dushmanlik kayfiyatining shakllanishiga zamin yaratadi.

MISSIONERLAR VA BOLALAR

Missionerlar o'zlari haqida ijobiy tasavvurni shakllantirish va shu yo'l bilan o'z faoliyatlarini kengaytirish maqsadida maktab yoshidagi bolalar bilan ishlashga ham alohida e'tibor bermoqdalar. Jumladan, bolalar uchun yozgi oromgohlar tashkil etish orqali tegishli e'tiqodiy ta'lim-tarbiyani amalga oshirishdan keng foydalanilayotganini ta'kidlash zarur. Bunday yo'nalishda-



IJODIY FAOLIYAT

Iyegovo shohidlari tomonidan 1930-yildan 1952-yilga qadar (22 yil davomida!) o'z tarafdorlariga kasalliklarning oldini olishga qaratilgan vaktsinat-siyalarni olishni, 1967-yildan 1980-yilgacha (23 yil davomida!) teri va organlarni ko'chirib o'tkazishning taqiqlab kelingani odamni taajjubga soladi. Ular tomonidan 1944-yilda qabul qilingan birovning qonini quydirmaslik bo'yicha taqiq hozirgacha amal qilib kelmoqda.

Harakat inson qiyofasini ochib beruvchi eng aniq vositadir. Inson qanday harakat qilsa o'shandaydir.



Gegel

Har kimki «meni bilimdon ekan, desinlar» degan maqsadda o'zidan donoroq odam bilan bahslashsa o'z nodonligini namoyish qilgan bo'ladi.



**Sa'diy
Sheroziy**

gi harakatlar O'zbekistonda ham kuzatilganini qayd etish lozim.

Yozgi ta'til davrida bolalarni dam olish joylariga qisqa muddatga olib chiqish, cherkov hududida bir necha smenali, kamida 2 mahal ovqat beriladigan kunduzgi dam olish oromgohlari tashkil etish ham missionerlar faol foydalanadigan usullardan hisoblanadi.

Odatda, bunday amaliyot cherkovga qatnaydigan fuqarolarning bolalari uchun tashkil etilgani haqida hamma joyda ochiq-oshkor e'lon qilinadi ham. Ammo aslida bunday harakatlar «e'tiqodiy tarbiyadan chetda qolayotgan bolalar» uchun mo'ljallangani hech kimga sir emas.

Cherkovga ibodatga keladiganlar orqali mahalla va maktablarda bolalar oromgohlariga bepul yo'llanma borligi, dam olish davrida turli to'garaklar faoliyat ko'rsatishi, bolalarning dam olishi mazmunli o'tishi, qadimiy joylarga sayohatlar tashkil etilishi haqidagi e'lonlarning tarqatilishi ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Missionerlar tarqatayotgan kitoblar ichida bolalar uchun mo'ljallangan «Injil»ning bo'lishi esa tashqaridan qaragan odam uchun kichik bir tasodifdek tuyulishi mumkin, ammo missionerlar taktikasidagi tabiiy-qonuniy hol hisoblanadi.

Cherkovlarda bolalar uchun mo'ljallangan «yakshanba» maktablari tashkil etish, bunday maktablarga jalb qilinganlar ishtirokida turli tadbirlar o'tkazish, o'z sektalari ta'limoti bilan yo'g'rilgan spektakllar qo'yish va muayyan tayyorgarlikdan o'tgan tarbiyalanuvchilardan masihiylikka da'vat qiluvchi turli adabiyotlarni tarqatishda faol foydalanishga intilishni ham bolalar orasida olib borilayotgan missionerlikning o'ziga xos ko'rinishi sifatida qayd etish mumkin.

MISSIONERLIKKA QARSHI KURASH

Missionerlikka qarshi kurash masalalari O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni bilan belgilab qo‘yilgan.

Qonunga binoan «Bir diniy konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati man etiladi. Ushbu qoidaning buzilishiga aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar» (5-modda).

Lekin bugungi kunda missionerlar dunyo bo‘yicha demokratik qadriyatlar, inson huquqlari ustuvor ahamiyat kasb etib borayotganidan ham o‘z maqsadlari yo‘lida ustalik bilan foydalanishga intilmoqdalar.

Masalan, missionerlar, ko‘pincha, «*Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasi*» hamda «*Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risida xalqaro Pakt*»larda mustahkamlab qo‘yilgan ayrim qoidalarni ro‘kach qiladilar.

Bunda har bir inson vijdon erkinligi huquqiga ega-ligi, ushbu huquq, jumladan, o‘z dinini o‘zgartirish, toat-ibodat qilish, diniy rasm-rusum va marosimlarni ado etish erkinligini o‘z ichiga olishi haqidagi qoidalar-

Yoshlarning ongida qanday kayfiyat ustunligini aytsang, men senga keyingi avlodning tabiati qanday bo‘lishini aytib beraman.

Edmund Berk



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matni «Talaba yoshlar — missionerlik faoliyatining asosiy obyekti» degan fikr bilan bog‘lab tushuntiring.

«Butun dunyoda universitet va kollejlarda 37 million talaba tahsil oladi. Ularning ko‘plari 20 yildan so‘ng yirik mansablarni egallashadi».

P. Jonstoun. «Dunyo operatsiyasi»



IJODIY FAOLIYAT

Matnni o‘qing. Davlat fuqarolarga vijdon erkinligi huquqini berish bilan birga, bu huquqni amalga oshirishlarida ularga qanday majburiyat yuklamoqda? Fikringizni asoslang.

Fuqarolar o‘z huquq va erkinliklarini amalga oshirishda boshqa shaxslarning, davlat va jamiyatning qonuniy manfaatlari, huquqlari va erkinliklariga putur yetkazmasliklari shart.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 20-modda

ni keltirgan holda o‘z faoliyatlarining go‘yoki qonuniy ekanini asoslashga harakat qiladilar.

Lekin mazkur hujjatning 18-moddasi 2-bandida e‘tiqodni o‘zgartirish majburiy xatti-harakatlar bilan bog‘liq bo‘lmasligi, 20-moddasining 2-bandida esa **dushmanlik va diniy g‘animlikni keltirib chiqaradigan harakatlar qonun bilan taqiqlab qo‘yilishi zarurligi** haqidagi qoidalar mustahkamlangan.

Missionerlarning asosiy maqsadi qaysidir dinni targ‘ib qilish yoki qaysidir dinni kuchsizlantirish emas, balki siz-u biz yashab turgan yurtning tinchligiga raxna solish va taraqqiyotini barbod qilishdir.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Sekta deganda nima tushuniladi?
2. Sektalar faoliyatining zararlari nimalarda namoyon bo‘ladi?
3. Missionerlar bolalar orasida ish olib borishda nimalarga e‘tibor bermoqdalar?
4. O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunida missionerlikka qanday munosabat bildirilgan?

23-§

«VIJDON ERKINLIGI VA DINIY TASHKILOTLAR TO‘G‘RISIDA»GI QONUNNING MAZMUN-MOHİYATI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hech o‘ylab ko‘rganmisiz, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida «O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar», deb qayd etilganida qanday qadriyatlar nazarda tutiladi?
2. Vijdon erkinligini ta‘minlash borasida mamlakatimizda qanday amaliy ishlar olib borilmoqda?

Konstitutsiyamizning 31-moddasida «Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi», deb mustahkamlab qo‘yilgan.

Ushbu qoidani amalga oshirish mexanizmi sifatida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni 3-moddasida vijdon erkinligi fuqarolarning har qanday dinga e‘tiqod qilish yoki hech qanday dinga e‘tiqod qil-

Voyaga yetmagan bolalarni diniy tashkilotlarga jalb etish, shuningdek, ularning ixtiyoriga, ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar ixtiyoriga zid tarzda dinga o‘qitishga yo‘l qo‘yilmaydi.



O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni 3-moddasidan



Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklaniishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunidan

maslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqi ekanligi belgilab qo'yilgan.

Unga ko'ra fuqaro o'zining dinga, dinga e'tiqod qilishga yoki e'tiqod etmaslikka, ibodat qilishga, diniy rasm-rusumlar va marosimlarda qatnashish yoki qatnashmaslikka, diniy ta'lim olishga o'z munosabatini belgilayotgan paytda uni u yoki bu tarzda majbur etishga yo'l qo'yilmasligi qayd etiladi.

Ota-onalar o'z farzandlarining turli zararli oqimlarga kirib ketmasligi kabi masalalar uchun mas'uldirlar. Ular o'z farzandlari ma'naviyati, shuningdek, odob-axloqi uchun javobgar bo'ladilar. Har bir otana o'zlarining milliy qadriyatlarini bolalarga to'g'ri tushuntirishlari lozim.

Din va e'tiqod masalalari inson ma'naviyatining uzviy qismi hisoblanadi. Mazkur masalalarning mazmun-mohiyati haqida chuqur va asoslangan bilimlarga ega bo'lish hayotiy-amaliy faoliyatni to'g'ri tashkil etishga xizmat qiladi.

Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi normalarning qonunchilikka kiritilishi natijasida diyorimizda rasmiy faoliyat olib borayotgan barcha din va killariga katta imkoniyatlar yaratildi.

Qonunning asosiy maqsadi har bir shaxsning vijdon erkinligi va diniy e'tiqod huquqini, dinga munosaba-



TARIXGA NAZAR

1998-yil 1-mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XI sessiyasida «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning 23 moddadan iborat yangi tahriri qabul qilindi va bu qonunni ishlab chiqishda mamlakatimizning o'ziga xos sharoiti, unda yashovchi aholining huquq va manfaatlari hamda mentaliteti hisobga olindi.



O‘zbekiston Respublikasi demokratik tamoyillarga sodiqligining ifodasi sifatida davlatning din va diniy tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarda quyidagi tamoyillarga amal qilishini e‘lon qildi:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma‘naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarini qator toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e‘tirof etish.

tidan qat’i nazar, fuqarolarning tengligini ta‘minlash, shuningdek, diniy tashkilotlarning faoliyati bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solib turishdan iborat.

Qonun «Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro Pakt»da belgilangan qoidalarni e‘tirof etgan.

Inson o‘z dini va e‘tiqodini o‘zgartirishi ko‘p hollarda salbiy oqibatlariga olib keladi. Ayniqsa, bunday harakatlar oqibatida oila muhitida ota-bola, aka-ukaning yuzko‘rmas bo‘lib ketayotganini hech qanday yo‘l bilan oqlab bo‘lmaydi. Shu kabi jihatlar hisobga olingan holda qonunchilikda bunday holatlarga nisbatan javobgarlik ham belgilangan. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 240-moddasi ikkinchi qismida bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm) va boshqa missionerlik faoliyati uchun javobgarlik belgilangan.



Prozelitizm — bir konfessiyaga mansub dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar

Bizning Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barcha fuqarolarimiz teng huquq va erkinliklarga ega ekani kafolatlab qo'yilgan. Ularga o'z milliy madaniyati, an'ana va urf-odatlarini saqlash, har tomonlama rivojlantirish uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan.

Shavkat Mirziyoyev



O'zbekiston qonunlarida, shuningdek, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalari bilan yo'g'rilgan matbaa nashrlari, kino, foto, audio, video mahsulotlari va shu kabi boshqa mahsulotlarni tayyorlash, saqlash va tarqatish huquqbuzarlik ekanligi belgilab qo'yildi.

Xulosa qilib aytganda, «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida»gi Qonunning hayotga tatbiq etilishi respublikamiz hayotida katta voqea bo'ldi. Sohaga oid amalga oshirilayotgan huquqiy islohotlar natijasida diniy tashkilotlarni ro'yxatga olish hamda ularga rahbar-



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni diqqat bilan oqing va uni O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida belgilangan mazkur qoida bilan bo'g'lab tushuntiring: «O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi».

«Samarqand shahrida Sohibqiron Amir Temur davrida bunyod etilgan, Doniyor payg'ambar nomi bilan ataladigan maqbara islom, xristian va yahudiylik dini vakillari tomonidan birdek e'zozlanadi.

El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu quthug' qadamjoni asrab-avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehtirom ko'rsatib kelmoqda».

Shavkat Mirziyoyev



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Davlatning diniy tashkilotlarga bayrotgan imkoniyatlarini bag‘rikenglik tamoyillari asosida mushohada qiling.

«Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo‘ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir».

O‘zbekiston Respublikasining «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunining 19-moddasidan

lik qilish, noan‘anaviy diniy oqimlar yoyilib ketishining oldini olish, diniy ta‘lim tizimini takomillashtirish, shuningdek, diniy adabiyotlarni chop etish va tarqatish kabi diniy hayot barqarorligini ta‘minlashga qaratilgan vazifalarni bajarish uchun zamon talablariga mos huquqiy mexanizm yaratildi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 216²-moddasini o‘qib, diniy tashkilotlar to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzishning subyektiv tomonlarini tushuntirib bering. Mazkur jinoyatning subyekti kimlar bo‘lishi mumkin? Jinoyatning obyekti nima?
2. Mamlakatimizda diniy konfessiyalar o‘rtasidagi tinchlik va totuvlikni qo‘llab-quvvatlash uchun qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
3. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarida prozelitizm uchun qanday javobgarlik belgilangan?
4. Tarix fanidan olgan bilimlaringizga tayanib, fuqarolarning vijdon erkinligi qanday ta‘minlanganligi yuzasidan fikr bildiring,
5. Vijdon erkinligi deganda nimani tushundingiz?

24-§

O'ZBEKISTONNING DIN NIQOBIDAGI EKSTREMIZM VA TERRORIZMGA QARSHI KURASHDAGI O'RNI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Hech o'ylab ko'rganmisiz, ekstremistlar nima uchun o'zlarining g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda dindan niqob sifatida foydalanadilar?
2. Ekstremistlar va terroristlarning asosiy maqsadi nima deb o'ylaysiz?
3. Ekstremistlarning go'yalariga dunyo dinlari vakillarining munosabati qanday?
4. Inson ongida paydo bo'lgan bo'shliq ekstremistik g'oyalarga bo'ysunishiga olib keladimi?
5. Inson ongida bo'shliq paydo bo'lmasligi uchun nimalar qilish kerak?

Kimki yerning markazi ustida nazorat o'rnat-sa, u Dunyo oroliga ega bo'ladi, kimki dunyo orolida nazorat o'rnat-sa, u Jahon ustidan hukmronlik qila oladi.



Jon Makkinder

XX asrning 90-yillariga kelib dunyo siyosiy xaritasining o'zgarishi, yangi mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, jahon hamjamiyatining globallashuvi va integratsiyalashuvi, zamonaviy xalqaro munosabatlarda yangicha tartibotlarning shakllanishiga turtki bo'ldi.

Bu davrda Markaziy Osiyo mintaqasi o'zining iqtisodiy va strategik ahamiyatiga ko'ra dunyoning muhim hududi sifatida e'tirof etildi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lmoqda:

- Markaziy Osiyo shimol va janub, sharq va g'arbni o'ta muhim transport-kommunikatsiya yo'llari bilan bog'lovchi hudud sanaladi;
- Markaziy Osiyo hududi Sharq va G'arb sivilizatsiyalari kesishgan hamda islom, xristian va budaviylik dinlari jam bo'lgan nuqtada joylashgan.

- Bu — mintaqaning tabiiy resurslar (neft, gaz, oltin, uran, rangli metallar va boshqalar)ga boy ekanligi koʻpchilikni oʻziga ohanrabodek jalb etadi.

Ana shunday moddiy boyliklarga ega boʻlishga intilgan gʻarazli guruhlar har bir imkoniyatdan foydalanishga, eng buyuk boyligimiz boʻlmish milliy qadriyatlarimiz va maʼnaviyatimizga tahdid solishga harakat qiladilar.

Biz bugungi kunda murakkab zamonda yashamoqdamiz. Soʻnggi paytlarda butun dunyo mamlakatlarini diniy ekstremizm va terrorizm tashvishga solib kelmoqda. Dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan mahalliy urushlar, harbiy qarama-qarshilik va mojarolar, terrorchilik xurujlari xalqaro xavfsizlikka tahdid solmoqda. Hozir diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm dunyo mamlakatlari uchun nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masalaga aylandi. Chunki diniy ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruhlarni shakllantirish, ularni har tomonlama ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlashga intilmoqdalar.



Diniy ekstremizm — jamiyat uchun anʼanaviy boʻlgan diniy qadriyatlar va aqidaviy ahkomlar tizimini inkor etib, ularga zid boʻlgan «gʻoyalar» va amallarni agresiv tarzda targʻib qilishdir.



TARIXGA NAZAR

Markaziy Osiyo davlatlarida terrorchilik harakatlari 1990–1996-yillarda Tojikistondagi fuqarolik urushi davomida, 1999–2001-yillari Qirgʻizistonning Botken viloyatida, mamlakatimiz hududida 1990-yilda Namangan va Andijonda, 1999-yili Toshkent shahrida, 1999–2001-yillarda Oʻzbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004-yilning mart–aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida, 2004-yilning iyul oyida Toshkent shahrida, 2005-yili Andijonda sodir etildi.



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni diqqat bilan o‘qing. Undagi xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari haqida fikr bildiring:

«Bizning davlatimiz ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashashmoqda. Bu borada, hech shubhasiz, xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenglik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda».

Mustaqillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e‘lon qildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov 1993-yil 28-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma‘ruzasida jahon hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini izchil o‘rganish va yechishga chaqirdi.

O‘zbekiston diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash sohasidagi huquqiy jarayonlarni tartibga solish, ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish uchun o‘zining ichki siyosatida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

*2001-yilda ter-
rorchilik oqibatida
buzib yuborilgan
minoralar o‘rniga
qurilgan milliy me-
morial va muzey.
Nyu-York*





Aqidaparastlik (arab. *aqida* — ishonch) muayyan sharoitda, biron-bir g‘oya yoki tamoyilga qat‘iy ishonch va uni mutlaqlashtirish asosida shakllangan qoida va tartiblarni sharoit, holat, vaziyatni hisobga olmagan holda, ko‘r-ko‘rona qo‘llash va urinishni anglatadi.

Ekstremizm (fransuzcha *extremisme*, lotincha *extremus* — keskin, so‘nggi) jamiyatda qabul qilingan muayyan qonun-qoidalarga zid bo‘lgan g‘oyalarni targ‘ib qilish va ularni amalga oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda 1998-yil 1-mayda yangi tahrirda qabul qilingan «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunda mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy asoslari mujassam etilishi bilan birga din niqobi ostida ekstremistik g‘oyalarning tarqalishiga chek qo‘yildi.

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm hamda uni moliyalashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat‘iy siyosat olib bormoqda. 1999-yilda «Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida»gi, 2000-yilda «Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida»gi va 2006-yilning 1-yanvaridan amalga kiritilgan «Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risida»gi qonunlarning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

O‘tgan yillar davomida respublikamiz terrorchilikka qarshi kurash bilan bog‘liq qator xalqaro hujjatlarni ratifikatsiya qildi. Jumladan, 2000-yil 24-aprelda O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkent shahrida bo‘lib o‘tgan Qozog‘iston, Qirg‘iziston,



AQSH davlat departamenti ma‘lumotlariga ko‘ra, yer yuzida yiliga 10 mingtadan ziyod terrorchilik harakatlari sodir etiladi.

70 mingdan ortiq inson bunday harakatlar oqibatida hayotdan bevaqt ko‘z yummoqda — bundan 80% ini voyaga yetmagan yosh bolalar tashkil etadi.

Xalqaro statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, hozir dunyo miqyosida 500 dan ortiq terrorchilik tashkiloti mavjud.



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o'qing. Urushlar qanday oqibatlarga olib kelishini mulohaza qiling.

Urushda g'olib va baxtli podshoh, g'olib va baxtli qo'shin, g'olib va baxtli davlat, g'olib va baxtli tuzum bo'lishi mumkin. Ammo g'olib va baxtli odam bo'lmaydi. Negaki, urush odamni odam o'ldirishga majbur qiladi. Odam o'ldirgan odam esa hech qachon baxtli bo'lmaydi.

O'tkir Hoshimov, «Daftar hoshiyasidagi bitiklar»

Tojikiston va O'zbekiston davlatlarining rahbarlari tomonidan imzolangan, terrorchilik kabi o'ta og'ir jinoyatni tag-tomiri bilan qirqib tashlashga qaratilgan bitim hamda xuddi shu yilning 21–22-iyun kunlari MDH davlatlari rahbarlarining Moskvada bo'lib o'tgan uchrashuvida ushbu masala yuzasidan muhim hujjat imzolandi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan «Genotsid jinoyatining oldini olish va uni sodir etganlik uchun jazolash to'g'risida»gi (1961-yil 12-yanvardan kuchga kirgan), «Yollanma jinoyatchilarni yollash, ulardan foydalanish, moliyaviy ta'minlash va o'qitishga qarshi kurash to'g'risida»gi (1989-yilda qabul qilingan), «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi (1997-yil 16-dekabr), «Plastik portlovchi moddalarni topa olish maqsadida ularni markirovka qilish to'g'risida»gi (1991-yil) va boshqa bir qator xalqaro konvensiyalar ham ratifikatsiya qilingan.

Respublikamiz tomonidan terrorchilikka qarshi amalga oshirilayotgan bu kabi tadbirlar tinchlikni saqlashda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, qator davlat idoralari, jumladan, mudofaa, favqulodda vaziyatlar va ichki ishlar vazirliklari, milliy xavfsizlik xizmati, chegara, bojxona va prokuratura idoralari-ning terrorchilikka qarshi kurashdagi faoliyatini tizimli yo'lga qo'yish bugungi kun talabidir.

Respublikamiz terrorizmga qarshi qaratilgan ko'plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarni izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o'zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta'kidlash zarur.

Ma'lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta hujjati (11 ta Konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozir O'zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomani ratifikatsiya qilgan. Ular qatorida 1971-yildagi «Fuqaro aviatsiyasi xavfsizligiga tahdid soluvchi g'ayriqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida»gi; 1973-yildagi «Xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslarga, shu jumladan, diplomatiya agentlariga qarshi jinoyatlarning oldini olish va bunday jinoyatlar uchun jazolash to'g'risida»gi; 1979-yildagi «Odamlarni garovga olishga qarshi kurash to'g'risida»gi; 1980-yildagi «Yadroviy qurilmalarni va yadroviy materiallarni jisman himoya qilish to'g'risida»gi; 1988-yildagi «Dengiz kemachiligi xavfsizligiga tahdid soluvchi g'ayriqonuniy aktlarga qarshi kurash to'g'risida»gi; 1997-yildagi «Bombali terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi; 1999-yildagi «Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro konvensiyalari borligini ko'rish mumkin.

Bugungi kunda BMT tomonidan «Yadroviy terrorizm xurujlariga qarshi kurash to'g'risida»gi xalqaro konvensiya va «Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha yalpi konsepsiya» loyihalari tayyorlanayotgani O'zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi tashabbuslariga hamohangdir.

O'zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 ta xalqaro shartnomani imzolagan.

O'zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash masalalarida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Yevroosiyo iqtisodiy hamkorlik tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ham faol ishtirok etmoqda.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xalqaro terrorizm muammosi hozirgi davrning dolzarb global muammolaridan biriga aylanishi qaysi sabablar bilan bog'liq?
2. Diniy ekstremizmning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Jamiyatni diniy-ekstremistik g'oyalar ta'siridan himoya qilish uchun qanday takliflar bildirgan bo'ladingiz?
4. Ma'naviy qadriyatlarni asrash nima uchun kerak?

QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

- 1993-yilda BMTning 48-sessiyasida O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash hamda yadro quroli tarqalmasligi va quROLSIZLANISH bo'yicha takliflar kiritildi.
- 1995-yilda BMT Bosh Assambleyasining 50-sessiyasida O'zbekiston Afg'onistonga qurol-yarog' kiritishga qarshi xalqaro embargo qo'yish g'oyasi bilan chiqdi.
- 1997-yil mamlakatimiz tashabbusi bilan 6+2 (Eron, Xitoy, Pokiston, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston, AQSH va Rossiya) shaklidagi muloqot guruhi faoliyat ko'rsatdi.
- 1999-yilda «Afg'onistondagi muammolarni tinch yo'l bilan bartaraf etish tamoyillari to'g'risida»gi Toshkent deklaratsiyasi imzolandi.
- 2008-yilda NATO tashkilotining Buxarest sammitida Afg'oniston mojarolarini birgalikda siyosiy yo'l bilan hal etish, iqtisodiy yordam ko'rsatish maqsadida Muloqot guruhi faoliyati 6+3 (NATO ishtirokida) shaklida namoyon bo'ldi.
- 1999-yil Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining Istanbul sammitida O'zbekiston tomonidan taklif etilgan Terrorizmga qarshi kurash bo'yicha Xalqaro markazni yaratish g'oyasi 2001-yilning sentabrida BMT Xavfsizlik kengashi doirasida aksilterror qo'mitasining ta'sis etilishi bilan o'zining tasdig'ini topdi.
- 2002-yil Islom Karimov taklifi bilan giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda muomalada bo'lishga qarshi kurash bo'yicha Markaziy Osiyoda mintaqaviy axborot muvofiglashtirish markazi tashkil etildi.
- 2014-yil 6-may kuni — BMT tashkil etilgandan keyin birinchi marotaba, beshta yadroviiy davlat, AQSH, Buyuk Britaniya, Fransiya, Xitoy va Rossiya yakdillik bilan muhim xalqaro hujjat — Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli zona barpo etish to'g'risidagi shartnomani imzoladilar.

25-§

KIBERMAKONDA DIN VA AXBOROT ISTE'MOLI MADANIYATI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Kimki axborotga ega bo'lsa, dunyoga egalik qiladi» degan fikrni siz qanday tushunasiz?
2. Internetdagi rasmiy va norasmiy ma'lumotlar deganda nimani tushunasiz? Norasmiy ma'lumotlarga qanchalik ishonasiz?
3. Yolg'on xabar tarqatish, birovning tinchligini buzish milliy qadriyatlarimizda qanday baholanadi?
4. Sizning mobil telefoningizga yoki elektron pochtingizga noma'lum shaxslar tomonidan yuborilgan xabarga munosabatingiz qanday?

KIBERMAKON

Bugungi kunda Internet orqali sodir etilayotgan jinoyatlar ko'plab kuzatilmoqda. Ular kibermakonda o'zlari uchun «in qurib» olib, global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy va mafkuraviy tahdidlarning vujudga kelishiga sababchi bo'lmoqda.

«Kibermakon» tushunchasi birinchi marotaba 1982-yilda iste'molga kiritilgan. Kibermakon «kibernetika» va «makon» so'zlarining birlashmasidan iborat.

Kibernetikaning texnik asosini elektron hisoblash mashinalari — kompyuterlar tashkil qiladi. Kibermakon axborot uzatish va qabul qilish orqali turli jarayonlarni

Kishining barcha eshitganlarini gapiraverishi uning yolg'onchiligiga yetarli dalildir.



Hadis



Kibernetika (yunoncha, boshqarish san'ati) — axborotni qabul qilish, uni qayta ishlash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shug'ullanadigan fan.

Axborot — tasavvurning shakliga qaramasdan, shaxslar, voqealar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumot.



Informatsiya — (lot. informatio — tushuntirish, ma'lum kilish) — kibernetikaning asosiy tushunchalardan biri bo'lib, ko'rsatkichlar, ma'lumotlar, xabarlarining majmuyi va h. k.



Axborot iste'moli madaniyati — inson ma'naviyatini izdan chiqarishga qaratilgan axborotlarga qarshi ma'naviy-ruhiy kuchdir.

boshqarish va ularga ta'sir o'tkazishning eng qulay vositasiga aylandi.

Bugungi kunda global xavf bo'lgan terrorchilik Internet olamiga ham kirib borib, kiberterrorchilik atamasi yuzaga keldi.

Kiberterrorchilar axborot texnologiyalaridan foydalanib, siyosiy, diniy va mafkuraviy ta'sir o'tkazishga harakat qiladilar. Bu jarayonda, ko'pincha, xakerlar xizmatidan foydalaniladi.

Xakerlar dunyoning ko'plab mamlakatlarida davlat idoralari, moliya tizimlari, xalqaro tashkilotlarning ma'lumot zaxiralari hujumlar uyushtirib, tartibsizliklarni keltirib chiqaradilar.

Kiberterrorchilar o'smir yoshlarning qiziqishiga qarab, ularni turli videolavhalar va fotosuratlarini tomosha qilishga jalb etadilar. Bu bilan esa milliy va umuminsoniy qadriyatlarga putur yetkazishga harakat qiladilar. Natijada manqurt insonlar shakllantirish orqali davlatlarda tinchlik va barqarorlik muhitini izdan chiqaradilar.

Kiberterrorchilar o'z maqsadlarini amalga oshirishda diniy omildan foydalanib, insonlarning qalblarini egallashga harakat qiladilar. Bunda diniy tushunchalarni noto'g'ri talqin qilish orqali ma'lum bir hududda mutaassiblik kayfiyatini shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi.

AXBOROT

Globalashuv sharoitida ma'lumotlarning zamonaviy vositalar orqali tezlik bilan tarqatilishi kuzatilmoqda. Internet tizimi orqali tarqatilayotgan xabar va ma'lumotlarga turli siyosiy taqiqlar, davlat chegaralari to'siq bo'la olmasligi katta moddiy va ma'naviy xavfning ke-

lib chiqishiga sabab bo‘layotganini bir qancha davlatlar misolida ko‘rishimiz mumkin.

Norasmiy xabarlarda buzg‘unchi g‘oyalar targ‘iboti va terrorga chaqiriqlar juda ko‘p uchraydi. Shuning uchun ham bugungi kunda har bir shaxsda axborot iste‘moli madaniyatini yuksaltirish hayot zaruratiga aylandi.

Zero, zamonaviy ilmiy-texnikaviy inqilob jamiyat hayotining moddiy asoslarini tartibga soldi. Xalqlarning turmush darajasini ular yashaydigan hudud yoki undagi yer resurslari emas, balki axborot, intellektual yoki ma‘naviy salohiyat belgilab bera boshladi.



Informatsion tahdid — axborot ta‘sirining real tahdidi.



Informatsion xavf — ma‘lum bir siyosiy va ijtimoiy kuchlarning shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga real informatsion ta‘siri.



IJODIY FAOLIYAT

Berilgan matnni o‘qing va ularning mazmunini axborot iste‘moli madaniyati tushunchasi bilan izohlashga harakat qiling.

«Ey mo‘minlar! Agar sizlarga biror fosiq kimsa xabar keltirsa, sizlar (haqiqiy ahvolni) bilmagan holingizda biror qavmga aziyat yetkazib qo‘yib, (keyin) qilgan ishlaringizga pushaymon bo‘lmasligingiz uchun (u xabarni) aniqlab (tekshirib) ko‘ringiz!»

Qur‘oni karim. Hujurot, 6-oyat.

Har kim fikrlash, so‘z va e‘tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o‘zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir.

**O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi,
29-modda**



Axborot iste'moli madaniyati —

ezgulik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma'lumotlarni axborot dunyosidan saralab olishdagi bilimlar, qobiliyat va malakani o'zida ifoda etadi.

INSON ONGI UCHUN KURASH

Inson ongini yot va begona g'oyalar bilan zaharlash, ba'zan uning tanlagan sog'lom hayot yo'lidan og'ib ketishiga olib keluvchi axborotlar aynan norasmiy manbalar tomonidan tarqatiladi.

Axborot xurujlari natijasida turli davlatlar chegaralari daxlsizligining buzilishigacha borilayotgani bugungi kunda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham ko'proq kuchga ega ekanligini isbotlamoqda. Axborot urushining asosiy maqsadi shaxs yoki mamlakatning tinchligiga tahdid solgan holda, bosim o'tkazishdan iborat.

VIRTUAL MULOQOT

Virtual muloqot vositalari har xil turdagi fayllar va xabarlarini almashish maqsadida tuzilgan.

Hozirgi kunda virtual muloqot vositalari orqali yuborilayotgan ma'lumotlar faqat boshqalarni hayron qoldirishga asoslanadi va uning to'g'ri yoki noto'g'ri ekani



IJODIY FAOLIYAT

Mazkur holatni tahlil qiling.

Anchadan beri bir-biri bilan ko'rishmagan Adham va Akbar ismli do'stlar uchrashib qolishdi. Adham do'stiga shu yaqin o'rtada shinamgina milliy taomlar oshxonasi bor, Wi-Fi ham tekin, deb do'stini birgalikda tushlik qilishga taklif etdi. Ularni orasta kiyingan oshxona xodimi kutib oldi. Adham oshxona xodimidan Wi-Fi yoqib berishni so'radi. Telefonlar jahon axborot tarmog'iga ulandi. Buyurtirilgan taom keltirildi. Har ikkala do'st taom ustida telefonlariga jo'natilgan rasmlarni ko'rish, latifalarni o'qish bilan band bo'lib o'tirishdi. Ular tamaddi qilib bo'lib, ko'chaga chiqishar ekan, telefon raqamlarini yozib olishdi va bir-birlariga telegram orqali xabar yozib turishga ahdlashishdi.



ahamiyatsizdir. Bunda, ko‘pincha, asossiz ma’lumot tarqatilib, ushbu holatni yuzlab, minglab odamlar o‘zlaricha muhokama qilishadi.

Sog‘lom aql egalari Internet qulayliklaridan o‘z bilimlarini oshirish yo‘lida oqilona foydalanadilar. Lekin ba’zi yoshlar ushbu tarmoqdagi yovuzlikka, ma’naviy tanazzulga sabab bo‘ladigan saytlarda «sayr qilib», o‘zlari va atrofdagilarning ongini zaharlaydilar.

Axborot quroli, konkret, maxsus tanlangan muhim obyekt yoki undagi zarur qismni ishdan chiqarishga qaratilgan yuqori aniqlikka ega harbiy vositalardan farqli o‘laroq, butun harbiy, iqtisodiy yoki sotsial tizimni ishdan chiqarish xususiyatiga ega.

V. Slipchenko



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Axborot tahdidi deganda nimani tushunasiz?
2. Axborotni to‘g‘ri qabul qilish uchun qanday amallar bajarish kerak?
3. Norasmiy axborotlar nimasi bilan xavfli?
4. Sizning hayotingizga qanday informatsion tahdid yoki informatsion xavf ta’sir ko‘rsatishi mumkin? Javobingizni asoslang.
5. Telegram orqali «ishlaringiz yaxshi bo‘lishini xohlasangiz ushbu xabarni o‘nta odamga yuboring, aks holda...» degan xabar oldingiz. Bu xabar va topshiriqqa munosabatingiz qanday bo‘ladi?

26-§ DINLARDA HAYOT QADRI



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. «Hayot — bebaho ne'mat» hikmatini sharhlang.
2. Tirik jonga ozor bermaslik haqidagi maqollar hamda ota-bobolarimiz tomonidan aytilgan hikmatlarni eslang.
3. O'рта asrlarda o'z joniga qasd qilganlarga qanday munosabatda bo'lingan?
4. Nima deb o'ylaysiz, islom dinida o'z joniga qasd qilganlarga janoza o'qilmasligining sababi nimada?

Barcha dinlarda hayotning insonlarga Xudo tomonidan berilgani va undan samarali foydalanish lozim ekani uqtiriladi. Shu sababli ham har bir din o'z ta'limotida zo'ravonlik, shafqatsizlik, o'ziga va o'zgalar joniga qasd qilishni, tinch aholiga zulm yetkazish va qon to'kishni qat'iy taqiqlaydi.



*Ba'zi din a'zolari
kutilmaganda
tirik mavjudot
kirib ketmasligi
va uni nobud
qilib qo'ymaslik
maqsadida
hatto og'izlarini
bog'lab oladilar;
tasodifan oyoqlari
bilan qumurs-
qalarni bosib
olmaslik uchun
oyoqlari ostini
supurib yuradilar.*



DUNYO DINLARIDA HAYOTGA TAJOVUZ QILISHNING QORALANISHI

Jahon dinlari ichida eng keng tarqalgan xristianlik dini o‘z joniga qasd qilishni qat’iy qoralaydi, chunki insonning necha yil yashashi Xudo tomonidan belgilanib, taqdirdan qochish deb qaraladi. Bundaylarning ruhini poklash va mozorga ko‘mish man qilinadi. O‘rta asr g‘arb davlatlarida buning oldini olish uchun o‘z joniga qasd qilganlarni qattiq tahqirlashar edi. O‘z joniga qasd qilib, tirik qolganlarni esa, qotil sifatida juda og‘ir ishlarga surgun qilinar edi. Ular markaziy ko‘chalarga oyog‘idan osib qo‘yilar, yuragiga yog‘och qoziq qoqib, chorrahaga ko‘mib qo‘yishar, o‘lgan hayvonlarni ham yoniga qo‘shib qo‘yishar edi.

Masalan, Fransiya podshosi Lyudovik XIV davrida o‘z joniga qasd qilganning tanasi yuzi yerga qaragan holatda ko‘chalar orqali zambilda sudralib, osilib, keyin qassobxonaga tashlanar edi.

Xristianlik dinining pravoslav yo‘nalishida o‘z joniga qasd qilish — qotillik va umidsizlikni sodir etganligi uchun og‘ir gunohlardan sanaladi. Mazkur ishga qo‘l urgan kishining dafn marosimida marsiya (otpevanie) o‘qilmaydi. Agar o‘z joniga qasd qiluvchining aqli nora-so bo‘lsa bundan mustasno. 1950-yillarga qadar o‘z joniga qasd qilganlar qabristondan tashqarida ko‘milgan. Bularning barchasi o‘z joniga qasd qilish og‘ir gunohligini bildirish hamda o‘zgalarni ogohlantirish uchun qilingan.

Injilning «Havoriylar faoliyati» kitobi 16-bob, 28-qartorda o‘z joniga qasd qilmaslik haqida quyidagi so‘zlar-ni ko‘rish mumkin: «Lekin Pavlus baland ovozda baqirib: «Zinhor o‘z joningga qasd qilma», dedi».

Halokatga olib boruvchi yettita gunohdan saqlanishlar:

- 1) *Allohi Taologa shirk keltirmoq;*
- 2) *sehr ishlari bilan shug‘ullanmoq;*
- 3) *birovni nohaq o‘ldirmoq;*
- 4) *sudxo‘rlik;*
- 5) *yetimlarning molini yemoq;*
- 6) *yov bilan bo‘layotgan jangdan qochmoq;*
- 7) *erli, mo‘mina, iffatli ayollarni fohisha deb haqoratlamoq.*



Hadis

Buddaviylikda esa o‘z joniga qasd qilish insonning hayotga nisbatan qilgan noshukurligi sifatida baholangan.

Qadimgi slavyan xalqlarida o‘z joniga qasd qilganlarni «nopoklar» deb ataganlar. Bunday kishilarning ruhi tiriklarga ozor beradi, balo keltiradi, azobga qo‘yadi, deb ishonganlar. O‘zga insonlarga zarar keltirmasin deb ularning qabriga tog‘terak tayog‘i qoqilgan.

Shuningdek, Xitoyda ham o‘z joniga qasd qilish qoralanadi. Xitoyliklar o‘z joniga qasd qilganing ruhi osmonga ko‘tarilmasdan, suiqasd sodir etgan uyida qolishiga va oila a‘zolariga omadsizlik, balo-ofat keltirishiga ishonganlar.

ISLOM DINIDA HAYOTNING QADRLANISHI

Islom dinida begunoh insonlarning qonini nohaq to‘kish katta gunoh ekanligi ta’kidlanib, bunday qabih ish insoniyatga qilingan tajovuz hisoblanadi.

Qur’oni karimda inson o‘zining yashash huquqiga tajovuz qilishi ham man etilib: «Bir-biringizni nohaq o‘ldirmangiz! Albatta, Alloh sizlarga rahm-shafqatlidir» (Niso surasi, 29-oyat), deya ogohlantirilgan.

Muhammad (s.a.v.) hadisi shariflarda o‘z-o‘zini o‘ldirish harom ekanligi, bunday ishni qilgan kishiga oxiratda abadiy azoblar borligi haqida aytib o‘tgan. Xususan, Jundub ibn Abdullohdan rivoyat qilingan quyidagi hadisda shunday deyiladi:

«Rasululloh (s.a.v.) shunday dedilar: «Sizlardan avvalgilar ichida jarohatli bir kishi bor edi. Jazavaga tushib, pichoqni olib qo‘lini kesdi. Qon to‘xtamadi va shu sababli vafot etdi. Alloh taolo aytdi: «Bandam nafsini mendan shoshiltirdi. Men unga jannatni harom qildim».

Rasululloh (s.a.v.) o‘z joniga qasd qilgan kishining janozasini o‘qimaslikni uqtirgan deyiladi, bu esa mazkur

ishning naqadar yomonligidan dalolat beradi. Shunga ko‘ra, islom manbalarida o‘zini o‘ldirgan kishiga masjid imomi janoza o‘qishi mumkin emas, deyilgan.

Abu Hurayra (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisi sharifda: «Kimki tog‘ tepasidan tashlab, o‘z-o‘zini o‘ldirsa, o‘lgandan so‘ng jahannamda ham shu xil azobga giriftor bo‘ladi. Agar zahar ichib o‘zini o‘zi o‘ldirsa, jahannamda ham abadiy shu azobga muhtalo bo‘ladi. Kimki o‘zini temir parchasi bilan o‘ldirsa, u kishi temir parcha qorniga suqilgan holatda jahannam o‘tida abadiy qolur», deb marhamat qilganlar (Imom Buxoriy va Imom Termiziy rivoyati).

Islom ta‘limotiga ko‘ra, hayot ne‘mati insonga Alloh taolo tomonidan beriladi. Bu ne‘matning qadriga yetish, har soat, har daqiqada xayrli va savobli ishlarni qilish talab etiladi.

Hozir ba‘zi guruh va shaxslar «o‘zini o‘ldirish» tushunchasini shahidlik bilan qorishtirib talqin qilishmoqda. «Shahid» Alloh taoloning sifatlaridan biri bo‘lib, «guvohligi ishonchli, har doim hozir bo‘luvchi



IJODIY FAOLIYAT

1. Rasmlarga diqqat bilan qarang va quyidagi savollarga javob bering. Rasmlardagi narsalarga nima uchun taqiqlash belgisi qo‘yilgan? Ularning inson salomatligiga qanday salbiy ta‘siri bor?
2. Siz o‘z salomatligingizni saqlashga qanday e‘tibor berasiz?
3. Inson o‘z sog‘lig‘iga e‘tiborsiz bo‘lishi qanday oqibatlariga olib keladi?
4. Sog‘lig‘iga zarar bo‘ladigan ishlarni bajarish, sog‘lig‘iga e‘tibor bermaslik, tibbiy madaniyatga rioya qilmaslik tushunchalari bilan o‘z joniga qasd qilish tushunchasini bog‘lab ko‘ring. Bunday holatlarga dinning munosabati qanday?

zot» degan ma'nolarni anglatadi. «Shahid» so'zining yana bir ma'nosi o'zga shaxs tomonidan nohaq o'ldirilgan musulmondur.

Shaxsning ma'lum maqsadlar yo'lida o'zini o'zi o'ldirishini shahidlik amaliyoti deb baholash ayni adashishdir. Yovuz niyatli kuchlar o'z harakatlarini oqlash maqsadida keltirgan barcha dalillarni islom ulamolari qoralashgan va asossiz, deb topishgan.

Kishining o'zini o'zi o'ldirishi, garchi niyati din yo'lida deb e'lon qilinsa-da, o'z joniga suiqasd qilish deb baholanadi. O'zini o'zi o'ldirish — bu o'z hayotini qasddan to'xtatish, parvardigor bergan hayotga tajovuz qilish darajasi-dagi gunohi kabira hisoblanadi.

Alloh taolo bu haqda shunday deydi: «Ana o'sha (ilk qotillik) tufayli Isroil avlodiga shunday hukmni bitib qo'ydik: «Biror jonni o'ldirmagan yoki yerda (buzg'unchilik va qarochilik kabi) fasod ishlarni qilmagan insonni o'ldirgan odam xuddi hamma odamlarni o'ldirgan kabidir. Unga hayot baxsh etgan (o'limdan qutqarib qolgan) odam esa barcha odamlarni tiriltirgan kabidir». Ularga rasullarimiz (ilohiy) hujjatlarni keltirganlar. So'ngra ularning ko'pchiligi o'shandan keyin (ham) yerda isrof qiluvchilardir» (Moida, 32-oyat).

Jahondagi nufuzli islom muassasalari va ulamolari o'zini turli portlovchi vosita bilan portlatish orqali begunoh odamlarning o'limiga sabab bo'lish harom amal bo'lib, islom diniga aloqasi yo'q ekanini qayd etganlar.

O'zbekiston musulmonlari idorasi Ulamolar kengashi ham «O'zini-o'zi turli yo'llar bilan qasddan o'ldirishning og'ir gunohligi haqida» fatvo chiqarib, bunday jirkanch harakatni qat'iy qoralaydi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Xristianlik dinida o'z joniga qasd qilish haqida nima deyiladi?
2. Qadimgi slavyan va Xitoy dinlarida o'zini o'ldirgan insonga qanday munosabat bildirilgan?
3. Qur'oni karimda nohaq qon to'kish haqida nima deyiladi?
4. «Shahidlik» va o'z joniga qasd qilish o'rtasidagi farqni tushuntirib bering.

27-§ DUNYOVIYLIK — DAHRIYLIK EMAS



FAOLLASHTIRISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dunyoviy inson deganda kimni tushunasiz? Diniy kishi deganda-chi?
2. Dunyoviy demokratik davlat deganda nimani tushunasiz?
3. O‘zbekistonda davlat va din munosabatlarining asosiy tamoyillari nimalardan iborat?
4. Sizningcha, zamonaviy hayot kechiradigan inson dindor bo‘lishi mumkinmi?

DUNYOVIYLIKNING MOHIYATI

Dunyoviylik deganda barcha dinlar hamda turli qarashlarni teng hurmat qilish, fuqarolarning dinidan qat’i nazar qonun oldida tengligi nazarda tutiladi. Dunyoviy turmush tarziga dinning moslashish jarayonini ifodalash va din bilan siyosatning o‘zaro nisbatini tavsiflash uchun ilmiy adabiyotlarda «sekulyarizatsiya» atamasi keng qo‘llaniladi.

Masalan, O‘zbekiston aholisining ko‘pchilik qismi muayyan dinga e’tiqod qiladi. Davlat diniy tashkilotlarga hurmat bilan munosabatda bo‘ladi, ularning qonun asosida faoliyat yuritishiga va dindorlarning emin-erkin e’tiqod qilishlariga sharoit yaratib beradi. Shu bilan birga, uning hech qaysi dinga alohida ustunlik yoki imtiyoz bermaydigan o‘z Konstitutsiyasi, qonunchilik asoslari, davlat ramzlari mavjud.

Yurib ketayotgan kishiga otliq, o‘tirgan kishiga yurib ketayotgan, ko‘pchilikka ozchilik salom bersin!



Hadis



«Sekulyarizatsiya» so‘zi lotincha «saeculum» so‘zidan olingan bo‘lib, «dunyoviy» degan ma’noni anglatadi. U davlat va jamiyat boshqaruvida diniy an’analar o‘rnini dunyoviy qonunchilik tizimi egallashiga nisbatan ishlatiladi.

Din faqatgina diniy aqida va ibodatlarni o‘z ichiga olish bilan kifoyalanmay, jamiyatdagi insonlarning o‘zaro hurmat, mehr-shafqat, insoniylik fazilatlari mezonlarini belgilab kelgan. Shuning uchun ham har qanday dunyoviy davlatda jamiyatning birdamligi, o‘zaro ahilligi, jipsligi, tinchligi va barqarorligini saqlashda din o‘zining alohida o‘rniga ega.

Faraz qiling, ikki inson ko‘rishganda bir-birlariga «Assalomu alaykum», «Va alaykum assalom» deya tinchlik tilaydilar. Bir inson: «Salom so‘zi diniy mohiyatga ega bo‘lgani uchun dunyoviy kishilar uni ishlatmaydi», deb salom bermasa yoki alik olmasa, juda xunuk holat bo‘lgan bo‘lar edi.

Diniy manbalarda faqatgina e‘tiqod va ibodat masalalari yoritilmagan, balki o‘tgan xalqlar hayotidan ibratli hikoyalar ham mujassam. Ularda og‘ir sinovlarni boshdan kechirgan payg‘ambarlar hayoti, buzg‘unchiliklarga berilgan xalqlar va ular boshiga jazo sifatida tushgan falokatlar namuna qilib ko‘rsatiladi. Ularni o‘qib, to‘g‘ri xulosa chiqargan kishi gunohlardan tiyilishga, savobli ishlarni ko‘proq qilishga harakat qiladi. Bu esa har qanday jamiyatda sog‘lom ijtimoiy holatning yuzaga kelishiga yordam beradi.

Dunyoviy davlatda xalqning urf-odat, an‘ana va axloqiy qadriyatlarini qonun darajasiga ko‘tarilishi mumkin. Diniy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatga, xalqning ma‘naviy mulkiga, axloqiy normalariga aylangan holdagina u davlat miqyosida ahamiyatga molik bo‘lishi mumkin. Yurtimizda Ramazon va Qurbon hayitlarining mamlakat miqyosida dam olish kuni deb e‘lon qilinishi shu kabi milliy va diniy qadriyatlarning uyg‘unlashuviga misol bo‘la oladi.

DUNYOVIYLIK VA MUTAASSIB OQIMLAR

Barcha dinlarda mavjud bo‘lgan mutaassiblik kayfiyatidagi ayrim guruhlar dunyoviylikni go‘yoki «dahriylik», «dindan chiqish» deb talqin qilishga harakat qiladilar. Ularning da‘volariga ko‘ra, dunyoviy shaxs go‘yo yaratganning buyruqlarini, muqaddas kitoblarni inkor etadi. Bu kabi toifalar dunyoviy ilm-fan, madaniyat va san‘atni mutloq inkor etishni go‘yoki din ko‘rsatmasi darajasiga ko‘taradilar. Aslida esa, sof diniy ta‘limotga ko‘ra, insonlar manfaatiga xizmat qiladigan ilmning har qanday turi savobli amallardan sanaladi.

Din nomidan jaholatni targ‘ib etishga misol tariqasida o‘rta asrlarda Yevropadagi inkvizitsiya sudlarida cherkov nomidan ilm-fan sohalarida yangi-

liklarni ochgan kashfiyotchilarning turli jazolarga tortilishi, olimlarning ta'qib qilinishini keltirish mumkin. Boshqa dinlar doirasida ham bunday holatlar kuzatilib turadi.

Mamlakatimiz aholisining qariyb 90 foizi e'tiqod qiladigan islom dinida dunyoviylik va diniylik chegaralari belgilanmagan. Islom ta'limotiga ko'ra, insonlarning dini, joni, nasabi, aqli va moliga foyda keltiradigan har qanday amal diniy jihatdan ham ma'qullangan, savobli ish hisoblanadi. Masalan, kishilarning og'irini yengil qilish maqsadida texnik vositalarni, tibbiy yoki kimyoviy moddalarni kashf etish, dehqonchilikda yangi uslublarni qo'llash kabi ishlar uchun ham kishi ikki dunyoda ajr va mukofotlar oladi. Ayni damda, insonlar zarariga xizmat qiladigan, g'arazli maqsadlarda kashfiyotlarni amalga oshirish gunoh deb topiladi.

Mazkur tamoyillarga asoslangan holda o'rta asrlarda islom olamidan fanlarning barcha sohalari bo'yicha yetuk, qomusiy allomalar yetishib chiqqan. Din olimlari ham ularni «kufr» yoki dinbuzarlikda ayblamaganlar.

ISLOM DINI VA DUNYOVIYLIK

Islom dinida dunyoviylikka dinga yot tushuncha sifatida qaralmaydi. Islom dinining muqaddas manbalari — Qur'oni karim va hadislarda ham inson bu dunyosi uchun ham harakat qilishi kerakligi uqtiriladi.

Qur'oni karimda aytilishicha, inson oxirat uchun xayrli ishlarni qilish bilan birga bu dunyodagi nasibasini ham unutmasligi lozim. Chunki kishida tanasi, oilasi, qo'ni-qo'shni, jamiyat, qo'l ostidagilarining ham haqqi bor, har bir haqdorning haqqini ado etish kerak. Bu dunyo nasibasi oxirat amallari uchun ozuqa bo'ladi, deyiladi.



Inkvizitsiya

Islom ta'limotiga ko'ra, salom berish va alik olish katta savobli amallardan hisoblanadi. Hadisi sharifda shunday deyiladi: «Salom Allohning yerdagi ismlaridan biridir. Bir-birlaringiz bilan salomlashib yuringlar».



Shular bilan birga Qur’onda ko‘plab oyatlar dunyoviy masalalarni ham qamrab oladi. Misol tariqasida, Qur’ondagi eng katta oyat — «Baqara» surasi-ning 282-oyati ham aynan dunyoviy masala — qarz oldi-berdisi haqida bo‘lib, unda masalaning moddiy va ma’naviy jihatlariga e’tibor qaratilgan.

Islom dinining payg‘ambari Muhammad (s.a.v.) diniy masalalarda barchaga muallim bo‘lsa ham, dunyoviy ishlarda mutaxassislarning fikrlariga quloq tutar edi. Mashhur hadisi sharifda shunday deyiladi:

«Payg‘ambar (s.a.v.) (xurmo) changlatayotgan bir qavmning oldidan o‘tayotib, buni qilmasangiz ham bo‘laveradi, dedilar. O‘sha yili hosil yomon chiqdi. U zot yana o‘shalarning oldilaridan o‘tayotib, xurmoingizga nima bo‘ldi? — deb so‘radilar. Ular, shundoq, shundoq, degan edingiz, deb aytdilar. U zot: «Sizlar dunyoyingiz ishini biluvchiroqsiz» dedilar».

Ya’ni Rasulullohning ba’zi gaplari diniydan ko‘ra tajribaviy asosga yoki shaxsiy fikrga tayangan. Shuning uchun ham sahobalar Rasulullohning ba’zi buyruqlari borasida «Shaxsiy fikringizmi yoki Allohning amrimi?», deb so‘rar edilar. Shaxsiy fikri bo‘lsa, unda ba’zan boshqa afzalroq taklif ayta olardilar. Rasululloh (a.s.) yaxshi taklifni qabul qilib, o‘z fikrini o‘zgartirar, ya’ni shu dunyoviy soha mutaxassisining fikrini albatta inobatga olar edi.

Rasululloh (a.s.)dan keyin chahoryorlar ham shu yo‘lni tutdilar. Hazra- ti Umar (r.a.): «Sizlarning yaxshlaringiz u dunyo va bu dunyo uchun harakat



IJODIY FAOLIYAT

Matnni o‘qing, din va diniy e’tiqod butunlay rad etilsa, jamiyat uchun uning oqibati qanday bo‘lishi mumkinligi haqida xulosa qiling.

«Dunyoviylik — bu dahriylik degani emas. Din va diniy e’tiqod butunlay rad etiladigan hayot qanday g‘ayriinsoniy ko‘rinishga ega ekanini biz ke- chagi tariximiz misolida yaxshi bilamiz. Bunday mafkuraning xatarli tomoni shundaki, u necha asrlar davomida din negizida shakllangan, xalq hayotining ajralmas qismiga aylanib ketgan qadriyatlar — bu yozma yoki og‘zaki, mod- diy yoki ma’naviy meros bo‘ladimi, axloq yoki an’analar bo‘ladimi, milliy du- nyoqarash yoki turmush tarzi bo‘ladimi — bularning barchasini rad etadi».

Islom Karimov, «Yuksak ma’naviyat — yengilmas kuch»

qilganlaringizdir» deb alohida ta’kidlagan. Ali (r.a.) esa: «Bu dunyo uchun abadiy yashaydigandek, oxirating uchun ertaga vafot etadigandek harakat qil», deb marhamat qilgan.

Bugungi kunda ayrim buzg‘unchi kuchlar tomonidan zamonaviy dunyoviy qonunchilik asosida hayot kechirish musulmonlar uchun maqbul emasligi haqida soxta da’volar tarqatilmoqda. Vaholanki, dunyoviy qonunlar haqida islom ulamolarining fikrlarini quyidagicha umumlashtirish mumkin: zamonaviy jamiyat talablariga muvofiq chiqarilgan qonunlar shariatga zid kelmasa, unday qonunlar shariatdandir. Zero, har bir shariat inson manfaati uchun yuborilgan, jamiyatlarning o‘z manfaatlarini ko‘zlab chiqargan qoidalari garchi shariatdan olinmagan bo‘lsa-da, lekin shariatga zid kelmasa, ular ham shariatga muvofiq (shar’iy) hisoblanaveradi.

Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, islom dinida dunyoviylikka dinsizlik sifatida baho berilmagan. Dunyoviy ishlar shaxs va jamiyat manfaatini ko‘zlar ekan, ular din ta’limotlarida doim qo‘llab-quvvatlangan. Din dunyoviy ishlarining ma’naviy jihatlarini tartibga solib turgan. Masalan, bu ishning savob yoki gunoh, ma’naviy jihatdan mumkin yoki mumkin emasligi kabi.

Dunyoviylik tamoyili O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonuni bilan huquqiy kafolatlangan. O‘zbekiston tanlagan taraqqiyot yo‘li — dunyoviy demokratik yo‘ldir. Xalqimiz diniy e’tiqodni chuqur hurmat qilgan holda dunyoviy taraqqiyot yo‘lidan bormoqda.

Istiqlolning dastlabki kunlaridanoq mamlakatimizda diniy-milliy qadriyatlarining tiklanishi, barcha din vakillari uchun keng imkoniyatlar yaratilishi yo‘lida islohotlar boshlandi. O‘zbekiston Respublikasining Konsti-

«Tarix va hayot tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyoviy va diniy qadriyatlar bir-birini to‘ldirmas ekan, bugungi kunning og‘ir va murakkab savollariga to‘laqonli javob topish oson bo‘lmaydi».



**Islom
Karimov**



1991-yil
14-iyunda va
1998-yil
1-mayda yangi
tahrirdagi
«Vijdon
erkinligi va
diniy tashkilotlar
to'g'risida»gi
Qonun qabul
qilindi.

tutsiyasida barcha fuqarolar uchun vijdon erkinligi kafolatlandi. Yurtimizda diniy tashkilotlar faoliyatining huquqiy asoslari bilan birga davlat va dinning munosabatlari ham belgilab berildi.

Shu bilan O'zbekiston tarixida birinchi marta fuqarolarning dinga o'z munosabatlarini, shunga muvofiq ravishda e'tiqodini erkin belgilash va ifodalash, dinga hech qanday to'sqinliksiz amal qilish va diniy marosimlarni bajarish huquqlarini kafolatlaydigan qonun qabul qilindi. «Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga haj qilish uchun borishi to'g'risida», «Diniy bayram «Qurbon hayit»ni dam olish kuni deb e'lon qilish haqida», «Ro'za hayitini dam olish kuni deb e'lon qilish to'g'risida», «Toshkent islom universitetini tashkil etish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida», «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom madaniyati markazi faoliyatini tashkil etish to'g'risida» va boshqa bir qator Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari bu sohaga katta e'tibor berilayotganini ko'rsatib turibdi.



MUSTAHKAMLASH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Dunyoviylik so'zining mazmunini tushuntirib bering.
2. «Sekulyarizatsiya» tushunchasi qanday ma'noni anglatadi?
3. Mutaassib oqimlar tomonidan dunyoviylikning inkor etilishi sababi nimada, deb o'ylaysiz?
4. Islom dini manbalarida dunyoviylikka qanday munosabat bildirilgan?
5. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bugungi kunda diniy qadriyatlarni e'tiborga olmay ish tutish mumkin emasligi haqidagi fikrlarini sharhlang.

DINIY ATAMALARNING IZOHLI LUG'ATI

ALLOH (arab. «al-iloh» – ilohiy kuch, turkiy xalqlarda, xususan, o'zbeklarda – Tangri, fors-toj. – Xudo), Alloh – islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch; xudoning nomi. Odatda, Allohga *taolo* (ulug', oliy), *taboraka va taolo*, *jalla jaloluhu*, *karim*, *buzurg*, *parvardigori olam* kabi sifatlar qo'shib aytiladi.

ANAFEMA – cherkov a'zolidan quvilish, cherkovdagi eng oliy jazo.

AQIDA – arab tilida biron narsani bir-biriga bog'lash ma'nosini anglatadi. Istilohda esa aqid ilmining mashhur nomlaridan biri.

ARON-KADESH (ibr. «Muqaddas sandiq») – sinagoga yoki ibodat uyida mavjud bo'lib, unda «Tavrot» tumorlari saqlanadi. U masjidagi «mehrob»ga o'xshash vazifani bajaradi va kirish eshigining to'g'risida bo'ladi.

ARVOH (ar.) – ruhning ko'plik shakli.

ASH'ARIYLIK – islom dini sunniylik yo'nalishidagi ikki aqidaviy maktabning biri.

ATEIZM (grekcha *atheos* — xudosiz) – lug'aviy ma'nosi Xudodan yuz o'g'irish, Xudoni inkor etgan holda inson aql-idrok kuchini iqror etish demakdir.

BANU ISROIL («Isroil o'g'illari») – yahudiy xalqining nomlaridan biri. «Ibtido» kitobida keltirilishicha, bugungi kunda barcha yahudiylarga nisbatan ishlatiladigan «Isroil o'g'illari» nomi Ya'qub payg'ambarga Xudo tomonidan berilgan.

BIBLIYA (yunoncha — «kitoblar») – yahudiylik va xristianlik dinlarining asosiy muqaddas manbasi. Yahudiylar «Bibliya»si «Kitve kadesh» va «Tanax» ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan Bibliya «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»dan iborat bo'lib, umumiy hisobda 66 kitobdan tarkib topgan.

BUXORO YAHUDIYLARI – yahudiylikdagi etnokonfessional va etnolingvistik jamoa.

DINIY BAG'RIKENGLIK – xilma-xil diniy e'tiqodga ega bo'lgan kishilarning bir zamin, bir Vatanda buyuk g'oya va niyatlar yo'lida hamjihat, hamkor bo'lib yashashi, faoliyati.

DINIY SEKTA – ma'lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo'lmagan holda din bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatadigan guruhlar.

DINIY TASHKILOT — fuqarolarning dinga eʼtiqod qilish, ibodat, rasm–rusumlar va marosimlarni birgalikda ado etish maqsadida tuzilgan koʻngilli birlashmalari (diniy jamiyatlar, diniy oʻquv yurtlari, masjidlar, cherkovlar, sinagogalar, monastirlar va boshqalar).

DINLARNI TASNIFLASH – dinlarni oʻrganishda ularning tarixi, eʼtiqodiy asoslari, aqidalari, shuningdek, bir–biriga taʼsiri kabi jihatlarini eʼtiborga olish.

ESXATOLOGIYA – dunyoning oxiri, narigi dunyo, jannat, doʻzax haqidagi tasavvurlar majmuyi.

FAQIH – fiqh ilmining bilimdoni.

GUNOH (fors. — jinoyat, ayb; asli shu maʼnodagi arab. «*junoh*» soʻzidan olingan) — shariat qonunlariga va diniy aqidalarga xilof ish yoki xatti-harakat.

IBRONIY (ibr. «*ever*», «*avar*» – narigi tomonning odami, kechib otgan) – yahudiylarning manbalardagi nomlaridan biri. «Ibroniylar» atamasi Ibrohim (a.s.)ning Mesopotamiyadan Kanʼonga koʻchib oʻtish vaqtida yuzaga kelgan. Tadqiqotchilarning fikriga koʻra, ularning bunday nomlanishlariga balki daryoni kechib oʻtib kelganlari sabab boʻlgandir.

INJILLASHTIRISH – missionerlik tashkilotlari tomonidan Injilni keng tarqatish maʼnosida ishlatiladigan atama. Baʼzida bu soʻz missionerlikning sinonimi sifatida ham qabul qilinadi.

ISLAMOFIYOB (arab. – *islam*, yunon. *phobia* — qoʻrqish, dahshatga tushish) – islom dinini dahshatli suratlarda koʻrsatish, barcha yomonlik va jinoyatlarni uning nomi bilan bogʻlab, aholi qatlamini islomdan qoʻrqitishga qaratilgan harakat.

JABROIL – Islom taʼlimotida Alloh bilan paygʻambarlar oʻrtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

KALOM – soʻz, nutq maʼnosini bildiradi. Aqida ilmining nomi.

KAROMAT – (arab. «*karam*» — *ikrom etish* feʼlning masdari boʻlib, oʻzbek tiliga *yaxshiliklar* deb tarjima etiladi) asosan, tasavvuf istilohi sifatida koʻp qoʻllanadi. Ularning pirovard maqsadi kishilarni yaxshilikka chaqirish, gunoh ishlardan tiyish, tavba qilishga chorlashdir.

LAMA (Tibet. – eng ulug‘) – Tibet, Mo‘g‘uliston, Rossiya lamaistlarida Budda monaxi. Qalmlarlarda bu unvon faqat ruhoniylar boshlig‘iga beriladi. Dindorlar uni g‘ayritabiiy fazilatlariga ega va ilohiy olam bilan gaplasha oladigan shaxs deb biladilar.

MURID – (arab. «xohlovchi») so‘fiylik yo‘liga kirib, murshidga qo‘l bergan shogird.

MURSHID — (arab. — yo‘l ko‘rsatuvchi) tasavvufda tariqat odoblaridan saboq beruvchi pir, shayx va ustoz. Tasavvuf yo‘nalishining oliy rahnamosi.

MUTAKALLIM – kalom ilmi bilan shug‘ullangan olimlar.

OXIRAT – (arab. — boshqa, oxirgi, ikkinchi) bu dunyo oxiriga yetganidan keyin barcha qayta tirilib, qilgan amallariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan ikkinchi hayot.

SHABBAT – yahudiylarda shanba kunining nomlanishi.

SO‘FIY – tariqatga mansub shaxs, murid.

SURA (arab. — yuqorilik, balandlik, devor) — boshlanish, tugallanish va nomlarga ega kamida uch oyatdan iborat Qur‘on qismlariga nisbatan qo‘llaniladi.

VATIKAN – Rim katolik cherkovining diniy-ma‘muriy markazi. Ayni paytda, Papaning rasmiy qarorgohi sanaladi. Shuningdek, u Italiya poytaxti Rim shahrida joylashgan teokratik shahar-davlatdir.

VIJDON ERKINLIGI – diniy e‘tiqod erkinligi, mamlakat fuqarolarining muayyan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qanday dinga e‘tiqod qilmaslik erkinligini anglatadi. Bularning barchasi demokratik davlatlarning konstitutsiyalarida inson huquqlari to‘g‘risida Birlashgan Millatlar Tashkiloti qabul qilgan Umumjahon deklaratsiyasi asosida o‘z ifodasini topgan.

YEPARXIYA (yun. ἐπαρχία — «viloyat») – xristian cherkovida yepiskop (arxierey) boshchiligidagi ma‘muriy-hududiy bo‘linma.

YIG‘I DEVORI – Quddus shahrida joylashgan, 70 yilda rimliklar tomonidan vayron qilinganidan keyin Ikkinchi Ibodatxonaning 485 metr uzunlikdagi saqlanib qolgan bir qismi. Yahudiylarning muqaddas ziyoratgoh joyi.

Mundarija

So‘zboshi.....	3
1-§. Dinning jamiyatdagi o‘rni va vazifalari.....	5
2-§. Fan va din	9
3–4-§. Dinning paydo bo‘lishi va shakllari.....	13
5-§. Yahudiylik.....	20
6–7-§. Yahudiylik marosimlari va oqimlari	26
8-§. Buddaviylik	37
9-§. Buddaviylik ta’limoti.....	42
10-§. Xristianlik	48
11–12-§. Xristianlik ta’limoti	55
13-§. Markaziy Osiyoda islom.....	62
14-§. Islomdagi mazhablar va aqidaviy ta’limotlar	66
15-§. Tasavvuf va tariqatlar	72
16-§. O‘zbekistonda diniy bag‘rikenglik va ijtimoiy barqarorlik.....	77
17–18-§. Yurtimiz mutafakkirlarining jahon ilm-fan rivojiga qo‘shgan hissasi	82
19-§. Din va «ommiy madaniyat».....	91
20-§. Ksenofobiya va din.....	96
21-§. Dunyo dinlarida tinchlik g‘oyasi	100
22-§. Missionerlik — yoshlar kelajagiga tahdid.....	105
23-§. «Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida»gi Qonunning mazmun-mohiyati.....	111
24-§. O‘zbekistonning din niqobidagi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi o‘rni.....	116
25-§. Kibermakonda din va axborot iste’moli madaniyati	123
26-§. Dinlarda hayot qadri	128
27-§. Dunyoviylik — dahriylik emas	133
Diniy atamalarning izohli lug‘ati	139

Zohidjon Mahmudovich ISLOMOV,
Durbek Obidjonovich RAHIMJONOV,
Jasur Xotamjonovich NAJMIDDINOV

Metodist
Nargiza Kamaritdinovna Ismatova

O'quv nashri

«Dunyo dinlari tarixi»

O'rta umumta'lim maktablarining 10-sinflari va o'rta maxsus,
kasb-hunar ta'limi muassasalari uchun darslik

Birinchi nashr

Toshkent — «Yangiyo'l poligraf servis» — 2017

Nashriyot litsenziyasi AI №185, 10.05.2011.

Muharrir J. Azimov
Texnik muharrir M. Riksiyev
Musahhah A. Toshpo'latov
Rassom M. Riksiyev

Original-maketdan bosishga ruxsat etildi 26.10.2017.
Bichimi 70x90 1/16. «Times New Roman» garniturasi. Ofset qog'ozi.
Ofset bosma usulda bosildi.
Bosma tabog'i 9,0. Sh. b. t. 10,53.
Nusxasi 469363.
Buyurtma № 4740.

«O'qituvchi» NMIU bosmaxonasida chop etildi.
100206, Toshkent sh., Yunusobod tumani, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.

Ijaraga berilgan darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

T/r	O'quvchining ismi va familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi	Darslikning topshiril-gandagi holati	Sinf rahbari-ning imzosi
1						
2						
3						
4						
5						
6						

Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to'ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqovaga chizilgan, yirtilgan, asosiy qismdan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.